

**M.ALLAMOVA, M.YARMANOVA, R.MATRASULOVA,  
R.YAKUBOVA**

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA  
O'QISH, ONA TILI, ODOBNOMA  
VA MATEMATIKA**



**TOSHKENT-2014**



***M.Allamova, M.Yarmanova, R.Matrasulova, R.Yakubova***

***BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QISH, ONA TILI, ODOBNOMA VA MATEMATIKA***

**O'quv-uslubiy qo'llanma**

**Toshkent-2014**

***M. Allamova, M.Yarmanova, R.Matrasulova, R.Yakubova.  
Boshlang'ich sinflarda o'qish, ona tili, odobnoma va matematika  
Toshkent-2014.***

Ushbu o'quv-uslubiy qo'llanmada boshlang'ich ta'lim jarayonida kichik yoshdagi o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini shakllantirish uslublari, o'quv predmeti, metodlar, shakl va vositalar yoritiladi.

Qo'llanmada boshlang'ich sinflarda o'qish, ona tili, odobnoma va matematika darslarini noan'anaviy usullarda o'qitish mashg'ulotlari ko'rsatilgan. Qo'llanmadagi mavzular oddiydan murakkabga tamoyilida tuzilgan bo'lib, taxminiydir, Har bir o'qituvchi o'z faoliyatidagi sharoitdan kelib chiqqan holda ularning sonini ko'paytirishi, mashg'ulotlar mazmunini kengaytirishi mumkin.

**O'quv-uslubiy qo'llanma:**

**Mas'ul muharir: Yu.Atajonova**

**Taqrizchilar:           ф.ф.д.       M.Xajiyeva  
                                 п.ф.н., dos. N.Mahmudova**

Ushbu uslubiy qo'llanma Xorazm VPKQTMOI ilmiy kengashining 2014 yil 31- mart 1 - sonli yig'ilishida tasdiqlandi.

***Boshlang'ich sinflarda o'qish, ona tili, odobnoma va  
matematika***

***M. Allamova, M.Yarmanova,  
R.Matrasulova, R.Yakubova.***

“Vaqt pillapoyasi cheksizdir, bir-birining o‘rnini egallab boradigan avlodlar zinadan- zinagagina ko‘tariladilar xolos. Jamlangan tajribani har bir avlod o‘zidan keyin kelayotgan, o‘zidan keyin uni taraqqiy ettiradigan va boyitadigan navbatdagi avlodga yetkazib beradi”.

Abu Rayxon Beruniy

## KIRISH

O‘zbekiston Respublikasining bundan keyingi rivojlanishi bevosita ta’lim-tarbiya natijasiga bog‘liqligi barchaga ayon. Ta’lim-tarbiyani takomillashtirmay, ma’naviy boy barkamol insonni tarbiyalash mushkul. Bu haqda O‘zbekiston Respublikasining Ta’lim to‘g‘risidagi Qonun va Kadrlar tayyorlash milliy dasturi belgilab berilgan ijtimoiy vazifalardan kelib chiqib yosh avlod ta’lim-tarbiyasini tashkil etishi kundalik hayotning o‘zi talab qilmoqda.

Pedagog ixtisosligini tanlagan har bir inson kimlarni o‘qitayotgan va tarbiyalayotganligi uchun o‘ziga javobgarlikni oladi. U o‘zining kasbiy tayyorgarligiga javob berish bilan birga pedagog, o‘qituvchi, tarbiyachi, muallim bo‘lish huquqiga ega bo‘lishi uchun juda ko‘plab majburiyatlarni olishi zarur. Muallimlik kasbining sharafliligi, nafaqat, uning o‘qituvchi, turli bilimlarni o‘rgatuvchi va mohir tarbiyachi bo‘lganligi uchungina emas, balki uning o‘zi tanlagan kasb-hunar yo‘nalishidagi barcha mutaxassisliklar bo‘yicha maxsus fanlarni va ularning poydevori bo‘lgan fundamental fanlarni hamda o‘qitish va tarbiya berishni, psixologiya va pedagogika asoslarini a’lo darajada egallagan bo‘lishi shart. Shu bilan birga haqiqiy muallim turli darajadagi bilimga, xohish va irodaga hamda tarbiyaga ega bo‘lgan o‘qituvchilarni ajoyib san’atkor kabi o‘ziga ergashtira olishi zarur. Bunday kasbiy pedagogik xususiyatga ega bo‘lgan muallim o‘ziga quyidagi majburiyatlarni olishi kerak. Birinchidan, o‘qituvchi, pedagoglik faoliyati uchun o‘zining imkoniyatlarini baholashi, o‘zining kuchli va kuchsiz tomonlarini bilishi, kasbiy pedagogik tayyorgarlik davrida qanday kasbiy zaruriy sifatlarni shakllantirish kerakligini va qandaylarini mustaqil pedagogik jarayonda shakllantirishi kerak? Ikkinchidan, pedagog intellektual faoliyatining umumiy tomonlari (tafakkur, xotira, qabul qila olishi, ko‘z oldiga keltirishi, e’tibor) ni xulq-atvor madaniyati va shu jumladan pedagogikaviy aloqasini egallagan bo‘lishi shart. Uchinchidan, pedagog uchun majburiy dastlabki shart-sharoit muvaffaqiyatli faoliyat asosi bo‘lgan o‘quvchini o‘zining tengquri deb qarashi va uning xulq-atvori o‘zaro aloqasidagi qonun-qoidalarini bilishi kerak. Pedagog o‘quvchi va tarbiyalanuvchini, uning barcha xususiyatlaridan qat’iy nazar, bilishi va qabul qilishi shart. To‘rtinchidan, pedagog nafaqat o‘qituvchilar o‘qish faoliyatining tashkilotchisi va o‘qish jarayonini tashkil etuvchilarning o‘zaro aloqasini ilhomlantiruvchi bo‘lib xizmat qilish bilan birga ma’lum ma’noda bilim, tarbiya berish va demak, umumiy maqsadlarga erishishda ularning tengdoshi sifatida qatnashishi zarur. Har qanday faoliyat maqsadi-kelajak faoliyat natijasining hayoldagi qiyofasidir. Zamonaviy o‘qitish texnologiyasi maqsadlarga izchil

mo'ljal olishning asosi bo'lib, tezda ushbu borada qaytib keladigan aloqa manbai hisoblanadi. Bunda o'quv maqsadlari imkoni boricha aniqlashtiriladi.

Zamonaviy pedagogik texnologiya o'zining boshlang'ich sinf darslari xususiy nazariyasiga ega: u birinchi galda ta'lim-tarbiyaviy jarayonni nazariy asosda qurishga yo'naltirilgan; o'qitishning axborotli vositalaridan, didaktik materiallardan, faol metodlardan keng foydalanishga asoslangan o'qituvchi va boshlang'ich sinf o'quvchilarning birgalikdagi faoliyatiga zamin yaratadi.

Kelajakda ta'lim taraqqiyotining haqqoniy dvigateli sifatida o'qituvchi faoliyatini yangilashga, ta'lim-tarbiya jarayonini maqbul (optimal) qurishga, yoshlarda hurfiylilik, bilimga chanqoqlik, Vatanga sodiqlik, insonparvarlik tuyg'ularini shakllantirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Ushbu o'quv-uslubiy qo'llanmaning asosiy maqsadi boshlang'ich ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan ilg'or o'qitish uslublari haqida tushuncha berishdir. Shuningdek, mazkur uslubiy qo'llanmadan boshlang'ich sinf o'qituvchilari foydalanishi mumkin.

## **BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QITUVCHILARINI BOSHLANG'ICH SINFLAR O'QUVCHILAR BILAN MULOQOT OLIB BORISH MAHORATI**

Muloqot inson faoliyatining ruhiy hamda ma'naviy asosi natijasida yuzaga kelayotgan ijtimoiy ehtiyojlar bilan birgalikda namoyon bo'ladi,

«Shaxslar faoliyati motivatsiyasining asosi sifatida yuzaga chiqayotgan ehtiyoj, manfaat, manfaatdorlik kabi ijtimoiy-iqtisodiy omillar ma'lum ma'noda ularni maqsadli o'y-fikrlari, istaklari yuzaga chiqishiga ham sabab bo'ladi. Shaxslararo munosabatlarni, muloqot madaniyatini qay darajada shakllanishiga ham sezilarli ta'sir o'tkazadi. Binobarin, muloqot odamlar orasida amalga oshiriladigan faoliyatlar ichida yetakchi o'rin egallab, u insondagi eng muhim ehtiyojlarni jamiyatda yashash va o'zini shaxs deb hisoblash bilan bog'liq ehtiyojni qondiradi. Shuning uchun ham uning har bir inson uchun ahamiyati mislsiz»<sup>1</sup>. Muloqot odamlarning birgalikdagi faoliyatlari, ehtiyojlaridan kelib chiqadigan turli faolliklari mobaynida bir-biri bilan o'zaro munosabatlarga kirishish jarayonidir.

Har bir shaxsning jamiyatda ado etadigan faoliyati o'zaro munosabat va ta'sir shakllarini o'z ichiga oladi. Chunki har qanday ish, avvalo odamlarning bir-birlari bilan til topishish, bir-birlariga turli xil ma'lumotlarni uzatish, fikr almashinuvi kabi murakkab hamkorlikni talab etadi. Shunday ekan, har bir shaxsning jamiyatda tutgan o'rni, ishlarining muvaffaqiyati, obro'si uning muloqotga kirisha olish qobiliyati bilan bevosita bog'liqdir. Bir qarashda osonga o'xshagan shaxslararo muloqot jarayoni aslida juda murakkab bo'lib, unga odam hayoti davomida o'rganib boradi.

Muloqot inson amaliy faoliyatining moddiy-ma'naviy shakllarini hamda uning ehtiyojlarini o'zida aks ettiradi<sup>2</sup>. O'qituvchining o'quvchilar bilan muomala odobi. O'qituvchi va o'quvchi, domla va talaba o'rtasidagi munosabat va muomala

<sup>1</sup> V.M.Karimova. Ijtimoiy psixologiya asoslari. — Toshkent. 1994 yil. 35 bet

<sup>2</sup> «Xalq ta'limi» jurnali, 2003 yil, 3son, 48 bet.

madaniyati ularning fe'l-atvori, xulqi va olgan tarbiyasining amaliy hayotda namoyon bo'lishini bildiradi. Kishining madaniyati, avvalo uning muomalasi, atrofdagilar bilan munosabatida ko'zga tashlanadi. O'qimishli, madaniyatli, o'qituvchi hamkasbidan, o'quvchisidan nimani, qanday so'rashni, u yoki bu masala yuzasidan murojaat qilish mumkinmi yoki yo'qligini, oilaviy munosabatlarga daxldor masalalarga munosabat bildirish zaruriyati bormi yo'qligini yaxshi anglaydi. Muomala jarayonida suhbatdoshining kayfiyatini ko'tarish, unga optimistik ruh bag'ishlash, uning o'z kuchiga ishonchini hosil qilish ham o'qituvchining eng muhim sifatlaridan biridir. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, tom ma'nodagi muomala madaniyatiga ega bo'lgan o'qituvchi shuhratparastlik, manmanlik, befarqlik, hasadgo'ylik, g'iybatchilik kabi illatlarga toqat qila olmaydi va unga qarshi kurashadi.

O'qituvchining muomala madaniyatining tarkibiy qismi nutq madaniyati bilan bog'liq. Chunki nutq va unda ifodalangan so'z kishiga ta'sir etuvchi qudratli psixologik kuchga ega. Uni faqat o'zining mazmuni bilan emas, balki so'zlovchining aytilayotgan fikrini ifoda qilish uslubi bilan ham ta'sir darajasi va qudratini yanada orttirish mumkin

Ingliz dramaturgi B.Shou aytganidek, «Ha» so'zini aytishning 50 dan ortiq uslubi bor, «Yo'q» so'zini ham shuncha uslubi bor, ammo bu so'zni yozishni faqat bir uslubi bor».<sup>3</sup> Bu fikr zahirida muloqot madaniyatiga doir juda nozik qochirim, ma'no yashiringan. O'qituvchi muloqotining negizida so'z, fikr turar ekan, fikrni bayon etish ifodasi har bir o'qituvchining saviyasi, ma'naviy dunyosi, madaniyatiga asoslanadi.

O'qituvchining muloqot madaniyati nafaqat shaxslararo munosabatlarga, balki shu bilan birga ishlab chiqarish, mehnat jamoasi, jamiyat hayotiga ham kerakligini hisobga oladigan bo'lsak, bugungi kunda o'quvchi, talabalar fe'l-atvorini o'rganish, ularning bir-birlariga mehr-muruvvatli bo'lishga o'rgatish, diniy aqidaparastlik tomir otayotgan hozirgi davr uchun jamiyatni insonparvarlashtirish naqadar dolzarbligini anglash mumkin. Umuman olganda, muloqot madaniyatini takomillashtirish umuminsoniy ehtiyoj sifatida o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Atoqli adib B.Shou so'zlari bilan aytganda: «Biz hozir havoda qush kabi uchishni, suvda baliq kabi suzishni o'rganib olgan bo'lsakda, bizga bir narsa — insonlardek yashashni o'rganib olish yetishmaydi». Artur Konon Doyl asarining qahramoni, mashhur izquvar Sherlok Xolms ta'kidlaganidek: «Har bir inson o'z xususiyatiga ko'ra hal etilmaydigan jumboq»dir. Kishilar xulqi, fe'l-atvori bilan bir-birlaridan farq qiladilar, ammo ular orasidagi o'xshashlik ma'lum darajada saqlanib qoladi.

Demak, odamzodning tashqi turqi-tarovatigina, balki ichki olami, maslagi, insoniy qiyofasi, hozirgi ko'rinishi uzoq tarixiy kamolot natijasidir. Bu kamolot zahirida esa kishilar o'rtasidagi muloqot hamda muomala madaniyati turganligi sir emas. Shu sababli o'qituvchining muloqot madaniyatida ham oqilona ehtiyojni anglab olish muhim vazifadir.

O'qituvchining ish faoliyati davomida o'quvchilar bilan muomala-munosabatlari katta o'rin egallaydi. Bu jarayonda bola insoniyat to'plagan


---

<sup>3</sup> Xalq ta'limi jurnali, 2003 yil, 3son, 49bet.

bilimlarni, muomala qilish tajribalarini o'zlashtiradi. O'qituvchi esa pedagogik jarayonda asosiy shaxs bo'lib xizmat qiladi, chunki unga yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash vazifasi yuklatilgan.

O'qituvchi boshlang'ich sinf o'quvchilarni o'qitish va tarbiyalash jarayonida umuminsoniy va milliy urf-odat mezonlaridan saboq beradi. Boshlang'ich sinf o'quvchilar muomala odobini, muloqot olib borish yo'llarini asosan o'qituvchi timsolida anglab oladilar. Muallim bola uchun bir umr ideal, ibrat, namuna bo'lib qoladi.

O'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi muloqotni tartibga soluvchi talablardan biri bolaning xulqini, muomalasini, bola bajargan ishni odilona, to'g'ri baholashdir. Pedagogik faoliyatda sinfdan va maktabdan tashqari ishlar o'qituvchi bilan o'quvchi o'rtasidagi muloqotning muhim sohalaridan biri hisoblanadi. Sinfdan va maktabdan tashqari ishlarning turi nihoyatda ko'p bo'lib, o'qituvchi tomonidan muloqot jarayonida bu ishlarning xususiyati, bajarish jarayoni, natijasi haqida to'liq tushuntirishiga bog'liqdir.



O'qituvchi faoliyatida sharqona umuminsoniy qadriyatlardan foydalanish. Milliy dastur, ta'lim to'g'risidagi Qonundan kelib chiqadigan vazifalarni maktab o'quvchilari, o'quv yurtlarining pedagog xodimlari, professor - o'qituvchilari amalga oshiradilar. Shu bois pedagog xodimlar o'zlarining kasb sha'ni va qadr-qimmatlarini himoya qilishlari: odob-ahloq qoidalariga rioya etishlari, bola, o'quvchi, o'qituvchi-o'quvchi shaxsining qadr-qimmatini asrashlari; bolalarni mehnatga, qonunlarga, ota-onalarga, ma'naviy-tarixiy, madaniy-milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat, atrof-muhitga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish ruhida tarbiyalashlari, ibratli faoliyatlari va shaxsiy namunalari bilan umuminsoniy ahloq qoidalariga, haqiqat, adolat, vatanparvarlik, yaxshilik va boshqa xayrli xislatlarga nisbatan e'tiborni qaror toptirishlari lozim.

O'zbekiston Respublikasining Prezidenti I.A.Karimovning deyarli barcha asarlarida, so'zlagan nutqlarida o'zbek xalqining ko'p asrlik ma'naviy, milliy,

qadriyatlarini, ma'naviyatini belgilab beruvchi Qur'oni Karim, Hadisi Sharif, Imom al - Buxoriy, Imom at-Termiziy, Bahouddin Naqshband, az-Zamaxshariy, Najmiddin Kubro, Ahmad Yassaviy, So'fi Olloyor, Sulaymon Boqirg'oniy kabi mutafakkirlarining bebaho merosini, Al Xorazmiy, Abu Nasr Forobiy, Al Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Qoshg'ariy, Yusuf Xos Xojib, Ahmad Yugnakiy, Mirzo Ulugbek, Amir Temur, Bobur, Alisher Navoiy, Kamoliddin Behzod kabi allomalarning jahon fani va madaniyatiga qo'shgan bebaho hissalarini o'rganish, shu asosda yosh avlodni tarbiyalash zarurligi ta'kidlanadi.

Prezidentimizning ta'kidlashicha, yoshlarni umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalashda islom ta'limotining ahamiyati katta. Islom dini - bu ota-bobolarimiz dini, u biz uchun ham iymon, ham diyonat, ham ma'rifatdir.

Insonga xos oliyjanob sifatlardan yana biri kechirimli bo'lishdir. Bu sifat keng qalbli, birovlarining adovati va aziyatiga chiday oladigan kishilarda bo'ladi. Insonlar ko'pincha xato qiladilar va xatolarning kechirilishiga muhtojlik sezadilar. «Yomonlikni yaxshilik bilan qaytaringlar» - deyiladi Qur'oni Karimda.

Kishilar o'rtasidagi munosabatlarda ko'pgina muammolar o'ylamasdan, ehtiyotsizlik bilan aytilgan qo'pol so'zdan kelib chiqadi. O'qituvchining chiroyli so'zi esa yaxshi muomala, mehr-oqibat kalitidir. O'qituvchi shirinso'zligi va xushmuomalaligi shartlaridan biri ovozni baland ham, past ham qilmay, me'yorida gapirishdir. Shirinso'zlik va go'zal munosabat hech qachon, hech qaerda sotilmaydi. Bunga erishmoqlikning birgina yo'li bor, bu ham bo'lsa, tinimsiz shirinso'zni mashq qilish, kitob o'qish va axborotlarni tinglash, ko'p eshitish va tahlil qilishdir. Muomala o'qituvchining kimligini ko'rsatuvchi ko'zgudir.

Boshlang'ich sinf o'qituvchisining maqsadlaridan biri- komil insonni o'qitish va tarbiyalash natijasidir. Komil inson g'oyasi - ham milliy, ham umumbashariy mohiyat va qadriyatga ega, odamzodga xos eng yuksak ma'naviy va jismoniy barkamollikni mujassam etgan, uni hamisha ezgulikka undaydigan oliyjanob g'oyadir.

Komil insonni tarbiyalash g'oyasi azal-azaldan xalqimizning ezgu orzusi, uning ma'naviyatining uzviy bir qismi bo'lib kelgan. Barkamol inson haqidagi yuksak, umuminsoniy g'oyalar Abu Nasr Forobiy va Alisher Navoiy kabi mutafakkirlarimizning asarlarida, ayniqsa. teran ifoda etilgan.



Hazrat Navoiyning «Kamol et kasbkim, olam uyidin, senga farz o'lmagay g'amnoq chiqmoq. Jahondin notamom o'tmak biaynix, erur hammomdin nopok chiqmoq», degan fikrlari har bir inson komillikni o'ziga shior qilib olishi zarurligini anglatadi.

Biz ular haqida ko'p gapiramiz, tahlil qilamiz. Biroq aql-hushni bir yerga

to'plab, astoydil o'ylab ko'radigan bo'lsak, g'aroib bir manzaraga duch kelamiz. Inson mehnat faoliyatining shakl va usullarini o'rganish uchun ko'p vaqt ajratadi, dunyoni bilish usullarini o'rganish uchun ham ko'p vaqt sarflaydi. Biroq insonlararo muloqotga hech kim hech qacda maxsus o'rgatilmaydi. Bizda muloqot qilishning murakkab san'atiga o'qitadigan maktab hozircha yo'q. U bevosita ish jarayonida shakllanib boradi.

Tasavvur qiling, siz sinfga kirib keldingiz. Pedagogik muloqotning yozilmagan ushbu qonunlarini yana bir bor eslatishga harakat qilamiz.

1. Pedagogik jarayon bizning bolalar bilan munosabatimizga asoslanadi, zotan xuddi shu munosabatlar pedagogik o'zaro ta'sirda birlamchidir, har bir «Pedagogik harakat»ga takrorlanmas shaxsiylik ma'nosini beradi. O'quv material yoki pedagogik talabni takrorlanmas hissiyotlar yig'indisi bilan bezaydi. Bularsiz esa bola qalbi sirini hech qachon anglab bo'lmaydi. O'zingizning bolalar bilan munosabatingiz haqida doimo o'ylang, bu munosabatlarni maqsadga yo'naltirilgan holda tuzishga harakat qiling. Ular pedagogik jarayonga, qolaversa har bir bola shaxsiga sezilarli darajada muntazam ta'sir etib qoladi. Esda tuting, yozgan har bir konspekt, matn ortida tarbiyaviy ish rejasi zahirida sizning o'quvchilar bilan o'zaro munosabatingiz masalasi yashirinib yotadi.

2. Pedagogik muloqotni tashkil etishda faqat pedagogik maqsad va vazifalar bilan o'ralashib qolmaslik zarur. Bunday cheklanish o'qituvchining «O'z tashabbusi» bilan muloqot qilishiga olib keladi. Uning so'zlarida hukmronlik ma'nosini anglash qiyin emas. «Bu men uchun zarur. Bu pedagogik maqsad va vazifalar bilan bog'liq. Dastur va rejalardan kelib chiqadi» va boshqalar. Pedagogik muloqotning «o'z tashabbusi» tashkil qilinishi o'qituvchi faoliyatini qat'iy cheklab qo'yadi, o'quvchi uning harakat doirasidan tashqarida qoladi. Mashhur pedagoglarimizdan ko'pchiligi shunday deydi: «Biz kattalar, o'qituvchilar bolalarga, asosan bizga xush keladigan narsalarni bajarishga majbur qilamiz, ularning ko'ngillariga qarab ish tutish esa ko'p hollarda pedagogik faoliyatimiz doirasidan tashqarida qolib ketadi». Shuning uchun bolalar bilan muloqotni yo'lga qo'yishda o'qituvchi tashabbusidan ko'ra «bola tashabbusi» asosida ish tutgan ma'qul. Shunda bola doimo bizning pedagogik faoliyatimiz doirasida bo'ladi.

Shubha yo'q, muloqotni o'qituvchi tashabbusi bilan tashkil qilish oson. Ammo pedagogik muloqot-bu murakkab inshoot, demak uni muayyan qonun asosida ko'rmoq kerak. Bu o'rinda o'quvchi tashabbusi bilan boshlangan muloqot yaxshi natija beradi, u o'quvchi shaxsini to'laroq aks ettiradi, pedagogik vazifalarni amalga oshirishda samaradorlikni ta'minlaydi.

3. Pedagogik muloqotni tashkil qilar ekanmiz, o'z nutqimizni bir bola yoki o'quvchilar guruhiga yo'naltirishga harakat qilishimiz kerak. Bunday yo'l tutish ta'lim va tarbiyaning to'g'ri usullarini tanlash kabi muhimdir.

Nutqni aniq yo'naltirish zarur deganda nimani nazarda tutmoq kerak? Avvalo, o'quvchining shaxsiy xususiyatlarini, uning sinfda, sinfdoshlari bilan munosabatda egallaydigan o'rnini hisobga olish darkor. Shunga muvofiq nutqni tez ifoda etish, fikrlarning ketma-ketligiga erishish, uning mantiqqa to'g'ri kelishini e'tiborga olish o'qituvchining asosiy vazifasidir.

Shuni ham ta'kidlash joizni, pedagogik jarayondagi muloqotni faqat bir vazifa bilan, ya'ni axborot bilan cheklash mumkin emas. Bu yo'lda muloqotning bir turidan-axborot ayirboshlash, o'zaro munosabatlarni tashkil qilib, bola shaxsini o'rganish, kattalar va bolalarning bir-biriga ta'sirini hisobga olish va boshqa vositalardan foydalanish lozim. Biz pedagogik muloqotdagi mavjud yo'nalishlardan biriga bilib-bilmay amal qilmasligimiz mumkin. Biroq buning oqibati ertasigayoq ko'zga tashlanadi, tarbiya natijalarida uzilish yuz beradi. Shunday holning yuz bermasligi uchun o'qituvchi bola shaxsini o'rganib borishi zarur.



Bolalar bilan munosabatga kirishar ekanmiz, muloqotni, ya'ni yuqoridan pastga qarab tashkil qilishdan saqlanishimiz kerak. Hatto juda kichik yoshdagi bolalar ham mustaqil ekanliklarini isbotlashga harakat qilishadi. O'qituvchilik diplomi bolalar bilan munosabatda yetakchi bo'lish huquqini bermaydi. Bunday

huquqni qo'lga kiritish uchun o'quvchilar jamoasida tutadigan o'rni, bu o'qituvchining rasmiy obro'si emas, balki uning insoniyligi bilan belgilanadi. Bolalar bilan o'zaro munosabatni shunday yo'lga qo'yish kerakki, yetakchilik mavqei tabiiy ravishda pedagogik jarayon mantiqidan kelib chiqsin.

Sinfdagi ruhiy muhitni sezishga harakat qilishni o'rganish lozim. Chunki o'qituvchi sinfdagi ruhiy holatni bilmas ekan, o'quv-tarbiya jarayoni mahsuldor bo'lmaydi. O'qituvchi har bir shaxs ko'nglidagi sirlarni topishga yordam berishga harakat qilishi va bunday malaka va ko'nikmalarni o'zida shakllantirishi kerak. Masalan: sinfda matematika darsi bo'lmoqda. O'qituvchi o'quvchilarni yangi material bilan tanishtirmoqda. Matematikaga qiziqadigan bir o'quvchi, matematikani yaxshi ko'rgani uchun ham, bu darsga quloq solib tinglab turibdi. Ikkinchi o'quvchi esa, quloq solish bilan kifoyalanib, ikki ko'zini o'sha javob beradigan o'quvchiga tikkanicha o'tiribdi. U chiroyli yoki yo'qligi haqida o'ylayapti. Xuddi shu dam matematikani uncha xushlamaydigan, ammo sportni jon dilidan sevadigan uchinchi o'quvchi yonidagi o'quvchiga kechagi sport o'yini haqida gapirib bermoqda. Matematikaning «M» harfini ham tushunmaydigan boshqa o'quvchining ko'zi tashqaridagi qorga tushdi. Agarda o'quvchilarning shu xususiyatlarini birma-bir tahlil qilsak, darsning ruhiy vaziyatlari son-sanoqzligini ko'ramiz. Biroq har xil dars o'tganda unga bugungi kun nuqtai nazaridan yondoshish kerak bo'ladi. Aytaylik, bolalar bilan suhbatda kechagi kun mavzusi takrorlanishi mumkin, bunda mavzudagi arimas bo'lib tuyulgan o'zgarish suhbatni butunlay boshqa ma'lumotlar bilan boyitib yuboradi. Shuning uchun

sinfidagi ruhiy vaziyatni nazorat qila bilish juda ahamiyatlidir:

Buning uchun:

- Boshlang'ich sinf o'quvchilarini kuzata bilish;
- Boshlang'ich sinf o'quvchilari ko'zidagi ifodani, ularning mimikasi va ko'rinishidagi o'zgarishlarni tushuna bilish zarur;
- Boshlang'ich sinf o'quvchilari xulqidagi o'zgarishning, kayfiyatidagi barcha o'zgarishlarga e'tibor berish;
- sinfning o'zini tutishiga nisbatan munosabatni bildirishga yumshoqlik va hozirjavoblik ko'rsatish;
- sinfdagi bugungi ruhiy muhitni kechagisi bilan qiyoslab, garchi doimo o'zgarib turgan bo'lsada, umumiy ruhiy holatini topish.

Har bir o'qituvchi bilishi kerak bo'lgan pedagogik muloqotni tashkil qilishning asosiy ruhiy pedagogik talablari shulardan iborat. Shubhasiz, uni yodlab olish va ko'r-ko'rona tadbqiq qilish yetarlimas. U o'qituvchiga o'quv-tarbiya jarayoniga eng asosiy omil-inson omiliga samarali ta'sir etishga yordam beradi.

#### **O'QITUVCHINING FIDOKORLIK FAZILATLARI- BARKAMOL SHAXSNI TARBIYALASHDA MUHIM OMILDIR.**

Bugungi kunda Respublikamizda qobiliyatli, iste'dodli, o'z-o'zini to'liq anglagan, vatanparvarlik, fidoiylik his-tuyg'ulari shakllangan yoshlarni tarbiyalashga bo'lgan ehtiyoj alq ta'limi tizimi oldida yangi vazifalarni hal qilish masalasini qo'ymoqda.



Muhtaram Prezidentimiz I.A.Karimov aytganidek: "Kelajakda O'zbekiston yuksak darajada taraqqiy etgan iqtisodi bilangina emas, balki bilimdon, ma'naviy jihatdan yetuk farzandlari bilan jahonni qoyil qilishi lozim. Bu borada Vatanga muhabbat, sadoqat alohida o'rinda turadi". O'sib kelayotgan yosh avlodni yaxshi inson qilib tarbiyalash har qanday ijtimoiy tizimning asosiy vazifasidir. Kuchli fuqarolik jamiyati sari ildam qadam tashlayotgan jamiyatimiz insonni barkamol ma'naviy-ahloqiy sifatlarni o'zida mujassamlashtirgan, ishga ijodkorona yondoshuvchan, jamoat ishlarida faol qatnashuvchi qilib tarbiyalash vazifasini qo'ymoqda. Ta'lim-tarbiyaning yaxshi texnika va yangi pedagogik texnologiyasi bilan uning psixologik asoslarini

ishlab chiqish bugungi kunning talabidir. Ushbu vazifani samarali hal etish uchun esa yosh avlodni tarbiyalaydigan o'qituvchilarda yuksak ma'naviy-ahloqiy fazilat bo'lgan fidoiylik, fidokorlik tuyg'ularini shakllantirish lozim bo'ladi.

Malaka oshirish institutlari o'qituvchilarda: birinchidan, o'z bilimlarini

muttasil oshirib borish, ikkinchidan, yangi pedagogik texnologiyalarni amalda qo'llash, uchinchidan, axborot texnologiyalaridan foydalanish malakalarini o'zlashtirish asosida ularda fidoiylilik xususiyatlarini shakllantirishda muhim o'rin egallaydi. Buning uchun, avvalombor, fidoiylilik, fidokorlik tuyg'ularining tub mohiyati va asoslari nimadan iborat ekanligini anglab olishimiz zarur. Bu birinchidan, fidoiylilik, fidokorlik insonga boshqalar bilan ijobiy muvaffaqiyatli munosabatda bo'lishni ta'minlaydi. Ikkinchidan, yuksak fidoiylilik, fidokorlik fazilatlariga ega o'qituvchi ta'lim-tarbiyaning muvaffaqiyatli bo'lishiga erishishni ta'minlaydi. Uchinchidan, bunday fazilatga ega o'qituvchi kelajakimiz quruvchisi bo'ladigan yoshlarda yuksak fidoiylilik his-tuyg'usi ongli ravishda shakllangan barkamol shaxsni tarbiyalash ishini samarali



amalgaga oshiradi. Mustaqillik tufayli fidoiylilik hayotimiz mazmuniga aylanib bormoqda. Fidokorlik tuyg'usiga ega bo'lgan har bir inson, qaysi sohada ishlamasin, o'z ona Vatani, xalqining orzu-umidlarini, o'zi va avlodlari kelajagini o'ylaydi. Ozod va obod Vatan qoldirishdek g'oyani amalga oshirishda o'z hissasini qo'shishni millati oldidagi burchi deb biladi.

Mustaqillik sharofati bilan fidoiylilik tushunchasi o'zining asl mohiyati bilan uyg'unlik kasb etmoqda. Fidoiylilik qalb amri, vijdon da'vatidir. U insonni loqaydlik, takabburlik, xudbinlik, badnafslilik, hirs, hasad kabi illatlardan saqlaydi va himmat, saxovat, mardlik, shijoat, xushyorlik, tadbirkorlik kabi fazilatlarni tarbiyalaydi. Fidoiylilik har xil namoyon bo'ladi.

Xalqimiz tarixida shunday insonlar borki, ularni hozirgi avlod g'urur va faxrlanish tuyg'usi bilan xotirlaydi. Ularni qayta o'rganib, yangidan kashf etmoqda.

Al-Xorazmiy, Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Boburlarning hayot yo'li, ular yozib qoldirgan asarlar ma'naviy merosimiz bo'lish bilan birga, bugun ham ilm-fan rivojiga, ijtimoiy-ma'naviy taraqqiyotga xizmat qilmoqda. Ularning hayoti o'ziga xos fidoiylikdan iborat bo'lgan.

Yosh avlod tarbiyasiga katta e'tibor berilayotgan bugungi kunda Ulug' ajdodlarimiz merosini o'rganmog'imiz juda muhimdir. Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy kabi bobolarimizning ijodlarida ta'lim-tarbiyaning umumiy metodologik masalalari, o'qituvchi va o'quvchining o'zaro munosabati, o'quvchiga ijtimoiy muhit orqali ta'sir ko'rsatish yo'llari, o'qitish usullari haqidagi qarashlari ayni paytda ham muhim ahamiyatga egadir.

## **BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QUV JARAYONINI PEDAGOGIK TEXNOLOGIYA ASOSIDA TASHKIL QILISH USHLUBLARI**

Insonning boshqa mavjudotlardan farqi - oldiga ma'lum bir maqsad qo'yib, so'ng unga tomon harakat qilishidadir. Kishi maqsadi sari qiladigan harakati (faoliyati) jarayonida muayyan tabiiy va sun'iy to'siqlarni yengib o'tadi. Bu to'siqlarni bartaraf etish uchun u bir qator tadbir va choralardan foydalanadi.

Maqsadga yetishda muayyan to'siqni engib o'tish uchun qo'llaniladigan tadbir va choralar majmuini usul deyiladi.

Maqsadga yetishda bir necha, goho o'nlab-yuzlab to'siqlarni yengib o'tish usullari ma'lum bir tizimda qo'llaniladi. Maqsadga yetishda qo'llaniladigan usullar tizimini uslub (yo'l) deyiladi.

Usullarning ma'lum bir uslubda qo'llanish jarayonida har bir harakat maqomi muayyan maqsad ko'rsatkichlariga bo'ysundiriladi. Undan tashqari, kishi maqsadga yetish jarayonida bir qator qonuniyatlarga ham tamoyil sifatida amal qiladi.

Kishi maqsad sari qilgan harakatida uning uchun tamoyil vazifasini bajaruvchi maqsad ko'rsatkichlari bilan harakati davomida amal qilinishi shart bo'lgan qonuniyatlar majmuiga metodologiya deyiladi. Har bir shaxsni, ijtimoiy guruhni va butun jamiyatni eng umumiy va xususiy maqsadlari bo'ladi, inchunin ularning eng umumiy, umumiy va xususiy metodologik asoslari mavjud.

Har bir sohada mavjud maqsad ko'rsatkichlari bilan faqat shu sohada xukm suruvchi qonuniyatlar shu sohada faoliyat ko'rsatkichlari uchun umumiy metodologik asos hisoblanadi.

Odamlar faoliyat ko'rsatish jarayonida o'z ishlarini eng umumiy, umumiy va xususiy metodologiyalardan birday kelib chiqqan holda amalga oshiradilar. Aks holda qilgan harakatlari zoe ketadi. Usul, uslub va metodologiya tushunchalariga umumfalsafiy ta'rif berib chiqqanimizdan so'ng, ularning o'quv jarayonida ishlatilishini ko'rib chiqamiz.

Insonning boshqa mavjudotlardan farqi - uning o'z oldiga maqsad qo'yib, maqsad sari harakat qilishidir, deb ta'kidladik. Tabiiy savol tug'iladi. Bu maqsadlar qayoqdan paydo bo'ladi? Javob: har qanday maqsad alohida bir shaxs, ijtimoiy guruh yoki millatning ehtiyojidan kelib chiqadi.

Inson bioijtimoiy mavjudot bo'lganligidan, uning biologik ehtiyoji barobarida ijtimoiy ehtiyoji ham mavjud.

Ijtimoiy ehtiyojga kishining ijtimoiy taraqqiyoti natijasida vujudga keladigan fikr yuritish, fikr almashish, bilim olish, mehnat qilish, zavqlanish, sevisish va sevilish kabi ehtiyojlar kiradi.


Ehtiyojni qondirish ustida ma'lum vaqt fikr-mulohaza yuritilgandan keyin ehtiyoj yo inkor qilinib bostiriladi, yoki unga yetishish maqsad qilib qo'yiladi.

Maqsad va uning ko'rsatkichlari aniq bo'lganidan keyin, unga yetishish usullari tizimi izlab topiladi va harakat boshlanadi. Shundan maqsad ko'rsatkichlari bilan harakat paytida o'z mavjudligini namoyon qiluvchi qonuniyatlar yig'indisi ushbu faoliyatning metodologik asosini, ya'ni amal qilinishi shart bo'lgan tamoyillar majmuini tashkil qiladi.

Pedagogik jarayonining umumiy metodologiyasi soha oldiga qo‘ygan maqsad ko‘rsatkichlari bilan didaktikaning umumiy tamoyillaridir. Pedagogika sohasining esa umumiy maqsadi jamiyatning eng umumiy maqsadi, ya’ni g‘oyasidan kelib chiqib, uning ajralmas qismi hisoblanadi.

Maorif sohasining umumiy maqsadi huquqiy demokratik davlat hamda odil fuqarolik jamiyatining talablariga javob beruvchi kishilarni tarbiyalab berishdan iboratdir.

**O‘zbekistonda olimlarimiz tomonidan olib borilgan tadqiqotlar shuni ko‘rsatdiki, erkin, ma’rifatli va demokratik davlat fuqarolari quyidagi ijtimoiy sifatlarga ega bo‘lishi kerak:**



Bu to‘qqizta ijtimoiy sifat jamiyat ehtiyojlaridan kelib chiqqan davlat buyurtmasi bo‘lib, ta’lim sohasida faoliyat ko‘rsatayotgan har bir inson ulardan umumiy metodologik asos sifatida foydalanishi kerak. Bu umumsohaviy metodologiyaning birinchi qismi hisoblanadi.

Umumiy metodologiyaning ikkinchi qismini hamma o‘qituvchi (pedagog)larga yaxshi tanish bo‘lgan didaktika tamoyillari tashkil qiladi. Ularga:

- ta’lim-tarbiya jarayonida ta’lim oluvchi diqqatini berilayotgan bilimga qaratib, uni jarayon oxirigacha saqlab turish;
- har bir bilimni ilmiy asoslab berish;
- bilim berishda talabning imkoniyati va yosh xususiyatidan kelib chiqish;
- bilim berishda mumkin qadar ko‘proq ko‘rgazmali vositalardan foydalanish;
- bilim berishda muntazamlilik bilan qo‘shib olib borish;
- ta’lim va tarbiya jarayonida talabalarning faolligi va ongilligini ta’minlash;
- ta’lim va tarbiyaning tizimli, izchil bo‘lishi va birligi tamoyillari kiradi.

Har bir faoliyatning eng umumiy metodologik asoslari bilan bir qatorda xususiy metodologiyasi ham mavjud. Bizning misolda, bu muayyan o'quv predmeti, muayyan mavzu va muayyan darslarni o'tishda kutilgan maqsad ko'rsatkichlari bilan pedagogik texnologiyaning bosh tamoyillari hisoblanadi.

| <b>MAVZU: TOSHKENT</b>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                    |                                                                         |                              |                    |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------|------------------------------|--------------------|
| <b>Mavzuning qisqacha ta'rifi:</b> Qadimda Toshkent ko'chalari qing'ir-qiyshiq, chang va loy ,uylar esa past va loydan qurilgan. Hunarmandlar ko'p bo'lgan. Toshkentning 12 ta darvozasi bo'lgan                                                                                                                                                                                                                          |                                                                         |                              |                    |
| O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi<br><b>METOD:</b> Suhbat, klaster<br><b>Jihoz:</b> Kompyuter, Toshkent haqida rasmlar, videoroliklar. Klaster topshiriqlar. Venn diagrammasi<br><b>Baholash:</b> Guruhlarni baholash, o'z-ozini baholash                                                                                                                                                                    |                                                                         |                              |                    |
| <b>Darsning maqsad va vazifalari:</b>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                     |                                                                         |                              |                    |
| <b>Maqsadlar:</b><br><b>Ta'limiy:</b> Mavzu orqali Toshkent shahrining mustahkam zamonaviy binolar, metrolari, go'zal qadimiy obidalar haqida ma'lumot berish.<br><b>Tarbiyaviy:</b> O'quvchilarda ona- vatanga muhabbat, vatanparvarlik va faxr tuyg'usini tarbiyalash.<br><b>Rivojlantiruvchi:</b> O'quvchilarning Toshkent haqidagi bilimlarini boyitish. Tez va ifodali o'qish ko'nikma- malakalarini rivojlantirish. |                                                                         |                              |                    |
| <b>Kutilayotgan natija:</b>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                               |                                                                         |                              |                    |
| Dars yakunida o'quvchilar: Toshkentning o'tmishi va buguni, Toshkent metrosi, Toshkent darvozalari haqida qiziqarli ma'lumotlarga ega bo'ladilar.                                                                                                                                                                                                                                                                         |                                                                         |                              |                    |
| <b>Dars jarayoni va uning bosqichlari:</b>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                |                                                                         |                              |                    |
| <i><b>Ishning nomi</b></i>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                | <i><b>Bajariladigan ish mazmuni</b></i>                                 | <i><b>Metod</b></i>          | <i><b>Vaqt</b></i> |
| 1-bosqich<br>tashkiliy qism                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                               | O'quvchilar bilan salomlashish. Ularning darsga tayyorligini tekshirish | nazorat                      | 2 daqiqa           |
| 2-bosqich<br>(refleksiya)<br>Ehtiyojlarni aniqlash                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                        | O'quvchilarni guruhlariga bo'lish, guruhlarini nomlash                  | Amaliy                       | 2 daqiqa           |
| 3-bosqich<br>Darsning borishi                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                             | 1. Uyga vazifaning bajarilishini tekshirish.                            | Nazorat                      | 1 daqiqa           |
|                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                           | 2. 1-shart: laylakka, boy va kambag'al dehqonga ta'rif berish           | Venn diagrammasi,<br>Klaster | 5 daqiqa           |
|                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                           | 3. Yangi navzuni tushuntirish.<br>4. 2-shart: Mavzuni ifodali o'qish    |                              | 3 daqiqa           |

|                                      |                                                                                                                                                                                                                                                                           |                                                    |                                                                  |
|--------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------|
|                                      | va mazmunini soʻzlab berish.<br>5. 3-shart: Toshkentning oʻtmishi va bugunu haqida gapirib berish.<br>6. 4-shart: Toshkentning 12 ta darvozasi, Toshkent metrosi bekatlarini 12 tasi nomini aytib berish.<br>7. Lugʻat bilan ishlash.<br>8. 5-shart: Toshkent mushoirasi. | Amaliy<br><br>Amaliy<br><br>Tushuntirish<br>Amaliy | 8 daqiqa<br>5 daqiqa<br><br>5 daqiqa<br><br>3 daqiqa<br>5 daqiqa |
| 4-bosqich<br>Mustahkamlash           | Sirli soʻzlar yordamida                                                                                                                                                                                                                                                   | Mustaqil ish                                       | 2 daqiqa                                                         |
| 5-bosqich<br>Baholash<br>Dars yakuni | Darsda faol qatnashgan oʻquvchilar ragʻbatlantiriladi.                                                                                                                                                                                                                    | baholash                                           | 2 daqiqa                                                         |
| 6-bosqich Uyga<br>vazifa             | Toshkent haqidagi mavzuni oʻqib, "Toshkentim" mavzusida insho yozish                                                                                                                                                                                                      | Tushuntirish                                       | 2 daqiqa                                                         |

### **DARSNING BORISHI:**

Oʻquvchi:

Har tong ertalab turib  
 Boramiz maktab tomon  
 Bizlar ilmga chanqoq  
 Ustozimiz mehribon  
 Qoʻlimiz koʻksimizda

Hamma:

Assalomu- alaykum.

Oʻqituvchi:

Qalam tutgan nozikkina  
 Qoʻlingizdan oʻrgilay  
 Mehr bilan boqib turgan  
 Koʻzingizdan oʻrgilay.  
 Sizni juda sogʻinaman  
 Tongni intiq kutaman.  
 Meni moyday erituvchi  
 Soʻzingizdan oʻrgilay.  
 Vaalaykum assalom, bolajonlarim  
 Mening jajji qaqajonlarim.  
 Bolajonlar, hozir biz  
 Qaysi darsni oʻtamiz?

Oʻquvchilar:

Hozir darsimiz oʻqish  
 Oʻqiganlarni uqish  
 Kerakdir koʻproq bilim  
 Bilim olish uchun chidam.

Oʻqituvchi: Kecha qanday topshiriq berilgan edi?

O'quvchi: Kecha uyga vazifa qilib "Oltin tarvuz" ertagini o'qib kelish topshirilgan edi.

O'qituvchi: Bolajonlar, bugun biz darsimizni musobaqa tarzida o'tkazamiz. Ikki guruhga bo'linamiz.


O'quvchilar ikki guruhga bo'linadi. Duskada har ikki guruh uchun 5 tadan sirli yozuv kartichkasi orqa tomonidan qo'yiladi.

| I-GURUH TOSHKENT | II- GURUH POYTAXT |
|------------------|-------------------|
|                  |                   |
|                  |                   |
|                  |                   |
|                  |                   |
|                  |                   |

Guruhlar 5 ta shart bo'yicha bellashadilar. Har bir shartni bajarib bo'lganingizda duskadagi sirli yozuvdan bittasi ochib boriladi. (O'quvchilar guruhlarga bo'linadilar)

**I Shart: Toshkent guruhi**

Boy bilan kambag'alni Venn diagrammasida tasvirlang



**Poytaxt guruhi:** Laylakni klaster usulida tasvirlang



**O'quvchilar guruhlarda ishlab topshiriqni bajaradilar.**

O'qituvchi: Ertakdan qanday xulosa chiqardingiz?

O'quvchilar: Yaxshilikka hamisha yaxshilik qaytishini, yomonlik jazosiz qolmasligini.

O'qituvchi: Juda to'g'ri. Z. M. Bobur bobomiz bu haqda shunday yozgan:

Har kimki vafo qilsa, vafo topqusidir

Har kimki jafo qilsa, jafo topqusidir.

Yaxshi kishi ko'rmagay yomonliq, hargiz

Har kimki yomon bo'lsa, jazo topqusidir.

### **YANGI MAVZU:**

O'qituvchi: Bolalar, bugun biz yangi bo'limni o'qishni boshlaymiz: O'tmishni o'rganamiz. Bugungi mavzumiz: Toshkent. Toshkent O'zbekistonning poytaxti. U 2200 yillik tarixga ega. Bugun biz Toshkentning o'tmishi va buguni haqida gaplashib olamiz.

Qani bo'lmasa o'qish kitoblarni ochamiz.

O'quvchilar: O'qish kitobi ochildi  
Ko'zlarga nur sochildi  
Xatcho'pni qo'lga olib  
So'zlar ravon o'qildi.

**II Shart:** Toshkent mavzusi ifodali o'qitiladi va mazmuni tushuntiriladi. (O'quvchilar o'qib bo'lganlaridan keyin sirli yozuvning 2-so'zi ochiladi.)

**III Shart:** Toshkent guruhi: Toshkent tarixi haqida soʻzlab berish.


Poytaxt guruhi: Toshkentning bugungi jamolini tasvirlab berish.  
(Guruhning har bir aʼzosi bittadan maʼlumot aytadi. Har bir javob ragʻbatlantirib boriladi.)



**IV Shart:** Klaster topshiriqlar

**Toshkent guruhiga:**


Toshkentning 12 ta darvozasi haqida gapirib bering va klaster usulida koʻrsating.



Qadimdan xalqimizda bir naql bor – ”Shahar bedarvoza emas”. Chindan ham qadimiy shaharlarning oʻz darvozalari boʻlgan. Toshkentning ham oʻz darvozalari boʻlib, ular 12 tadir.

**Poytaxt guruhiga:**

Toshkent metrosi haqida maʼlumot bering va 12 ta bekat nomini klaster usulida ifodalang.



Toshkent metrosi 1977 qurib bitkazilgan. Metroning „O‘zbekiston” „Chilonzor” „Yunuzobod” deb nomlanadigan va 3ta liniyasi, 29 ta bekati bor.

Metro yo‘lining uzunligi 38,5 km (Metro yo‘lining uzunligi) 9 ball zilzilaga bardosh beradi.

### ***Lug‘at bilan ishlash***

**Choch**-arabcha „ash-shosh” –eng asl kamon keltiriladigan joy, ulug‘ va obod shahar, to‘kin makon.

**Tosh** (shosh)-baxt hamda hamkor.

**Kent**-shahar, qasr, makon.

**V Shart:** Toshkent mushoirasi

O‘qituvchi: Bolalar, bu shartimizda siz Toshkent haqida yodlagan she’rlaringizni navbatma- navbat aytib berasiz.

Ikki ming ikki yuz dovondan o‘tgan  
Ne-ne qutlug‘ nanzil, makondan o‘tgan.  
Madinat-ash-shosh deb zamondan o‘tgan,  
Qadim, ammo yigit yanglig‘ yosh kentim  
Toshkentim, bosh kentim ko‘zi qosh kentim

Bobolarning izi yondagi jarda  
Mardona yashashgan oq kapalarda  
Ko‘kch, Kamolon, yo oqtepalarda  
Nomi ”Binkat”, ”Tarxon”, ”Choch” va ”Shosh” kentim  
Toshkentim, bosh kentim ko‘zi qosh kentim

Zangiota yurtga taratmoqda nur  
Shayx Zayniddin, Shayxi HovandiTohur  
Nayinki non, balki iymon shahridur  
Sog‘iniy ko‘zida qalqqan yosh kentim  
Toshkentim, bosh kentim ko‘zi qosh kentim

O‘n ikki qopqadan kelgan karvonlar,  
Durdan, javohirdan uyib xirmonlar,  
Kaykovus kavsarin ichib ko‘p xonlar  
Xo‘ja Ahroriyga tutgan osh kentim  
Toshkentim, bosh kentim ko‘zi qosh kentim

Temuriy Muhammad Farag‘ay mulki  
Ko‘ksi tog‘dek yuksak, quyosh, oy mulki  
Ko‘chkinchixon kamon tortgan yoy mulki  
Qaysaq qamaliga bergan dosh kentim  
Toshkentim, bosh kentim ko‘zi qosh kentim

She’r o‘qiylik Lutfiydan Navoiydan,

Bedil, Furqat, Pushkin ila Jomiydan  
Deya G‘afur G‘ulom she‘r aytgan uydan  
Asalida Hirotga chin tutash kentim  
Toshkentim, bosh kentim ko‘zu qosh kentim

Shunday chechan chiqqan Qo‘rg‘ontegidan  
Olam mamnun Zulfiya, Oybegidan  
Qodiriy kuladi sho‘ro o‘qidan  
Senga ne-ne yovlar o‘tgan tosh kentim  
Toshkentim, bosh kentim ko‘zi qosh kentim

U qancha dovulni, to‘fonni ko‘rdi  
Yunus hokim payti tug‘yonni ko‘rdi,  
Hofiz Ko‘hakiydan urfonni ko‘rdi  
Ilm cho‘qqisiga-dedi- shosh kentim  
Toshkentim, bosh kentim ko‘zi qosh kentim

Xumo shajarasi-daraxti bo‘lding  
Islom Tamaddunin poytaxti bo‘lding  
Kelajagi buyuk yurt baxti bo‘lding  
Hurriyat porlagan kun-quyosh kentim  
Toshkentim, bosh kentim ko‘zi qosh kentim

Yigirma yildirki vatanim erkin  
Odamlari ozod, yo‘llari yorqin  
Xalqim chizib oldi kelajak tarxin  
Yurtboshim to‘yingga bo‘lur bosh kentim  
Toshkentim, bosh kentim ko‘zi qosh kentim

Hamma shartlar bajarib bo‘lingandan keyin sirli so‘zlar o‘qitiladi.

#### **TOSHKENT GURUHIGA**

**O‘tmishini**

**o‘rgangan**

**xalqning**

**kelajagi**

**buyukdir**

#### **POYTAXT GURUHIGA**

**Toshkent**

**tinchlik**

**do‘stlik va**

**birodarlik**

**shahri**

So‘zlardan gaplar tuziladi:

1. O‘tmishini o‘rgangan xalqning kelajagi buyukdir.
2. Toshkent tinchlik, do‘stlik va birodarlik shahri.

Gaplar tahlil qilinadi, ma’nosi tushuntiriladi.

Toshkent haqida qo‘shiq eshittiriladi.

**Baholash:** O‘quvchilar darsdagi faolligi va to‘g‘ri javob berganligiga ko‘ra baholanadi.


**Uyga vazifa:** Toshkent haqidagi mavzuni o‘qib, “Toshkentim” mavzusida insho yozib kelish.

| <b>MAVZU: BIZ BUYUKLAR AVLODI.</b>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                              |                                                                                          |                         |             |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------|-------------|
| Mavzuga qisqacha ta’rif:                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                        |                                                                                          |                         |             |
| <b>O‘quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi:</b><br><b>Metod:</b> Interfaol.<br><b>Shakl:</b> Erkin fikrlashga o‘rgatish.<br><b>Jihoz:</b> Kompyuter, darslik, buyuk ajdodlarimizning rasmlari, klaster topshiriqlar.<br><b>Nazorat:</b> Bolalarning dars davomidagi faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.<br><b>Baholash:</b> O‘quvchilarning reytingi dars oxirida e’lon qilinadi. |                                                                                          |                         |             |
| <b>Darsning maqsad va vaifalari.</b>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                            |                                                                                          |                         |             |
| <b>Ta’limiy:</b> O‘quvchilarning buyuk ajdodlarimiz haqidagi bilimlarini boyitish.<br><b>Tarbiyaviy:</b> O‘quvchilarda ajdodlarimiz bilan faxrlanish tuyg‘usini shakllantirish.<br><b>Rivojlantiruvchi:</b> O‘quvchilarning aqliy va mustaqil fikrlay olish faoliyatini oshirish.                                                                                                               |                                                                                          |                         |             |
| <b>Kutilayotgan natija.</b>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                     |                                                                                          |                         |             |
| Dars yakunida o‘quvchilar buyuk ajdodlarimiz, ularning qilgan buyuk ishlari haqida tasavvurga ega bo‘ladilar.                                                                                                                                                                                                                                                                                   |                                                                                          |                         |             |
| <b>Ishning nomi</b>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                             | <b>Bajariladigan ish mazmuni</b>                                                         | <b>Metod</b>            | <b>Vaqt</b> |
| 1-bosqich<br>Tashkiliy qism                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                     | O‘quvchilar davomati aniqlanadi va sinfning darsga tayyorligi tekshiriladi.              | nazorat                 | 2 daqiqa    |
| 2-bosqich<br>Ehtiyojlarni aniqlash                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                              | O‘quvchilarni guruhlariga bo‘lish.                                                       | Ranglar yordamida       | 2 daqiqa    |
| 3-bosqich<br>Darsning borishi.                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                  | <b>1-shart-</b> Buyuk bobolarimiz siymosini namoyish qilish.                             | Sahna ko‘rinish         | 7 daqiqa    |
|                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                 | <b>2-shart</b> buyuk bobolarimizga ta’rif berish.                                        | –“Klaster” usuli orqali | 7daqiqa     |
|                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                 | <b>3-shart-</b> Ular haqidagi birorta rivoyatni sahna ko‘rinishi orqali namoyish qilish. | Sahna ko‘rinishi        | 7daqiqa     |
|                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                 | <b>4-shart-</b> allomalarimiz asarlaridan namunalar keltirish                            | Amaliy                  | 7daqiqa     |
|                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                 | <b>5-shart-</b> Boshqotirmalarni yechish.                                                | Amaliy                  | 7daqiqa     |
| 4-bosqich                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                       | Buyuk ajdodlarimizning yaratgan                                                          | Amaliy                  | 2daqiqa     |

|                       |                                                               |              |          |
|-----------------------|---------------------------------------------------------------|--------------|----------|
| Mustahkamlash         | asarlari, qilgan ishlari haqida tushuncha beriladi.           |              |          |
| 5-bosqich Baholash    | Darsda faol qatnashgan o'quvchilarni baholash.                | Nazorat      | 2 daqiqa |
| 6-bosqich Uyga vazifa | Allomalarimiz haqidagi kitobchalarni ko'proq o'qib o'rganish. | Tushuntirish | 2 daqiqa |

**Darsning borishi:** O'quvchilar bilan salomlashgach, magnit tasma orqali O'zbekiston Davlat madhiyasi eshittiriladi. O'quvchilar qo'llarini ko'ksilariga qo'yib, birgalikda kuylaydilar. So'ngra o'quvchilar beshta guruhga bo'linib oladilar.

Har bitta guruh bitta alloma nomi bilan ataladi:



**O'qituvchi:** Aziz o'quvchilar! Mana siz, beshta guruhga bo'linib oldingiz. O'tgan darslarimizda biz siz bilan buyuk allomalarimiz bilan tanishib chiqqan edik. Bugun o'sha allomalarimiz-buyuk bobolarimiz haqidagi bilimlarimizni namoyish qilamiz. O'qib o'rganganlarimizni badiiy ifodalab, sahna ko'rinishlari, she'rlar, rasmlar orqali ko'rsatib beramiz.

Bugun sizlar beshta shart bo'yicha sinashasizlar. Har bitta shartdan keyin sizlarni baholar guldastasidagi gullar bilan rag'batlantirib boramiz.

Aziz bolajonlar! Biz xayolan uzoq o'tmishga-bobolarimiz yashagan davrlarga sajoat qilamiz.

**1-shart-**Buyuk bobolarimiz siymosini namoyish qilish.

**2-shart-**“Klaster” usuli orqali buyuk bobolarimizga ta'rif berish.

**3-shart-** Ular haqidagi birorta rivoyatni sahna ko'rinishi orqali namoyish qilish.

**4-shart-** allomalarimiz asarlaridan namunalar keltirish

**5-shart-**Boshqotirmalarni yechish.

## BOLAJONLAR! 1-SHART BO‘YICHA BELLASHUVNI BOSHLAYMIZ.

**1-guruh:** A.Temur siymosidagi o‘quvchi davriga chiqadi: A.Temur:

Biz kim mulki Turon, Amiri Turkistonmiz.  
Turkiy xalqlarning bosh bo‘g‘inimiz.  
Amir Temur-Sohibqiron nomimdir.  
Atrofimda qancha fozil, olimdir.  
Ikki daryo orasida bir davlat  
Barpo etdim u yashnagay to abad.



1-o‘quvchi: Bobomiz A.Temur 1336-yilda Keshga qarashli Xo‘ja Ilg‘or qishlog‘ida tug‘ilganlar.

2-o‘quvchi: A.Temur-buyuk shaxs, kuragi yerga tegmagan sarkarda, yirik davlat arbobi, qonunshunos, ruhshunos, shu bilan birga el-yurti sevgan, uni jahonga mashhur qilganlar.

**2-guruh:** A.Navoiy siymosidagi o‘quvchi davriga chiqadi: A.Navoiy:

Men Navoiy-sultonidirman  
She‘riyat osmonida  
Behalovat bir jondirman  
Bu hayot ummonida  
Yod eting qiz-o‘g‘lonlarim  
Puxta bo‘lsin har zina  
Besh bebaho dostonim  
Tuganmas kon-xazina.



1-o‘quvchi: Bobomiz A.Navoiy 1441-yil 9-fevralda Hirotida tug‘ilganlar. 1501-yil 3-fevralda vafot etganlar.

2-o‘quvchi: A.Navoiy-so‘z mulking sultoni. U kishi Husayn Boyqaro saroyida vazirlik qilgan. Navoiy bobomizning asarlari biz uchun xazinadir.

**3-guruh:** Ibn Sino siymosidagi o‘quvchi Ibn Sino:



Men umrim davomida kasalliklar bilan kurashib keldim. Giyohlardan dorilar ishlab insonlar umrini uzaytirishga harakat qildim.

1-o'quvchi: Ibn Sino bobomiz mashhur hakim va olim bo'lgan. U yoshligidan ilmga qiziqqan.

2-o'quvchi: Juda ko'p kitoblarni o'qigan. Natijada mashhur hakim bo'lib yetishgan.

**4-guruh:** Mirzo Ulug'bek siymosida chiqib keladi. Mirzo Ulug'bek:



Men umrim davomida koinot sirlarini ochishga harakat qildim, yulduzlarni o'rgandim. Butun dunyodagi bebaho kitoblarni to'plab-siz farzandlarimga meros qilib qoldirdim.

1-o'quvchi: M.Ulug'bek ham podshoh ham olim edi. U kishi Amir Temurning nevarasi bo'lgan.

2-o'quvchi: Mirzo Ulug'bek 15 yoshidan boshlab podshohlik qilgan. 40 yil saltanatni boshqargan.

**5-guruh:** Z.M.Bobur siymosidagi o'quvchi Z.M.Bobur;



Temur bobom nabirasi Boburman,  
Odil podshoh, shoir ilmi nodirman.  
“Boburnoma” mendan sizga yodgorlik  
Shijoatkor, mardliklarga qodirman.

1-o'quvchi: Bobur Mirzo Andijonda tug'ilgan. Uzoq yillar Hindistonda shohlik qilgan.

2-o'quvchi: Bobur Mirzo bizga ko'p kitob yozib qoldirgan. Shuning uchun bobom

***O'qituvchi: Bolajonlar! Meni juda xursand qildingiz. Mana sizga g'unchalar. Endi 2-shartimizni boshlaymiz. O'quvchilarga doira ichiga guruh nomlari yozilgan qog'ozlar tarqatiladi. O'quvchilar „Klaster“ usulida bobolarimizni ta'riflaydilar.***

## KLASTER USULI

### I-GURUH



### II-GURUH




### III-GURUH



### IV-GURUH



### V-GURUH



O'quvchilarning bajargan ishlari ko'rib chiqilib, rag'batlantiriladi.

**3-shartga** ko'ra o'quvchilar allomalarimiz hayotiga oid sahna ko'rinishlarini namoyish etadilar.

1-guruh Kabutar

2-guruh Non isi

3-guruh Ustoz va shogirdlar

4-guruh Shoh va Ali Qushchi

5-guruh Hidi,tilimi, mazasidan

O'quvchilar rag'batlantiriladi.

**4-shart:** Ular yaratgan asarlardan namunalar keltirish.

**Amir Temur o'g'itlari:**

1. Yaxshini yomon kunda sina.
2. Sodiq va vafodor do'st o'z do'stini ranjitmaydi.
3. Kuch adolatda.
4. Oq bo'lsang, ont ichma
5. Boshqa qilich kelsa-da, rost so'zla

**Alisher Navoiy hikmatlari:**

1. Bilmaganni so'rab o'rgangan olim, Orlanib so'ramagan o'ziga zolim
2. Oz-oz o'rganib dono bo'lur, Qatra-qatra yig'ilib daryo bo'lur.

**Ibn Sino bobo ulashar davo:**

1. Xom suvni ichma, Sog'likdan kechma
2. Yeb bo'lib ovqat, Yugurma faqat
3. Oshni taklifsiz, Boshlar tartibsiz.

**Z.M.Bobur:**

Har kimki vafo qilsa vafo topqusidir,  
Har kimki jafo qilsa jafo topqusidir.  
Yaxshi kishi ko'rmagay yomonlik hargiz,  
Har kimki yomon bo'lsa, jazo topqusidir.

Shu tariqa o'quvchilar allomalarimiz hikmatlaridan namunalar keltiradilar. Ularning har bir qatnashishi g'unchalar bilan rag'batlantirib boriladi.

**6-shartda** O'quvchilar qog'ozlardagi bosh qotirmalarni yechadilar. Bu boshqotirmalar har bir guruhning nomidagi allomaning biron bir xislatini o'zida mujassam etgan: Alloma, tabib, munajjim, adolat...

O'quvchilar guruhlarda boshqotirmalarni yechganlaricha har bir guruhdan o'quvchilar chiqib she'rlar aytadilar.

1-o'quvchi: Bundan ming yil avval ham

mashhur bo'lgan bizning bobolar

Har bir fanda tengi yo'q

Nom qozongan daholar.

2-o'quvchi: Al-Xorazmiy, al-Buxoriy hazrat bizga,

Ulug'bek-u, al-Farg'oniy savlat bizga

Manguberdi, Temur bobo davlat bizga

Ona xalqim, dono xalqim bizga inon!

3-o'quvchi: Bugun biz mustaqil yurt farzandlarimiz. Bobolarimiz yaratgan

yanguliklarni, qilgan ishlarini kelajakda biz davom ettirishimiz. Vatanimizni sevib-ardoqlashga, a'lochi o'quvchilar bo'lishga harakat qilmoqdamiz.

4-o'quvchi: Biz-uchinchi ming yillikning bolalari 2014-yilga qadam qo'ydik. Prezidentimiz 2014 yil „Sog'lom bola yili“ den e'lon qildilar. Biz yoshlar kelajak vatanimiz gullab yashnashiga o'z hissamizni qo'shamiz.

5-o'quvchi: Asrlar ortidan kelar asrlar

Unut bo'lar o'tmish, zamon ko'p sirlar  
Ammo yaratilgan fan asoslarin,  
Asrdan eltar nasllar.

**7-shart** bo'yicha o'quvchilarning bajargan ishlari ko'rib chiqiladi va baholanadi. Dars yakunida har bir guruhning baholari hisoblanadi va g'olib guruh aniqlanadi. G'oliblarga buyuk allomlalarimizning kitobchalari taqdim etiladi.

**Uyga vazifa:** Allomalarimiz haqidagi kitobchalarni ko'proq o'qib o'rganish.

#### **BOSHLANG'ICH SINFLARDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH METODOLOGIYASI.**

Ta'lim–tarbiya tizimini takomillashtirish bevosita zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga samarali joriy etish darajasi bilan bog'liqligini inkor etib bo'lmaydi. Pedagogik texnologiyani joriy qilishni innovatsiya jarayoni deb qarash mumkin. Bunda “innovatsiya”ni biror o'quvchilar jamoasi faoliyatini takomillashtirish uchun kiritilayotgan va bu innovatsiya sub'ekti tomonidan yangilik deb qabul qilingan yondashuv tushuniladi. Zamonaviy axborot texnologiyaning o'quvchilar jamoasida muvaffaqiyatli joriy qilinishi va yaxshi samara berishi bir qator omillarga bog'liq.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to'g'risida”gi farmoni hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to'g'risida”gi qarori pedagog kadrlarni qayta tayyorlash, ularning malakasini oshirish tizimiga har jihatdan taalluqli bo'lib ta'lim muassasalari oldiga yangi vazifalarni yuklaydi.

Darsda zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishning afzal tomonlari juda ko'p. Ma'lumki, zamonaviy pedagogik texnologiyalarning asosiy sifat ko'rsatkichlari quyidagilarni tashkil etadi:

- bilim olish darajasini kafolatlash.
- belgilangan bilim olish natijalariga erishish samaradorligini ta'minlash.
- ta'limning didaktik vositalaridan foydalanishni optimallashtirish.
- o'qish darslarida esa quyidagi vazifalar amalga oshirilishi mumkin:
- o'yin orqali o'quvchining fanga bo'lgan qiziqishi ortadi;
- o'quvchining o'z iqtidori, qiziqishi, bilimi va o'zligini namoyon etishga imkoniyat bo'ladi;
- dars davomida o'quvchida yangi fikr, g'oya va takliflar paydo bo'ladi.

O'yin bilan bog'liq faoliyat o'zining quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ulardan dars mashg'ulotlarida quyidagi usullarda foydalanish mumkin:

- **aqliy hujum.** O'quvchilarda hozirjavoblik (og'zaki, yozma sifatlarni rivojlantirishga yo'naltirilgan) usul. Usulning psixologik mohiyati shundaki, oddiy munozara, bahslashuvlar ko'proq ongli, asosiy fikrlarni bayon etishga harakat qiladilar.
- **bahs-munozara.** Alohida dars ko'rinishida bo'lib, o'tilgan mavzuga doir bahsli, tortishuvli, muammolarni ikki guruhga bo'lib hal etish. Bu usulni qo'llagan o'qituvchi o'quvchilarni ikki guruhga "Tarafdorlar" va "Qarshilar"ga bo'ladi;
- **guruhlarga bo'linib ishlash.** sinfdagi o'quvchilar soniga qarab 10-12 kishidan iborat guruhlarga bo'linadi. Har bir guruhga guruhboshilar tayinlanadi. Guruhlar mavzuga doir muammoni hamkorlikda yechadilar va har bir guruhdan bir yoki ikki a'zo mavzu yuzasidan axborot beradi;
- **juftliklarda ishlash.** Sinfdagi barcha o'quvchilarning yonida yoki orqasida o'tirgan sherigi bilan baravariga fikr almashib, muloqot qilish.

An'anaviy usulda sinf "O'qituvchi+o'quvchi" yoki "O'quvchi+o'quvchi" o'rtasida muloqot bo'lib, qolganlar sust tinglovchilar bo'lib qolar edi. Yangi usulda sinfga barcha tinglovchilar, hatto sust o'zlashtiruvchilar ham o'zaro muloqotga kirishib dars ishtirokchisiga aylanadi.

- **Zanjir mashqi.** Boshlang'ich sinf o'quvchilarning darsda o'rganilgan mavzuni qismlarga bo'lib, navbatma-navbat bayon etishlarini umumlashtirish usuli.
- **Ijodiy ish.** Boshlang'ich sinf o'quvchilarning ijodiy va intellektual qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan, estetik didlarini shakllantiradigan usul.
- **Intervyu.** Alohida dars ko'rinishida bo'lib, bir mavzu yuzasidan bir yoki bir nechta o'quvchining qarashlarini ochiq bayon qilish. Savol beruvchi, reportyor tinglovchilar orasidan tanlanadi.

**Intilish** o'quvchilar faoliyati, dars salohiyatiga qarab, ikki xil ko'rinishda namoyon bo'ladi.

- **Ichki intilish**-o'zi qiziqqan fanni ichki hissiyot bilan berilib o'rganish.
- **Tashqi intilish**-fanni faqat baho olish uchun yoki boshqalarning majburlashi asosida o'rganish.
- **Yo'naltirish.** Yo'naltirilgan yondashuv uslubidagi yangi texnologiya bo'lib, qiyin mavzuni tushuntirishda savollar bilan murojaat qilish usuli. Mazkur usulning afzalligi shundaki, o'qituvchi tinglovchiga tayyor narsani aytib bermay, mavzuni mustaqil ravishda tushinib olishlariga imkoniyat yaratadi.

## MAVZU: MUSOBAQA DARS.

**Sinf:** 2

**Fan:** Matematika

**Mavzuga o'zgacha ta'rif:** O'quvchilar matematika fanidan olgan bilimlarini mustahkamlaydilar va bellashadilar.

**O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi:**

**Metod:** Noana na'viy, o'yin, musobaqa dars.

**Shakl:** Guruhlarda ishlash

**Dars jihozi:** Kompyuter, mavzuga oid ko'rgazmalar, tarqatma materiallar, didaktik o'yinlar.

**Nazorat:** Bolalarning dars davomidagi faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi

**Baholash:** Guruhlarni baholash, o'z-o'zini baholash

### **Darsning maqsad va vazifalari**

**Ta'limiy:** O'quvchilarni mustaqillikka o'rgatish, olgan bilimlarini tekshirish.

**Tarbiyaviy:** O'quvchilarni bir-biriga muhabbat ruhida tarbiyalash. Do'stlikni qadrlashga o'rgatish.

**Rivojlantiruvchi:** Og'zaki va yozma hisoblash malakasini rivojlantirish, ijodiy fikrlash qobiliyatini o'stirish

### **Kutilayotgan natija**

Dars yakunida o'quvchilar matematika fani hayotimizning har qadamida zarur ekanligini bilib oladilar. Matematikani chuqurroq bilish qoidalarini o'rganadilar.

### **Dars jarayoni va texnologiyasi:**

| Ishning nomi                       | Bajariladigan ish mazmuni                                                                                                                             | Metod                                                                                    | Vaqt                                                                 |
|------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------------------------------|
| 1-bosqich<br>Tashkiliy qism        | O'quvchilar davomati olinadi, sinfning darsga tayyorligi tekshiriladi.                                                                                | nazorat                                                                                  | 2 daqiqa                                                             |
| 2-bosqich<br>Ehtiyojlarni aniqlash | O'quvchilarni guruhlariga bo'lish, guruhlarini nomlash                                                                                                | Amaliy ish                                                                               | 2 daqiqa                                                             |
| 3-bosqich<br>Darsning borishi      | 1.Quyonchaga yordam berish<br>2.Masala yechish.<br>3.Aplekatsiya yasash<br>4.savollarga javob topish.<br>5.Sardorlar bellashuvi<br>6.Sahna ko'rinishi | Amaliy ish<br>Amaliy ish<br>Amaliy ish<br>Amaliy ish<br>Amaliy ish<br>Guruhlar namoyishi | 5 daqiqa<br>5 daqiqa<br>5 daqiqa<br>5daqiqa<br>5 daqiqa<br>10 daqiqa |
| 4-bosqich<br>Mustahkamlash         | Al Xorazmiy bobomizning rasmlari ko'rsatilib, mavzu mustahkamlanadi.                                                                                  | Amaliy ish                                                                               | 2 daqiqa                                                             |
| 5-bosqich<br>Baholash              | Kartochkalar hisoblanib, g'olib guruh aniqlanadi va rag'batlantiriladi.                                                                               | Amaliy ish                                                                               | 2 daqiqa                                                             |
| 6-bosqich<br>Uyga vazifa           | Misol- masalalar yechish                                                                                                                              | Tushuntirish                                                                             | 2 daqiqa                                                             |

**Darsning borishi:** Salomlashish, yo'qlama qilinadi.

**O'qituvchi:** Qani ayting bolalar

Kim navbatchi bo'ladi?  
Ushbu kunning hisobin  
Menga aytib beradi?  
**O'quvchi:** Bugun hafta kunining uchinchisi bo'libdi  
Olloh ushbu kuniga katta nazar solibdi.  
Yaxshilik farishtasi yer yuzida qolibdi.  
Barcha yaxshi yumushlar, ezgu niyat, orzular,  
Ushbu kunning o'zida ijobat ham bo'libdi.

Bolalar, aytingchi, biz matematika fanidan nimalarni bilishimiz kerak?

|                          |                       |
|--------------------------|-----------------------|
| Sanoq sistemasini        | Sodda masalalarni     |
| Yaxshi bilishim kerak.   | Yecha olishim kerak.  |
| Juftlik, o'nliklar bilan |                       |
| Sanay olishim kerak.     | O'lchov birliklarini  |
|                          | Yaxshi bilishim kerak |
| 100 ichida og'zaki       | Masalaning javobin    |
| Qo'shib, ayirishim kerak | Topa olishim kerak.   |
| Ko'paytirish jadvalin    | Masala va misollar    |
| Puxta bilishim kerak.    | Tuza ilishim kerak    |
| Matematik terminlarni    | Tenglamani mustaqil   |
| Yaxshi bilishim kerak    | Yecha olishim kerak.  |

**O'qituvchi:** Bugungi darsimizning shiori nima?  
Matematika fanlar ichida shox  
Uning sirlaridan bo'lingiz ogoh.

Bolajonlar, bugungi darsimizda o'tilganlarni yana bir bor yodga tushirib  
olamiz. Darsimizni musobaqa tarzida o'tkazamiz. Uchta guruhga bo'lindik. Guruh  
sardorlari

Guruhingiz nomi bilan tanishtiring.

**1-guruh**

Bizning guruhimiz nomi: **Humo**

**Shiorimiz: Yurtim O'zbekistonning o'z o'zni bor jahonda**  
**Humo qushi erkin, shod uchar moviy osmonda.**

**2-guruh**

Bizning guruhimiz nomi: **Orzu**

**Shiorimiz: Sen ilm cho'qqisini kuchingla zabt etarsan**  
**Kelajakda albatta orzuingga yetarsan.**

**3-guruh**

Bizning guruhimiz nomi: **Lochin**

**Shiorimiz: Ziyrak lochin qoqilmas**  
**Qoqilsa ham yiqilmas.**

**Guruhlar bilan oltin qoidalar takrorlanadi.**

Sizlarni baholash ham har kungidan boshqacha. Mana bu ko‘rib turganingiz 3ta daraxt. Daraxtlarning birorta ham bargi yo‘q. Ular barg chiqarib, yashnab ketishi sizga bog‘liq. Har bitta to‘g‘ri javobingiz yashil barg, sal xatoroq bo‘lsa och yashil, noto‘g‘ri bo‘lsa sariq barg bilan taqdirlanasiz. Bu barglar daraxtlarga yopishtirib boriladi.

**Demak birinchi shartimizni boshlaymiz.**( shu payt sahnaga quyon kirib keladi.)

**Quyon:** qornim ham juda och bo‘lib ketdi. Qani endi yeyishga biron narsa topsam.(Sabzilarni ko‘rib qoladi.) Voy judayam ko‘p sabzi ekan. Qishgayam g‘amlab olaman.( Sabzini olmoqchi bo‘lganida bo‘ri paydo bo‘ladi.)

**Bo‘ri:** Tegma bu mening sabzim.

**Quyon:** Bera qol.Hech bo‘lmasa 10 ta beraqol.

**Bo‘ri:** Yo‘q bittayam brrmayman

**Quyon;** Beraqol.

**Bo‘ri:** Agar bitta shartimni bajarsang, senga sabzidan beraman. Buning uchun sen misol yechishing kerak. Qancha misol yechsang shuncha sabzi olasan.

**Quyon** (o‘ylanib) Endi nima qildim. Misol yechishni ham bilmayman. (bolalarni ko‘rib qoladi) Bolalar, menga yordam beringlar.

**Bolalar:** Mayli.

(Bolalarning barchasiga sabzi tarqatib beriladi.Sabzining orqasiga misollar yozilgan. Misolni to‘g‘ri yechgan bolaning sabzisi savatchaga solib boriladi.)

**Quyon:** Rahmat bolalar. Qishgayam yetadigan qilib sabzi to‘plab berdingiz. Sizlarga judayam havasim keldi. Mengayam hisob- kitobni o‘rgatasizlarmi?

**Bolalar:** Ha.

**Quyon:** Bo‘lmasa. Endi har kuni kelib sizlar bilan darslarda qatnashaman. Xayr bolalar.

**1- shart bo‘yicha boalar baholanguncha 1-guruh sahna ko‘rinishi ko‘rsatib beradi.**

**O‘quvchi;** Uf! Darslar juda jonimga tegib ketdi. Ayniqsa, matematikani juda yomon ko‘raman. Bo‘ldi. Endi o‘qimayman!

**Bolalar:** ( Qo‘shiq boshlaydilar)

Ikki karra ikkini  
Tezroq bilgin bolajon  
Undan keyin yanada  
G‘ayrat qilgin bolajon.

Har misolni yechmoqqa  
Sen doimo tirishgil  
Eplolmasang ilk marta  
Yana takror kirishgil.

Echolmayman demagil  
Qiyin bo‘lsa masala  
Yalqovlarda bo‘lmaydi  
Izlagali hafsala.

Xullas hisob- kitobni  
Tezroq bilgil bolajon  
Fursat o‘tmay shu yo‘lda,  
G‘ayrat qilgil bolajon.

**Oquvchi:** Mayli, matematikani o‘rganganim bo‘lsin.

**2-shart:** Har bir guruhga bittadan masala beriladi. Bolalar hammasi to‘planib, masalaning qisqacha shartini tuzadilar va yechadilar.

### **HUMO GURUHIGA**

Tarelkada 7 ta qizil va 5 ta sariq olma turgan edi. Tushlikda 8 ta olmani

eyishdi. Tarelkada nechta olma qoldi?

### ORZU GURUHIGA

Onasi bilan qizi kiyimlarni dazmollashmoqda. Onasi 10 ta, qizi esa onasidan 6 ta kam kiyimni dazmolladi. Ular hammasi bo'lib nechta kiyimni dazmollashgan?

### LOCHIN GURUHIGA

Sobir 6 ta, Ozoda esa 4 ta sabzi keltirdi. Ular 8 ta sabzini quyonlarga berishdi. Nechta sabzi qoldi?

**2-shart** bo'yicha bolalar baholangungacha 2-guruh o'quvchilari sahna ko'rinishi ko'rsatib beradilar.

**1-O'quvchi:**Matematika bu- hayot zarurati, matematik hisoblashlarsiz raketalar uchmaydi, mashinalar yurmaydi, kompyuterlar bo'lmaydi.

**2- O'quvchi:**Suv- bu obihayot deymiz. Aslida matematikasiz bir qadam ham bosib bo'lmaydi.

**3- O'quvchi:**Voy- bo', juda oshirib yubordingku. Mana masalan menga matematikaning umuman keragi yo'q.


**4- O'quvchi:** Hechamda, egningdagi kiyimingni olaylik. Uni tikish uchun tikuvchi santimetrlarda o'lchaydi.

**5- O'quvchi:**Yoki, oyog'ingdagi poyabzalingga qara, uning o'lchami matematik raqamlarda ifodalangan.

**6- O'quvchi:** Bozordan biron narsa olmoqchi bo'lsang ham hisob- kitobni bilishing kerak.

**7- O'quvchi:**Yoki kasal bo'lib qolding deylik. Issig'ingni o'lchash uchun ham vrach termometr qo'yadi. Darajani esa raqmlar ko'rsatadi. Xullas, kelgusida, olim bo'lish uchun ham, shifokor bo'lish uchun ham, bankir bo'lish uchun ham **matematikani bilish kerak.**

**3-shartda o'quvchilar matematik shakllardan aplekatsiya qilishib, turli narsalar yasashadi. Masalan: uchburchaklardan archa, aylanadan qorbobo, to'rtburchakdan uy...**



**3- shart natijalari e'lon qilinguncha 3- guruh sahna ko'rinishi namoyish etadi.**

**O'qituvchi:**

Madinaxon

- labbay ustoz.
- Bitta qiyin savol beraymi, yoki 2 ta oson savol beraymi?
- Bitta oson savol berib qo‘yaqoling, domlajon
- Oyingiz sizga 100 so‘m pul berdi.50 so‘mini ukangizga bersangiz, sizda qancha pul qoladi?
- Bermaymenda, domlajon, ukam adamdan ola qolsin.
- Demak javobini bilmaysiz, javobingiz 2.

**Ikki qo‘ymang qo‘shig‘i;**

Qiyin ekan savolingiz  
Yo‘qmi boshqa misolingiz  
Osonidan ozroq so‘rang  
Jon domlajon 2 qo‘ymang.

Yetarlidir ikki, uchim  
To‘rt va beshga yetmas kuchim  
Shu safar ham rahm aylang  
Jon domlajon 2 qo‘ymang.

Dadam dakki berar doim  
Ikki olsam xafa oyim  
Jon domlajon ikki qo‘ymang  
Oyimlarni xafa qilmang.

**4-Shart.** Har bir guruhga alohida savollar beriladi.

#### **HUMO GURUHIGA**

1. 55 sonida nechta o‘nlik, nechta birlik bor?
2. To‘rtta o‘rtoq zo‘r ishi Odam. Olam tashvishi,  
Har biri xursand etar, Izma- iz kelib ketar. ( Yil fasllari.)
- 3.O‘zi bitta ko‘zi mingta. (Elak.)

#### **Matematik maqol**

4. Bilagi zo‘r birni yiqar (Bilimi zo‘r mingni.)
5. Bir yigitga ( qirq hunar ham oz.)

#### **ORZU GURUHIGA**

1. 84 sonida nechta o‘nlik, nechta birlik bor?
2. Ikki bir xil onasi  
O‘nta har xil bolasi? (qo‘l, barmoqlar.)
3. Ikki aka- uka bir- birini ko‘rmaydi. (ko‘z.)

#### **Matematik maqol**

4. Bir yil tut ekkan kishi (Ming yil gavhar teradi.)
5. Oyning o‘n beshi qorong‘u bo‘lsa ( o‘n beshi yorug‘.)

#### **LOCHIN GURUHIGA**

1. 72 sonida nechta o‘nlik, nechta birlik bor?

2. O'zi bitta, tishi yuzta. ( arra.)
3. To'rttir uning oyog'i, Temir tishli tuyog'i  
Manzilga yetishtirar Toshidan qattiq tuyog'i ( Ot.)

### **Matematik maqol**

4. Birni kessang ( o'nni ek.)
5. Yetti o'lchab ( bir kes.)

### **5- SHART SARDORLAR BELLASHUVI**

Sardorlar har qaysisi bittadan misol yechadilar

**Humo**

$$\text{X} - 16 = 36$$

**Orzu**

$$\text{X} + 24 = 48$$

**Lochin**

$$\text{X} - 17 = 33$$

#### **O'qituvchi:**

Matematika fanining asoschisi Kim ekanini bilasizmi?

Ha, U kishi Al- Xorazmiy bobomiz bo'ladilar.

Juda to'g'ri. Vatandoshimiz beqiyos o'zbek olimi Abu Abdulloh ibn Muso Al Xorazmiydirlar. U kishi matematikaga o'nlik sanoq sistemasini kiritganlar. To'rt xil amalni, uni bajarish usullarini ko'rsatib berganlar. Hozir biz o'rganayotgan ustun shaklida qo'shish va ayirish usullarini o'sha kishi yaratganlar.

#### **Bolalar:**

Ta'zim Sizga fanga asos solgan bobolar

Ta'zim Sizga nomi mangu qolgan bobolar

Siz yaratgan mashhur fanni biz ham sevib qolganmiz

Ixlos bilan o'qib uni ancha bilib olganmiz.

#### **O'qituvchi:**

Bolajonlar, matematika fanini qunt bilan o'rganinglar. Hozir esa natijalarni ko'rib chiqamiz. ( Har bir guruhning daraxtidagi barglar sanab chiqilib, g'olib guruh aniqlanadi. Bolalarga sovg' sifatida kitobchalar taqdim qilinadi.)

#### **1-O'quvchi:**

Asrlar ortidan kelar asrlar

Unut bo'lar o'tmish, zamon ko'p sirlar

Ammo yaratilgan fan asoslarin

Asrdan- asrga eltar nasrlar.

#### **2-O'quvchi:**

Eslatay qomusning durdona so'zin

Hisob- kitob ochmish aqlning ko'zin.

Matematika fanlar podshosi

Har ish, har sohada ko'rsatar o'zin.

#### **O'qituvchi:**

Qunt bilan o'rganib bu buyik fanni

Shon-shuhratga o'rang Ona-Vatanni

Donolar donosi bo'lgay agar kim

Fanga bag'ishlasa jon birla tanni

### **Hamma:**

Barcha jumboqlarga javob izlaymiz

Olam sirlarini bizlar yechaylik

Ilmu ma'rifatla bo'lmoq istaymiz

Bizni Vatan kutar, kutar kelajak

**Uyga va zifa beriladi.**( Misol nasalalar qanday bajarilishi tushuntirib beriladi.)

O'quvchilar baholanadi. Darsga yakun yasaladi.

Inson-bebaho va takrorlanmas hilqatdir. U yer yuzidagi barcha jonzoqlar ichida eng mukammalidir.

Inson odobi bilan go'zaldir. O'tmishga nazar solar ekanmiz, qadimda odob ilmi alohida fan sifatida maktab va madrasalarda o'qitilganini, ziyoli kishilar, shoh va amaldorlar farzandlari uchun alohida odob ilmidan dars beruvchi kishilarni yollaganlarini ko'ramiz.

Chunki, ular faqat ahloqli kishilargina kelajak poydevori ekanligini tushunib yetganlar.

Ha, haqiqatan ham odobnoma- sog'lom avlodni ma'naviy tarbiyalashda asosiy fandır.

Mustaqil vatanimizning ertangi avlodi sog'lom, ma'nan yuksak bo'lmog'i kerak. Bunda odobnoma fanining xizmati beqiyos!

Avvalo, bu fanni o'qitadigan o'qituvchining o'zi odob- ahloqli, tarbiyali bo'lmog'i, diniy va ahloqiy bilimga ega bo'lmog'i, o'quvchilarni o'z so'ziga ishonтира oladigan, aktyorlik mahoratiga ega bo'lgan, boy ma'naviy merosimizni yaxshi biladigan, mutafakkirlarning asarlarini, pandnoma va nasihatnomalarni yaxshi biladigan kishi bo'lishi kerak.

Oqituvchi odobnoma fanini o'qitishga kirishar ekan;

**1. O'quv jarayonida yangi materialni qo'llay bilishi;**

**2. O'quv materialini yangicha talqin etishi;**

**3. O'qitishda yangi informatsion texnologiyani kiritishi kerak.**

O'qituvchi darslarda bir xillikdan qochishi kerak. Odobnoma darslari ko'proq noanana'viy tarzda, turli shakllarda- **o'yin, bahs, ertalik, suhbat, uchrashuv, sahna ko'rinishlari, qo'g'irchoq teatri tomoshalari ko'rinishlarida** tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Bunda o'quvchi quruq tinglovchi bo'lib qolmasin, balki u darsning faol ishtirokchisiga aylansin.

Masalan, 2 sinf odobnoma darsligidagi **"Mehmon kutish odobi"** mavzusini ko'rib chiqaylik.

### **MAVZU: MEHMON KUTISH ODOBI.**

**Mavzuga o'zgacha ta'rif:** Mehmon otangday ulug'.

**O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi:**

**Metod:** Musobaqa, savol-javob

**Shakl:** Guruhlarda ishlash

**Dars jihozi:** Syujetli rasmlar, sahna ko'rinishlari, rivoyatlar, kartochkalar (qizil va sariq).

|                                                                                                                                           |                                                                                         |                        |           |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------|------------------------|-----------|
| <b>Nazorat:</b> Bolalarning dars davomidagi faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi                                                     |                                                                                         |                        |           |
| <b>Baholash:</b> Guruhlarni baholash, o'z-o'zini baholash                                                                                 |                                                                                         |                        |           |
| <b>Darsning maqsad va vazifalari</b>                                                                                                      |                                                                                         |                        |           |
| <b>Ta'limiy:</b> O'quvchilarga o'zbek xalining azaldan mehmondo'stligini tushuntirish.                                                    |                                                                                         |                        |           |
| <b>Tarbiyaviy:</b> Mehmon kutishning odobi, qonun qoidalarini tushuntirib, ularni mezbonlik vazifasiga o'rgatish.                         |                                                                                         |                        |           |
| <b>Rivojlantiruvchi:</b> Mehmon kutish haqidagi tasavvurlarini kengaytirish, sharqona udumlarimiz haqidagi bilimlarini rivojlantirish.    |                                                                                         |                        |           |
| <b>Kutilayotgan natija</b>                                                                                                                |                                                                                         |                        |           |
| Dars yakunida o'quvchilar mehmon kutish milliy qadriyatlarimizdan biri ekanligini bilib oladilar. Mehmon kutish qoidalarini o'rganadilar. |                                                                                         |                        |           |
| <b>Dars jarayoni va texnologiyasi:</b>                                                                                                    |                                                                                         |                        |           |
| Ishning nomi                                                                                                                              | Bajariladigan ish mazmuni                                                               | Metod                  | Vaqt      |
| 1-bosqich<br>Tashkiliy qism                                                                                                               | O'quvchilar davomati olinadi, sinfning darsga tayyorligi tekshiriladi.                  | nazorat                | 2 daqiqa  |
| 2-bosqich<br>Ehtiyojlarni aniqlash                                                                                                        | O'quvchilarni guruhlariga bo'lish, guruhlarini nomlash                                  | Kartochkalar yordamida | 2 daqiqa  |
| 3-bosqich<br>Darsning borishi                                                                                                             | 1.O'tilgan mavzuni mustahkamlash guruhlariga savollar tarqatilib, javoblari eshitiladi. | Guruhlarda ishlash     | 5 daqiqa  |
|                                                                                                                                           | 2.Yangi mavzu e'lon qilinadi                                                            | Tushuntirish           | 2daqiqa   |
|                                                                                                                                           | 3.Guruhlar sahna ko'rinishi namoyish qiladilar.                                         | Guruhlar namoyishi     | 10 daqiqa |
|                                                                                                                                           | 4.Bir piyola choyi bordir o'zbekning ashulasi aytiladi.                                 | Amaliy ish             | 3 daqiqa  |
|                                                                                                                                           | 5.Mehmondo'stlik haqida hadis va rivoyatlardan misollar keltiradilar.                   | Amaliy ish             | 5daqiqa   |
|                                                                                                                                           | 6.Mehmon kutishga doir udumlarimiz haqida gapirib berish                                | Amaliy ish             | 5 daqiqa  |
|                                                                                                                                           | 7.Mehmondo'stlik haqida maqollar aytish musobaqasi.                                     | Musobaqa               | 5 daqiqa  |
| 4-bosqich<br>Mustahkamlash                                                                                                                | Syujetli rasmlar ko'rsatilib, mavzu mustahkamlanadi.                                    | Amaliy ish             | 2 daqiqa  |
| 5-bosqich<br>Baholash                                                                                                                     | Kartochkalar hisoblanib, g'olib guruh aniqlanadi va rag'batlantiriladi.                 | Amaliy ish             | 2 daqiqa  |
| 6-bosqich<br>Uyga vazifa                                                                                                                  | Mavzuni o'qib, mehmondo'stlik haqida kichkina matn tuzish                               | Tushuntirish           | 2 daqiqa  |

**O'qituvchi:** Bolalar, bugungi darsimizni musobaqa tarzida o'tkazamiz. Uchta guruhga bo'linib olamiz.

Darsga hamma faol qatnashishi kerak. Har bir to‘g‘ri javobingiz uchun qizil, noto‘g‘ri javobingiz uchun sariq kartochka olasiz. Dars oxirida kartochkalarni hisoblab chiqamiz. Eng ko‘p qizil kartochka to‘plagan guruh g‘olib hisoblanadi.

Demak, bolalar musobaqamiz boshlanadi. Mana, mening qo‘limda har biriga bittadan hikmatli so‘z yozilgan uchta varaq. Har qatorda bitta o‘quvchi chiqib, qog‘ozlarni olsin. Bu hikmatli so‘zlar o‘tgan mavzumizga taalluqli.

**1-varaqqa:** Bo‘sh qop tik turmaydi.

Nima uchun?

**2-varaqqa:** Ertalabki nonushtani o‘zing ye, tushlikni do‘sting bilan baham ko‘r, kechqurungi ovqatni dushmaningga ber. Nima uchun?

**3-varaqqa:** Agar ovqat me‘yorida yeyilmas ekan, siz ovqatni emas, ovqat sizni yeydi. Nimaga? So‘zlari yozilgan?

O‘quvchilar varaqlarni olib, har bir guruh alohida maslahatlashib oladi va savollarga javob beradilar. O‘quvchilarning har to‘g‘ri javobi qizil kartochkalar yordamida rag‘batlantirib boriladi.

**O‘qituvchi:**

Bolalar, bugungi darsimiz mavzusi: **“Mehmon kutish odobi”**.

Qadim-qadimdan o‘zbek xalqi mehmondo‘stligi bilan nom qozongan. Hatto xorijiy mamlakatlarda ham o‘zbek xalqining mehmondo‘stligi hurmat bilan tilga olinadi. Hech qachon kelgan mehmondan nimaga kelganligi so‘ralmaydi. Uy sohibi mehmonni uydan tashqariga chiqib, hurmat bilan salom berib, alik olib, “Xush kelibsiz” deya yaxshi so‘zlar bilan kutib oladi va mehmonni uyning eng munosib joyiga, to‘rga o‘tkazadi. Uning oldiga dasturxon yozilib, taom tortiladi.

O‘tgan darsda uyga vazifa qilib, har bir guruh mehmon kutishni sahna ko‘rinishi tarzida tayyorlab kelishi topshirilgan edi. Hozir shu sahna ko‘rinishlarini tomosha qilamiz.

**Uyingizga keldi mehmon**

**Yozing chiroylik dasturxon**

**Qo‘ying olma, pista, bodom**

**Bo‘ling chaqqon, bo‘ling chaqqon**

**Mehmonlardir juda aziz**

**Taom qiling, bo‘lsin laziz**

**Bizlar bormiz, qo‘rqmang hargiz**

**Bo‘ling chaqqon, bo‘ling chaqqon**

Har bir guruh alohida sahna ko‘rinishlari namoyish etilgandan keyin, ularning xato va kamchiliklari muhokama qilinib, kartochkalar beriladi.

Dam olish daqiqasida o‘quvchilar **“Bir piyola choyi bordir o‘zbekning”** ashulasini aytadilar.

**Sig‘masa ham o‘z do‘stiga joyi bor uning**

**Yo‘lovchiga bir piyola choyi bor uning**

**Do‘ppisini ko‘kka otib maqtansa arzir**

**O‘zbekiston degan jannat joyi bor uning**

**O'g'il-qizi yorug' yulduz oyi bor uning  
O'chmas izi-bosadigan toyi bor uning  
Do'ppisini ko'kka otib maqtansa arzir  
O'zbekiston degan jannat joyi bor uning**

O'quvchilar mehmondo'stlik haqida hadis va rivoyatlardan misollar keltiradilar.

### **1-o'quvchi:**

**Rivoyat qiladilarki**, har qachon **Umar Xattob (r.a)** ning uylariga mehmon kelganda o'ltirmasdan mehmonga xizmat qiladilar va aytadilarki: **“Rasulloh (s.a.v)** dan eshitganman, mehmon kirgan uyga farishtalar tik turgan holda hozir bo'ladilar, shuning uchun farishtalar tik turganda men o'ltirishga uyalaman”.

### **2- o'quvchi:**

**Rivoyat qiladilarki**, Alloh subhanohu taolo Muso (a.s.) ga vahiy yuborib dedi: “Yo Muso, o'z mehmoningni sevgin va mening mehmonimni izzat- hurmat qilgin. Agar o'z mehmoningni e'zozlasang Jannatni beraman va agar mening mehmonimni e'zozlasang diydornasib etgum”. Muso (a.s.) murojaat qilib: iloho, mening mehmonim kim va sening mehmoning kim?- deb so'radilar.

“Yo Muso, taom tayyorlab, o'zing chaqirib, olib kelgan mehmon sening mehmoning, senga xabar bermasdan uyingga kelgan mehmon mening mehmonimdir”- degan vahiy keldi.

**O'quvchi:** Ha, bolalar “Mehmon eshikdan kelsa, rizqi teshikdan keladi” degan gap bejiz aytilmagan.

Biz mehmonni chaqirar ekanmiz, uyimizni, barcha idish-tovoqlarimizni, chor-atrofni toza, ozoda qilib qo'yishimiz kerak. Oldilariga qo'yiladigan masalliqlarimiz ham pokiza bo'lmog'i shart.

**Agar sen chaqirsang uyingga mehmon  
Oldin taraddud qil ey dono inson  
Pok bo'lsin oshu-non, uy-joy, to'n-to'shak  
Bergan tuzing manzur bo'lmog'i kerak.**

**Rivoyat qildilarki**, Hazrati Sulton Uvays bobomizning uylariga Hizr otamiz mehmonga kelibdilar. Xizmatkorlarning hammasi chin dildan xizmat qilib, har xil taomlar pishirib kelibdilar. Lekin Hizr otamiz taomlarga qo'l uzatmabdilar. Sulton Uvays bobomiz sababini so'raganlarida, xizmatkorlardan bittasi qo'lini yuvmasdan ovqatga unnaganini, bunday makruh bolgan taomni yeya olmasligini aytib, uzr so'ragan ekanlar.

Ko'rdingizmi bolalar, bizning hamma narsamiz toza, pokiza bo'lmog'i kerak ekan.

Xalqimiz farzandlarini “Mehmon otangday ulug” deb tarbiyalaydilar. Hozirgi shartimizda siz mehmon kutishga doir udumlarimiz haqida gapirib berishingiz kerak:



**O'quvchi:**

Uyga mehmon kelganda har qanday oilaviy janjallarga barham beriladi. Udumimizga ko'ra, mehmon kelganda uy egalari bolalarini urushmoq tugul, mushugini ham qattiqroq „pisht“ demaganlar

**O'quvchi:**

Yosh bola teskari qarab, ikki oyog'ini orasidan boshini egib qarasa ham, issiq choy to'kilsa ham mehmon keladi deb sevinganlar.

**O'quvchi:**

Xamir qorayotganda xamir uchsa, tushda yo'l yo'l chopon kiysa ham biror aziz mehmon kelishiga yo'yadilar.

**O'quvchi:**

Mehmon kelganda qo'shnilarni aytish ham yaxshi odatdir. Mehmonning hurmati uchun ana shu qo'shnilar u kishini o'z uylariga mehmondorchilikka aytishadi.

**O'quvchi:**

Uyga mehmon kelsa, mehmon og'zini shirin qilsin deb, avvalo oldiga non, shirinlik, choy qo'yishadi.

**O'quvchi:**

Andijon, Qo'qon, Farg'ona ahlining mehmon kutishda yaxshi odatlari bor. Mehmon kelgan xonadonga qo'ni-qo'shnilari dasturxon qilib chiqadilar.

**O'quvchi:**

Mehmonning oldiga siniq tovoqda ovqat qo'ymaydilar, siniq piyolada choy bermaydilar. Bu ayb sanaladi.

**O'quvchi:**

Jumhuriyatimizning turli viloyatlarida mehmon kutish turlichadir. Xorazmda mehmonning oldiga dasturxon yozib, non, choy yoki ovqat qo'yganda, faqat bir marta **“oling, mehmon”** deyishadi. Ular qayta, qayta oling, deb qistamaydi. Non ham ortiqcha ushlatilmaydi, har kim o'ziga kerakligini sindirib yeydi. Har bir kishiga bittadan choynak qo'yib, o'zingiz istagan paytda quyib ichaverasiz, degan ma'noda keltiradilar.

**O'quvchi:**

Samarqand, Toshkent, Buxoro viloyatlarida mehmon kutish boshqacharoq. Mehmonga dasturxon yozib, choy damlagach, non ushatadilar va mehmonga **“oling mehmon, oling, olmayapsiz, olib o'tiring”** deb iltifot qilib turiladi.

Barakalla, bolalar! Guvohi bo'ldikki, siz mehmon kutish haqida ko'p narsalarni bilar ekansiz. Endi maqol aytish musobaqasini o'tkazamiz.

**Shart:** aytilgan maqollar mehmondo'stlik haqida bo'lmog'i kerak.

1. Mehmon otangday ulug'.

2. Mehmon kelsa eshikdan, Rizqi kelar teshikdan.

Har bir aytilgan maqol uchun kartochka berib boriladi. Syujetli rasmlar ko'rsatilib, mavzu mustahkamlanadi.

Dars oxirida kartochkalar sanalib, g'olib guruh aniqlanadi. G'olib guruhga

Abu Hamid G‘azzoliyning “Ey farzand” deb nomlangan kitobchasi taqdim qilinadi.

Yaxshi qatnashgan o‘quvchilar baholanadi. O‘quvchilarga uyga vazifa berilib, dars yuklanadi. Uyga vazifa: Mavzuni o‘qib, mehmondo‘stlik haqida kichik matn tuzish.

## **BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHINING RIVOJLANISHI VA TARBIYA.**

Odam shaxs bo‘lmog‘i uchun ruhiy jihatdan taraqqiy etgan o‘z xususiyat va sifatleri bilan boshqalardan farq qilmog‘i lozim. Har bir odam shaxs sifatida turlicha namoyon bo‘ladi. U o‘zining xarakter, qiziqishi va qobiliyati, aqliy rivojlanganlik darajasi, ehtiyoji va mehnat faoliyatiga munosabati bilan farqlanadi. Bular shaxsning o‘ziga xos xususiyatlari bo‘lib, ana shu ruhiy xususiyatlar rivojlanib ma’lum bir bosqichga yetsagina u mukammal, kamol topgan inson bo‘ladi. Shaxsning ijtimoiy voqelikka, mehnatga, kishilarga, jamiyatga bo‘lgan munosabati turlicha. Odam ijtimoiy mavjudod sifatida shaxs nomini olish uchun unga ijtimoiy iqtisodiy hayot va jamiyat kerak.

Inson tirik biologik mavjudoddur. Demak, uning rivojlanishida tabiat, biologik va ijtimoiy iqtisodiy qonuniyatlar uzviy ta’sir etadi, insonni kamol toptiradi. Odamning mukammal inson bo‘lib yetishuviga o‘zining maqsad asosidagi xatti-harakati muhimligini esdan chiqarmaslik zarur.

Inson hayot faoliyati davomida o‘zgarib, shakllanib, rivojlanib boradi. Bolalik, o‘smirlik va o‘spirinlik davrlarida rivojlanish nihoyatda kuchli bo‘ladi. Odamning ijtimoiy mavjudod sifatida shaxsga aylanishi uchun ijtimoiy hayot sharoitlari va maqsadga qaratilgan tarbiya kerak bo‘ladi. Ana shular ta’siri ostida odam inson sifatida rivojlanib boradi va shaxsga aylanadi.

Odam bolasining shaxs sifatida rivojlanishi, uning har tomonlama kamolga yetishishining samarali bo‘lishini ta’minlash uchun pedagogika fani shaxs rivojlanishining umumiy qonuniyatlarini, unga ta’sir etuvchi omillarini, rivojlanish jarayoniga taalluqli davrlarni aniqlash darkor. Shuningdek, bola shaxsining rivojlanishida ta’lim-tarbiya va bola faolligini rolini ham aniqlash lozim.

Shaxsning fazilatlarini to‘g‘ri ko‘rish va bexato baholash uchun uni turli munosabatlar tizimiga qo‘yib kuzatish zarur. Ana shundagina shaxsning ijtimoiy hulqi, ma’naviy qiyofasi, insoniy fazilatleri ro‘yobga chiqadi. Demak, shaxsni rivojlantirish vazifasini to‘g‘ri hal qilish uchun uning hulqiga ta’sir etuvchi omillarining (faktor) tabiatini, shaxsning xususiyatini yaxshi bilmoq kerak.

Yuqoridagi omillarga asoslanib rivojlanishga quyidagichi ta’rif berish mumkin: Rivojlanish deb bola vaznining oshishi, suyak va muskul tizimining, jinsiy tanosil a’zolarining, nerv-funktsional faoliyatining kamol topishi, aql-zakovatini shakllanishiga aytiladi.

“Dunyoda mavjud bo‘lgan jami borliq - deb yozgan edi Ibn Sino, - o‘z tabiatiga ko‘ra kamolot sari intiladi. Kamolot sari intilish esa o‘z mohiyati e’tiborila yaxshilikdir”. Ayniqsa inson tirik mavjudod sifatida kamolotga yetishga

doimo intiladi.

Mutafakkir A.R.Beruniyning da'vosicha, hamma odamlar o'z qiyofasi jihatidan bir-biriga o'xshaydi, ammo ayni choqda ular bir-biridan farq qilib turadi. Bu tafovut "ular temperamentining tabiat xususiyatlari va hokazolarining ziddiyatli bo'lishi tufayli ularning instentlari zahirida yotadi", deb izohlangan. Haqiqatan ham insonlar bir-birlariga umumiy holda o'xshaydi, ammo tabiati, tabiiy xususiyatlari, xarakteri bilan bir-birlaridan farq qiladi.

"Odam - deydi Beruniy - tabiati jihatidan bir-biriga zid a'zolar qo'shilmasidan tarkib topgan murakkab tanaga ega"... va shu boisdan "uning holati o'z xarakteriga ko'ra xilma-xil va turli-tuman bo'ladi". Haqiqatan ham xatto egizak tug'ilgan chaqaloqlarning ham bir-biridan farq qiladigan xususiyatlari, sifatlari hayotda isbotlangan. Ayniqsa ularning xarakteri bir-birlaridan tubdan farq qiladi.

Individning shaxs darajasiga ko'tarilishi uchun unga ko'rsatiladigan ta'sirlar hal qiluvchi rol o'ynaydi. Uning rivojlanishi uchun eng avvalo inson sifatida tug'ilishi, sharoit, tarbiya singari ta'sirlar mavjud bo'lmog'i zarur. Agar bunday ta'sirlar ko'rsatilmasa u nobud bo'ladi. Uning rivojlanishi uchun vaqt, tabiiy qulay sharoit va unga ko'rsatiladigan tarbiya zarur bo'ladi.

Shaxsning kamol topishida va uning hulqida ijtimoiy va biologik omillarning kuchi doimo ham bir xil bo'lavermaydi. Chunki uning hulqiga munosabatlariga, aloqalariga, yoshi, bilimi, odatlari, tajribasi va nihoyat, vaziyat ham ta'sir etadi. Masalan, bir xildagi ta'sirga turli bola turlicha munosabatda bo'ladi, bu ayni paytda, bolaning ehtiyoji qandayligiga ham bog'liq. Berilib shaxmat o'ynayotgan bolaga endi bo'ldi qilinglar degan ta'sir ularga ta'sir qilmasligi mumkin.

### 3 - SINF ODOBNOMA DARSLIGIDAGI „NONNI ISROF QILMASLIK DOBDANDIR“ MAVZUSIDA ESA DARSGA BOSHQACHAROQ YONDASHISH MUMKIN.

|                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                  |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>Mavzu: Nonni isrof qilmaslik odobdandir.</b>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                  |
| <b>Dars nomi:</b> Non ham non, ushog'i ham non                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                   |
| <b>O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi:</b><br><b>Metod:</b> Suhbat savol-javob<br><b>Shakl:</b><br><b>Jihoz:</b> Bug'doy noni, boshog'I, un, undan tayyorlangan turli nonlar-patir non, shirmoy non, kulcha, bulochka, bulka....<br><b>Nazorat:</b> Bolalarning dars davomidagi faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.<br><b>Baholash:</b> O'quvchilarning reytingi dars oxirida e'lon qilinadi. |
| <b>Darsning maqsad va vaifalari.</b>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                             |
| <b>Ta'limiy:</b> O'quvchilarga nonning inson uchun eng aziz ekanligini tushuntirish<br><b>Tarbiyaviy:</b> Nonni isrof qilmaslikka o'rgatish.<br><b>Rivojlantiruvchi:</b> Nonning turlari haqidagi tassavvurlarini kengaytirish.                                                                                                                                                                                  |
| <b>Kutilayotgan natija.</b>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                      |
| Dars yakunida o'quvchilar nonning qanday paydo bo'lishi, uni isrof qilmaslik, nonning turlari haqidagi BKMlarga ega bo'ladilar.                                                                                                                                                                                                                                                                                  |

| <b>Ishning nomi</b>                | <b>Bajariladigan ish mazmuni</b>                                                                                                                                                                  | <b>Metod</b>                                                                                           | <b>Vaqt</b>                                                         |
|------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------|
| 1-bosqich<br>Tashkiliy qism        | O'quvchilar davomati aniqlanadi va sinfning darsga tayyorligi tekshiriladi.                                                                                                                       | nazorat                                                                                                | 2 daqiqa                                                            |
| 2-bosqich<br>Ehtiyojlarni aniqlash | O'quvchilarda ixtiyoriy diqqatni tarkib toptirish                                                                                                                                                 | B.B.B. intefaul o'yini.                                                                                | 2 daqiqa                                                            |
| 3-bosqich<br>Darsning borishi.     | 1.O'tilgan mavzuni mustahkamlash<br>2.Yangi mavzuni tushuntirish.<br>3.Nonning qanday paydo bo'lishini tushuntirish.<br>4.Dam olish daqiqasi.<br>5.Non haqida she'rlar.<br>6. "Non isi" rivoyati. | Savol-javob<br>Amaliy<br>Sahna<br>ko'rinishi<br>Uch patir<br>ashulasi<br>Amaliy<br>Sahna<br>ko'rinishi | 3daqiqa<br>3daqiqa<br>8 daqiqa<br>5 daqiqa<br>8 daqiqa<br>10 daqiqa |
| 4-bosqich<br>Mustahkamlash         | Nonni ulug' ne'mat ekanligini tushuntirish.                                                                                                                                                       | Amaliy                                                                                                 | 3 daqiqa                                                            |
| 5-bosqich<br>Baholash              | Darsda faol qatnashgan o'quvchilarni baholash.                                                                                                                                                    | Nazorat                                                                                                | 2 daqiqa                                                            |
| 6-bosqich<br>Uyga vazifa           | "Non-ulug' ne'mat" mavzusida kichik matn tuzish.                                                                                                                                                  | Tushuntirish                                                                                           | 2 daqiqa                                                            |

**Darsning borishi:** Bolalar bilan salomlashib, o'tilgan mavzu so'raladi.

Bolalar, biz o'tgan darsimizda sizlar bilan qaysi mavzuda suhbatlashgan edik?

Isrofning zarari haqida.

"Isrofgarchilikka yo'l qo'ymaslik"- deganda nimani tushunasiz?

"Isrofgarchilikka yo' qo'ymaslik" degani- hamma narsani tejab ishlatish deganidir.

Barakalla, bolajonlar. Bugun biz bu mavzuni davom ettiramiz. Demak, bugungi mavzumiz: **"Nonni isrof qilmaslik odobdandir"**.

**Aziz bolajonlar!** Inson uchun barcha noz- ne'matlar ichida azizi NONDIR. Non- bu hayot degani. Bir kun nonsiz qolishni tasavvur qilib ko'ring-a!

Qadim- qadimdan kishilar nonni ulug'laganlar, uning ushog'ini ham isrof qilmaganlar.

**Nonning ushog'i ham nonning o'zidir,**

**Non esa tanada jonning o'zidir.**

**Nonimiz bo'lmasa jonimiz ham yo'q,**

**Non esa xuddi shu jonning o'zidir.**

Bolajonlar! Hozir biz sizlar bilan nonning qanday paydo bo'lishini sahna ko'rinishi orqali bilib olamiz. Sahna ko'rinishi: ( O'quvchilar bajaradilar.)

Dehqon piyoladagi choyiga nonni ivitib o'tirganida bo'ri kelib qoladi.

- Noningdan menga ham ber, deydi bo'ri.
- Oh! Maza ekan. Endi faqat non yeganim bo'lsin, deydi bo'ri va dehqondan so'raydi:

- Qanday tayyorlashni aytib berolmaysanmi?
- Avval mana bu bug‘doyni yerga ekamiz, unib chiqqanidan keyin sug‘oramiz, o‘g‘it beramiz, begona o‘tlarini yulamiz.
- Keyin yesa bo‘ladimi?
- Yo‘q hali. Bug‘doy boshog‘i mana bunday bo‘lib pishadi, uni o‘ramiz, yanchamiz va sovuramiz.
- Endi bo‘ladi?
- Bug‘doyni tegirmonga olib boramiz, bug‘doyni unga aylantiramiz. Keyin undan xamir qorib, oshiramiz, tandirga olov yoqib, pishirib olamiz.
- Bo‘ldi, bo‘ldi-e, yuragim tars yorilay deydi. Undan ko‘ra qir-adirlarda qo‘zichoqlarni tutib yeganim ma‘qul ekan, deb uvlaganicha qochib ketadi.

Ko‘rdingizmi bolalar! Nonni qanchadan-qancha kishilar mehnat qilib, yaratar ekanlar. Biz uni uvol qilmasligimiz kerak.

**O‘g‘lim nonni yerga tashlama.**

**Hurmati zo‘r, qadri zo‘r noning**

**Zamirida tog‘dek beqiyos,**

**Mehnati bor bobo dehqonning.**

Bolajonlar, ko‘pincha ko‘p qavatli uylarning yonida, axlatxonalarda tashlab ketilgan nonlarga ko‘zimiz tushadi. Hatto, ba‘zi-ba‘zida maktabimizda, karidorlarda yoki partalar tagiga tashlab ketilgan nonlarni ko‘rib qolamiz. Bu ishimiz to‘g‘rimi?

-Yo‘q, yo‘q.

- Ha bolalar, bu ishimiz gunohdir.

**Rivoyat qilishlaricha:** Inson yaratilgan paytida u bilan birga bug‘doy ham yaratilgan ekan. O‘sha paytda bug‘doy boshog‘i to‘ poyasining oxirigacha kattalikda ekan. Inson bug‘doyni keragini olib yeb, qolganini oyog‘i bilan ezib ketar ekan. Bug‘doy xudodan boshloqlarini kamaytirishini o‘tinib so‘rabdi. Shundan keyin bug‘doy boshloqlari kichrayib, hozir ko‘rib turgan darajaga kelibdi.

Bolajonlar! Charchab qolmadingizmi? Hozir hammamiz birgalikda qo‘shiq aytib dam olamiz. Ashula „**Uch patir**“

**Uch patir yopdim jizzali**

**Bir-biridan mazali**

**Yuring bog‘a girali**

**Qizil gullar terali**

**Non bilan ohay-yo**

**Usuli bilan ibiy-yo**

**Anama aytsam atmidi**

**Tandira bo‘yim yetmidi.**

**Non bilan ohay-yo**

**Usuli bilan ibiy-yo**

**Nonning xushbo‘y hidindan**

**Dillarimiz yayrasin**



**Bu nonni yaratganning  
Qo'llari dard go'rmasin  
Noz bilan ohay-yo  
Usuli bilan ibiy-yo**

Rahmat, bolajonlar! Endi kim non haqida she'r aytib beradi?

**O'quvchi:**

Non haqida o'ylasam,  
O'yim tamom bo'lmaydi  
Siz ham o'ylang bolalar  
Lekin yomon bo'lmaydi

**O'quvchi:**

Uyga kelganda mehmon  
Oyim yozar dasturxon  
Oldiga non qo'yishar  
Eng avval non yeyishar

**O'quvchi:**

Patir nonim jizzali  
Tatib ko'rdim mazali  
Oyim yoptilar uni  
Yeymiz uni har kuni

**O'quvchi:**

Non ushog'in to'kmagin  
To'kib isrof qilmagin  
Uvol degan so'zni bil  
Sen bu so'zga amal qil

Barakalla, bolajonlar! Non haqida shuncha she'rlarni bilar ekansizlar. Endi hammamiz birgalikda non haqida yana bitta sahna ko'rinishi tomosha qilamiz.

(O'quvchilar „Non isi” rivoyatini sahna ko'rinishi qilib, ko'rsatib beradilar).

**Non isi (Rivoyat)**

Bir kuni Husayn Boyqaro-Dunyodagi eng xushbo'y narsani keltiring,- deb qolibdi. Unga quchoq- quchoq gul keltirishibdi. Sulton:- yo'q,- debdi.

Vazirlar nima qilishni bilmay, o'layverib boshlari qotibdi.Oxiri topolmasdan Alisher Navoiyga murojaat qilishibdi.Navoiy bir savat non bilan saroyga yetib boribdi. Bir zumda saroyni non isi tutibdi.- Rahmat, do'stim,- debdi Husayn Boyqaro nonni ko'rib,- yangi yopilgan non isini istayotgan edim, topib kelibsiz.

Ko'rdingizmi, bolajonlar! Dunyodagi eng xushbo'y narsa ham – non ekan. Nonning turlari juda ko'p-patir non, shirmoy non, kulcha, buxanka non, baton... Ular bir-biridan mazali, bir-biridan shirali.

Bolalar, shunday narsalarni uvol qilishimiz to'g'rimi? Albatta yo'q. Xalqimiz azaldan nonni ilohiy ne'mat deb ulug'lagan. Bu to'g'rida siz nimalarni bilasiz?

**1-o‘quvchi:** Qadim-qadimdan uzoqdan kelgan mehmonni non va tuz bilan kutib olganlar.

**2-o‘quvchi:** Nonni faqat ikki qo‘l bilan sindirganlar. Bir qo‘lda nonni sindirish, nonga hurmatsizlik sanaladi.

**3-o‘quvchi:** Non turgan tomonga oyoq uzatish, gunoh hisoblanadi.

Balli, bolalarim! Ota-bobolarimiz nonni ana shunday e‘zozlaganlar. Biz ham ularga munosib bo‘laylik. Nonni isrof qilmaylik!

Darsda yaxshi qatnashgan o‘quvchilar baholanadi. Uyga vazifa berilib, darsga yakun yasaladi. Uyga vazifa: “**Non-ulug‘ ne‘mat**” mavzusida kichik matn tuzish.

Buyuk ajdodlarimiz mavzusini esa ertalik tarzida o‘tkazish mumkin:

### **MAVZU: BUYUK AJDODLARIMIZ**

**Maqsad:**

**Ta‘limiy:** O‘quvchilarning buyuk ajdodlarimiz haqidagi bilimlarini boyitish.

**Tarbiyaviy:** O‘quvchilarda ajdodlarimiz bilan faxrlanish tuyg‘usini shakllantirish.

**Rivojlantiruvchi:** Oquvchilarning aqliy va mustaqil fikrlay olish faoliyatini oshirish.

**Dars jihozi:** kompiyuter ,buyuk ajdodlarimiz rasmlari, asarlaridan namunalar, ular haqidagi boshqotirmalar, sahna ko‘rinishlari.

**Darsning borishi:**

**O‘quvchi:**Yurtim menga zar kerakmas, zarlaringdan

Kipriklarim o‘psalar bas, gardlaringdan.

Men bir nasim bo‘lib keldim, men bir nasim

Aytib o‘tsam deyman ko‘hna dardlaringdan.

**O‘quvchi:** Menga qadim minorlardan bir sas yetar

Shul sas mening ko‘nglim oxir serfayz etar.

Menga dunyo kerak emas, bir xas yetar

Bobolarim yotgan aziz yerlaringdan.

**O‘quvchi:** Bu ko‘hna zamin, bu muqaddas tuproq qanchadan-qancha urushlar, bosqinchiliklarga guvoh bo‘lmagan deysiz? Vatanimizni yov qo‘liga topshirmaslik uchun o‘z jonlarini qurbon qilishga tayyor bo‘lgan buyuk ajdodlarimiz oldida hamisha qarzdormiz.

**O‘quvchi:**Kirning yuragiga titroqlar solgan,

To‘marisdir- dushman yuragin olgan.

**To‘maris:** Men To‘maris olis moziydan

Keldim sizning gulzoringizga.

Ajdodlarim dildan istagan

Erkin, obod diyoringizga.

Sadqa qildim yolg‘iz farzandim,

Ona xalqim va yurtim uchun.

Bosh ko‘tarsa agar yog‘iylar

Zarb beraman yig‘ib bor kuchim.

**O‘quvchi:** Vatan uchun jonini kim qilgan o‘lpon?

Bormikan Shiroqday mard, jasur cho‘pon?

**Shiroq:** Kimki Vatanimga ko‘z olaytirsam,  
Yomon niyat bilan gar bossa qadam  
Ko‘zlari ko‘r bo‘lib, shol bo‘lg‘usidir  
Toabad badnom bo‘lib, xor bo‘lg‘usidir.

**O‘quvchi:** Sen- Muqanna, qorachig‘i olovlarida sachragan  
Erk degan qutlug‘so‘zni yuragida asragan.

**Muqanna:** Xalqqa ayting men also o‘lganim yo‘q  
Yov qo‘lida taslim ham bo‘lganim yo‘q.  
Men elimning yuragida yashayman  
Erk deganning tilagida yashayman.

**O‘quvchi:** Elim degan har bandasin Xudo siylar  
Kubrolardan qolgan bu ko‘hna kuylar.

**Najmiddin Kubro:** U dunyo bu dunyo Vatan bizga or  
Dunyolarga sotmadik nomusimizni.  
Aziz vatandoshim, ayladik yodgor  
Erksevarlik, yurtsevarlik qomusimizni.

**O‘quvchi:** Tarixing qa‘ridan kelar bir sado,  
Dunyoni zabt etgan o‘tli bir nido.  
O‘nta o‘g‘lim bo‘lsa Jaloliddinday  
Dushmanni mahv etishim ravshandir kunday.

**Jaloliddin Manguberdi:** Nomus uchun nomni emas ruhni o‘stir,  
Og‘ir kunda yovdan qochgan yovga do‘stdir.  
Yurt chorlasa suvlarni kech, o‘tlarga kir  
Fidoyi bo‘l, yurtning uchun fidoyi bo‘l.

**O‘quvchi:** Tengsiz azmu-shijoat, mardlik va donishmandlik ramzi bo‘lgan  
sohibqiron Amir Temur bobomiz buyuk saltanat barpo etib ilmu fan, madaniyat,  
bunyodkorlik din va ma‘naviyat rivojiga keng yo‘l ochdi.

**Amir Temur:** Men yarim dunyoni darbadar kezdin,  
Bitta yurak bilan, bir qilich bilan  
Dushmanni yurtimdan badarg‘a etdim.  
Bitta oyoq bilan, bitta o‘ch bilan.

Taajjub noo‘rin, gumonlar xato,  
Tavallo qilurman, amr qilurman.  
Ostimda bir zamin, tepamda Xudo  
Yakkayu-yagona Amir Temurman.

**O‘quvchi:** Bobomiz Amir Temur 1336 yilda keshga qarashli Xo‘ja Ilg‘or  
qishlog‘ida tug‘ilganlar. Amir Temur buyuk shaxs, kuragi yerga tegmagan  
sarkarda, yirik davlat arbobi , qonunshunos, ruhshunos el-yurtni sevgan uni  
jahonga mashhur qilganlar.

Amir Temur: “Tarjibamda ko‘rilgankim, azmi qat‘iy, tadbirkor, hushyor, mard va  
shijoatli bir kishi mingta tadbirsiz, loqayd kishidan yaxshiroqdir”.

Bolalarim siz ham mening o‘gitlarimdan bilurmisiz?

1.Yaxshini yomon kunda sina.

- 2.Sodiq va vafador do'st o'z do'stini ranjitmaydi.
- 3.Kuch adolatda.
- 4.Oq bo'lsang, ont ichma
- 5.Boshqa qilich kelsa-da, rost so'zla.

**O'quvchi:** Sherlar bilan olishib bo'ldi sher  
 She'tiyatning sultoni hazrat Alisher.  
 Ko'p asarlar yozdim saroyda]  
 G'azal, doston, ruboiy va she't  
 Temur tig'i yetmagan joyni  
 Qalamla oldim, men-Alisher.  
 Yod eting qiz-o'g'lonlarim  
 Puxta bo'lsin har zina  
 Besh bebaho dostonim  
 Tuganmas kon-xazina

Bobomiz Alisher Navoiy 1441-yilda 9-fevralda Hirot shahrida tug'ilganlar.  
 A.Navoiy-so'z mulkingning sultoni.U kishi Husayn Bayqaro saroida vazirlik qilgan.Navoiy bobomiz asarlari biz uchun xazinadir.

G'urbatda g'arib shodmon bo'lmas emish  
 El anga shafiqu mehribon bo'lmas emish  
 Oltin qafas ichra gar qizil gul bitsa  
 Bulbulg'a tikondek oshyon bo'lmas emish

- 1.Bilmaganni so'rab o'rgangan olim, orlanib so'ramagan o'ziga zoli
- 2.Oz-oz o'rganib dono bo'lur, qatra-qatra yig'ilib daryo bo'lur

**Muhtaram prezidentimiz A. Navoiy bobomizga shunday ta'rif berganlar:** Agar bu ulug' zotni avliyo desak, u avliyolarning avliyosi,mutafakkir desak mutafakkirlarning mutafakkiri, shoir desak,shoirlarning sultonidir.

**O'quvchi:** Ko'z yoshlari aylanib dengizlarga

Ulug'bek nom qo'yib ketgan yulduzlarga

**Ulug'bek:** Men umrim davomida koinot sirlarini ochishga harakat qildim, yulduzlarni o'rgandim. Butun dunyodagi bebaho kitoblarni to'plab siz farzandlarimga meros qilib qoldirdim.

**O'quvchi:** M.Ulug'bek 15 yoshidan boshlab podshohlik qilgan. 40 yil saltanatli boshqargan. M.Ulug'bek ham podshoh, ham olim edi U kishi A. Temurning nevarasi bo'lgan. Bu benazir alloma o'zida minglab yulduzlar harakatini jamlagan mukammal astronomik jadvalni yaratdi. 1996- yilda YUNESKO ning bosh kotibi Federiko Mayor janoblari Ulug'bekning ilmiy merosini yuksak baholab, uning yulduzlar harakatiga oid hisob-kitoblari kompyuter yordamida tekshirilib ko'rilganda atigi bir necha daqiqaga farq qilishini aytadi . Unga javoban muhtaram prezidentimiz:

**Ulug'bek xato qilgan bo'lishi mumkin emas, balki kompyuterlar xato qilgan bo'lishi mumkin,** deb do'stona lutf qilsalarda ,uning zamirida chuqur haqiqat bor.

**O'quvchi:** Ibn Sino bobomiz mashhur hakim va olim bo'lgan. U yoshligidan ilmga qiziqqan. Juda ko'p kitoblarni o'qigan. Natijada mashhur hakim

bo‘lib yetishgan. Ibn sino: Men umrim davomida kasalliklar bilan kurashib keldim. Giyohlardan dorilar ishlab insonlar umrini uzaytirishga harakat qildim.

Ibn Sino bobo ulashar davo:

1. Xom suvni ichma, Sog‘likdan kechma.
2. Yeb bo‘lib ovqat, Yugurma faqat.
3. Oshni taklifsiz, Boshlar tartibsiz.

**O‘quvchi:**

O‘z Andijoniga sig‘magan Bobur  
Hindu quchog‘ida yig‘lagan Bobur.

**Bobur:**

Temur bobom nabirasi Boburman  
Odil podshoh,shoir, ilmu nodirman.  
“Boburnoma” mendan sizga yodgorlik  
Shijoatkor, mardliklarga qodirman.

Bobur Mirzo Andijonda tug‘ilgan. Uzoq yillar Hindisonda shohlik qilgan. Bobur Mirzo bizga ko‘p kitob yozib qoldirgan. Shuning uchun bobomizni shoh va shoir deyishadi.

**O‘quvchi:** Har kimki vafo vafo qilsa vafo topg‘usidir  
Har kimki jafo qilsa jafo topg‘usidir.  
Yaxshi kishi ko‘rmagay yomonlig‘ hargiz  
Har kimki yomon bo‘lsa jazo topg‘usidir.

**O‘quvchi:** Zaminimizda yashab o‘tgan buyuk allomalarimiz, mutafakkir bobolarimizning ibratli hayoti va faoliyati,bemisl ilmiy-ijodiy kashfiyotlari budun ham jahon ahlini hayratga solayotganini g‘urur bilan ta’kidlash lozim.

Al-Xorazmiy,al-Buxoriy hazrat bizga  
Ulug‘beku, al-Farg‘oniy savlat bizga  
Manguberdi, Temur bobo davlat bizga  
Ona xalqim dono xalqim bizga ishon.

**3-o‘quvchi:** Bugun biz mustaqil yurt farzandlarimiz. Bobalarimiz yaratgan yanguliklarni, qilgan ishoralarini kelajakda davom ettirishimiz kerak. Vatanimizni sevib-ardoqlashga, a’lochi o‘quvchilar bo‘lishga harakat qilmoqdamiz.

**4-o‘quvchi:** Biz-uchinchi ming yillikni bolalari 2014-yilga qadam qo‘ydik.

**5-o‘quvchi:**Asrlar ortidan kelar asrlar

Unut bo‘lar o‘tmish, zamon ko‘p sirlar  
Ammo yaratilgan fan asoslarin,  
Asrdan-asrga eltar nasllar.

**O‘qituvchi:**Aziz bolalarim.

Mana siz buyuk ajdodlarimiz, ularning qilgan ishlari haqida boshlang‘ich ma’lumotga ega bo‘ldigniz.

Buyuk mutafakkir va allomalarimizning islom madaniyati ravnaqiga qo‘shgan betakror hissasi haqida ham aytib o‘tish joiz.

Eng avvalo haqli ravishda musulmon olamida „Muhaddislar sultoni” deb nom qozongan Imom Buxoriy bobomizning nomlarini ehtirom bilan tilga olamiz. Bu mo‘tabar zot merosining gultoji bo‘lmish-„Al-jome’ as-sahih” kitobi Quro‘ni Karimdan keyingi ikkinch muqaddas manba hisoblanadi.

Yana bir vatandoshimiz-Abu Iso Muhammad ibn Iso Termiziy „Sunani Termiziy”asari ham musulmon olamida shunday yuksak qadrlanadi.

Yana Imom Moturidiy, Burhoniddin Margʻinoniy,Abdulxoliq Gʻijduvoni, Bahoviddin Naqshband,Mahmud Zamazshariy kabi bobolarimiz ham bemisl kashfiyotlari bilan jahon sivilizatsiyasi rivojiga katta hissa qoʻshganlar.

Buyuk bobomiz Amir Temur „Bizning kuch-qudratimizni bilmoqchi boʻlsangiz, biz qurgan imoratlarga razm soling “-deganlar. Haqiqatan ham ular barpo etgan imoratlar hali-hanuzgacha butun dunyoni lol qoldirib kelmoqda.

Oʻzimizning Xorazm diyoimizda ham Urganch shahri qaytadan rekonstruksiya qilinib, yangi-yangi imoratlar dam olish maskanlari,maishiy xizmat inshootlari qurilmoqda.

Aziz bolajonlar . siz ham shahrimiz obodonligi uchun oʻz hissangizni qoʻshing.


### MAVZU: SOʻZ TURKUMLARI.

|                                                                                                                                                        |                                                                           |                                |                      |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------------------------------------|--------------------------------|----------------------|
| <b>Mavzuga qisqacha taʼrif:</b> Soʻz turkumlari haqida oʻquvchilar olgan bilimlar mustahkamlanadi va bilimlari sinab koʻriladi.                        |                                                                           |                                |                      |
| <b>Oʻquv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi:</b>                                                                                                 |                                                                           |                                |                      |
| <b>Metod:</b> Musobaqa, savol-javob                                                                                                                    |                                                                           |                                |                      |
| <b>Shakl:</b> Guruhlarda ishlash                                                                                                                       |                                                                           |                                |                      |
| <b>Dars jihozi:</b> Kompyuter, darslik, tarqatma materiallar, rasmlar, klaster topshiriqlar, baholar guldastasi                                        |                                                                           |                                |                      |
| <b>Nazorat:</b> Bolalarning dars davomidagi faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi                                                                  |                                                                           |                                |                      |
| <b>Baholash:</b> Guruhlarni baholash, oʻz-oʻzini baholash                                                                                              |                                                                           |                                |                      |
| <b>Darsning maqsad va vazifalari</b>                                                                                                                   |                                                                           |                                |                      |
| <b>Taʼlimiy:</b> „,Soʻz turkumlari” yuzasidan oʻquvchilar bilimini sinab koʻrish .                                                                     |                                                                           |                                |                      |
| <b>Tarbiyaviy:</b> Oʻquvchilarni doʻstona ruhda tarbiyalash. Gʻamxoʻrlik qilishga oʻrgatish.                                                           |                                                                           |                                |                      |
| <b>Rivojlantiruvchi:</b> Bolalarning aqliy va mustaqil fikrlay olish faoliyatini oshirish. Soʻz turkumlari haqidagi bilimlarini rivojlantirish.        |                                                                           |                                |                      |
| <b>Kutilayotgan natija</b>                                                                                                                             |                                                                           |                                |                      |
| Dars yakunida oʻquvchilar soʻz turkumlari, ularning taʼlimda zarur ekanligini bilib oladilar. Bir- biriga gʻamxoʻrlik qilish qoidalarini oʻrganadilar. |                                                                           |                                |                      |
| <b>Dars jarayoni va texnologiyasi:</b>                                                                                                                 |                                                                           |                                |                      |
| <b>Ishning nomi</b>                                                                                                                                    | <b>Bajariladigan ish mazmuni</b>                                          | <b>Metod</b>                   | <b>Vaqt</b>          |
| 1-bosqich<br>Tashkiliy qism                                                                                                                            | Oʻquvchilar davomati olinadi, sinfning darsga tayyorligi tekshiriladi.    | nazorat                        | 2 daqiqa             |
| 2-bosqich<br>Ehtiyojlarni aniqlash                                                                                                                     | Oʻquvchilarni guruhlariga boʻlish, guruhlarini nomlash                    | Amaliy ish                     | 2 daqiqa             |
| 3-bosqich<br>Darsning borishi                                                                                                                          | 1.Guruhlar oʻz nomini sheʼrda ifoda qiladilar.<br>2. Klaster topshiriqlar | Guruhlarda ishlash<br>Guruhlar | 5 daqiqa<br>7 daqiqa |

|                            |                                                                                                 |                                                                   |                                             |
|----------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------|---------------------------------------------|
|                            | 3. Ha, yo‘q o‘yini<br>4. Kitob bilan ishlash<br>5. Kasb- hunar haqida she‘rlar<br>6. 336- mashq | namoyishi<br>Amaliy ish<br>Amaliy ish<br>Amaliy ish<br>Amaliy ish | 6 daqiqa<br>5daqiqa<br>7 daqiqa<br>5 daqiqa |
| 4-bosqich<br>Mustahkamlash | Syujetli rasmlar ko‘rsatilib, mavzu mustahkamlanadi.                                            | Amaliy ish                                                        | 2 daqiqa                                    |
| 5-bosqich<br>Baholash      | Kartochkalar hisoblanib, g‘olib guruh aniqlanadi va rag‘batlantiriladi.                         | Amaliy ish                                                        | 2 daqiqa                                    |
| 6-bosqich<br>Uyga vazifa   | 337- mashq                                                                                      | Tushuntirish                                                      | 2 daqiqa                                    |

### **Darsning borishi:**

O‘quvchilar to‘rtta guruhga bo‘linib oladilar. Guruhlar nomlanadi. “Ot”, “Sifat”, “Son”, “Fe’l”.



**O‘qituvchi:** Bolajonlarim! Mana siz to‘rtta guruhga bo‘linib oldingiz. Bugun sizlarning „So‘z turkumlari“ yuzasidan olgan bilimlaringizni sinab ko‘ramiz.

**I-shart:** Har bir guruh o‘z nomlari taqdimotini o‘tkazadi.

“Ot” guruhi.

**1-O‘quvchi:** Men atqqli turdoshman  
Kelishiklarga boshman  
Kitob, daftar, qalamman.  
O‘zim sirli olamman  
O‘ylab topchi o‘quvchim  
O‘zi nima ekanman?

**2-o‘quvchi:** Bu men bo‘laman,  
Nomim ot  
Mensiz ism-nom  
Qirqilgan qanot.

“Sifat” guruhi.

**O‘qituvchi:** Yaxshi bo‘lsang, sifating soz  
Yomon bo‘lsang, maqtoving oz  
To‘g‘ri o‘qi, chiroyli yoz,  
Ofarin, deb chalaylik soz.

**1-o‘quvchi:** U qizil, ko‘k, ham qora,  
Go‘zal, chiroyli sara  
Shirin, lazizatli doim  
Chaqqon, epchil, muloyim.

**2-o‘quvchi:** Bu men bo‘laman

Nomimdir sifat  
Men-la go‘zallik  
Qalblarga payvand


“Son” guruhi:

- O‘qituvchi:** Son, son, son,  
Qanday son?
- 1-o‘quvchi:** Bir, ikki, uch, Sanoq son.
- 2-o‘quvchi:** Birinchi, ikkinchi, uchinchi  
O‘ylamasdan bilgin-chi?
- 3-o‘quvchi:** Bularmi?-Tartib son  
Oxiri yo‘q, go‘yo kon.
- 4-o‘quvchi:** Nechanchida o‘qiysan?  
Uchinchida o‘qiyman  
So‘zlardan gap to‘qiysan  
To‘qiyman, to‘qiyman
- 5-o‘quvchi:** Bu men bo‘laman  
Aytilmagan son  
O‘qib o‘rgansang  
Sen bilimga kon.

“Fe’l” guruhi:

- O‘qituvchi:** Juft savolim bor senga  
Ham o‘g‘ilga, ham qizga.  
Nima qildi Gulnora?
- O‘quvchi:** Qalam oldi qop-qora.
- O‘qituvchi:** Nima qilyapti Doston?
- O‘quvchi:** Chizyapti bog‘u-bo‘ston
- O‘qituvchi:** Barakalla, do‘stlarim,  
Sochilgan yulduzlarim  
Javobingizga borman  
Doimo sizga zorman.
- O‘quvchi:** Uch zamonga sardor u  
Harakat u, ,halovot u,  
Keldi, yozdi, o‘qidi,  
Ishladi ham to‘qidi.
- O‘quvchi:** Men bo‘laman bilsang  
Nomim mashhur fe’l  
A’lochi bo‘lay desang  
Meni o‘qi, o‘rgan, bil.

**II-shart.** Har bir guruh o‘z nomiga 4 tadan so‘zni konvert ichidan topib yozishadi.



### DAM OLISH DAQIQASI. ( HA, YO‘Q O‘YINI )

#### Ot guruhiga

1. Ot narsaning belgisini bildiradimi? ( Yo‘q.)
2. Ot gapda ega vazifasida keladimi? ( Ha. )
3. Ega,kesim gapning bosh bo‘laklariga kiradimi? (Ha.)
4. Chi qo‘shimchasi ot yasovchi qo‘shimchami? ( Ha.)
5. Otlar kim?, nima? So‘rog‘iga javob bo‘ladimi? ( Ha.)

#### Sifat guruhiga

1. Sifat kim?, nima? So‘rog‘iga javob bo‘ladimi? (Yo‘q.)
2. Sifat narsaning belgisini bildiradimi? (Ha.)
3. La sifat yasovchi qo‘shimchami? ( Yo‘q.)
4. Sifat maza-ta‘mni bildiradimi? (Ha.)
5. Sifat qanday?,qanaqa? So‘rog‘iga javob bo‘ladimi? ( Ha.)

#### Son guruhiga

1. Sonlarning hammasi raqamlar bilan yoziladimi? ( Yo‘q.)

2. Yigirma birinchi asr rim raqami bilan yoziladimi? (Ha.)
3. Son qanday?, qanaqa? so‘rog‘iga javob bo‘ladimi? (Yo‘q.)
4. Sonlar nechta?, nechanchi? Sorog‘iga javob bo‘ladimi? ( Ha.)
5. Tartib sonlarga inchi qo‘shimchasi qo‘shiladimi? (Ha.)

### **Fe‘l guruhiga**

1. Fe‘l narsaning nomini bildiradimi? (Yo‘q.)
2. Fe‘l nechta?, nechanchi so‘rog‘iga javob bo‘ladimi? (Yo‘q.)
3. Fe‘l gapda kesim vazifasida keladimi? ( Ha.)
4. Fe‘l nima qildi?, nima qilyapti? So‘rog‘iga javob bo‘ladimi?
5. Fe‘llar harakatni bildiradimi? ( Ha.)

**III Shart. Kitob bilan ishlash.** Xattaxtaga **Otlar, sifatlar, fe‘llar** so‘zlari osiladi. O‘quvchilarga so‘zlar yozilgan qog‘ozlar tarqatiladi. O‘quvchilar bu so‘zlarni xattaxtaga so‘zlardan mosiga olib borib qo‘yadilar.

**Otlar:** Shamol, daraxtlar, kunlar, gullar, hidlar.

**Fe‘llar:** Ochildi, boshlanadi, tarqaldi, esdi, gulladi.

**Sifatlar:** mevali mayin, oq, qizil, issiq, yoqimli.

**IV Shart.** Berilgan ot, sifat, fe‘llardan gaplar tuzing. Ega yoki kesim bilan belgilangan ikkinchi darajali bo‘laklarni aniqlang. Bog‘lanishini chizma orqali ko‘rsating.

Issiq kunlar boshlanadi. Mayin shamol esdi. Mevali daraxtlar gulladi. Oq, qizil gullar ochildi. Yoqimli hidlar tarqaldi.

Baralalla, bolajonlar!

Biz sizlar bilan turli kasblar, hunarlar haqida ko‘p suhbatlashganmiz.

She‘rlar yodlaganmiz. Hozir kim menga kasb- hunar haqida she‘r aytib beradi?

### **O‘quvchi:**

Hunar o‘rgan, ey o‘g‘lon

Hunar senga asqotar

Hunarlar ko‘p, soni yo‘q

Sanasang qator-qator.

### **O‘quvchi:**

O‘rgan, o‘g‘lim, yigitsan

Yetmish hunar oz senga

Hunarli er kam bo‘lmas

Maqolim ol esingga.

### **O‘quvchi:**

Hunarli bo‘l, ilm ol

Har ikkisi ham zarur.

Hunar bu- baxtu iqbol

Belga quvvat, ko‘zga nur.

**O‘qituvchi:** barakalla, bolajonlar! Endi 336- mashqqa diqqatimizni qaratamiz. Berilgan so‘zlardan so‘z yasovchi qo‘shimchalar yordamida kasb- hunar bildirgan so‘zlar yasaymiz.

**Bino- binokor, paxta- paxtakor, suvoq- suvoqchi, shaxmat- shaxmatchi, boshqaruv- boshqaruvchi, tadbir- tadbirkor.**

- Qaysi soʻz turkumiga oid soʻzlar hosil qilindi?
  - Ot soʻz turkumiga.
- Misollar yordamida mavzu mustahkamlanadi. Oʻquvchilar olgan ragʻbatlar hisoblanib, gʻolib guruh aniqlanadi.

**Uyga vazifa:** 337- mashq. Qanday bajarilishi oʻquvchilarga tushuntiriladi

## FAN: MATEMATIKA

**SINF: 2**

| <b>Mavzu:</b> Amallarni bajarish tartibi.                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                       |                                                                                                                                                                                                                                           |                                              |          |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------------|----------|
| <b>Soatlar soni:</b> 1 soat                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                     |                                                                                                                                                                                                                                           |                                              |          |
| <b>Mavzuning qisqacha mazmuni:</b> Amallarni bajarish tartibi haqida bilim berish.                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                              |                                                                                                                                                                                                                                           |                                              |          |
| <p style="text-align: center;"><b>Oʻquv jarayonini amalgam oshirish texnologiyasi:</b></p> <p><b>Metod:</b> Evristik, muammoli izlanish metodlaridan foydalanish.</p> <p><b>Shakl:</b> Jamoa, guruh bilan va har bir oʻquvchi bilan ishlash, qiziqarli oʻyin.</p> <p><b>Jihoz:</b> Darslik, mavzu asosida didaktik materiallar, jadval.</p> <p><b>Nazorat:</b> Ogʻzaki nazorat, savol-javob, kuzatish, oʻz-oʻzini nazorat qilish.</p> <p><b>Baholash:</b> Oʻquvchilar 5 ballik reyting tizimida baholanadi.</p> |                                                                                                                                                                                                                                           |                                              |          |
| <b>Darsning maqsadlari</b>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                      |                                                                                                                                                                                                                                           |                                              |          |
| <p><b>Taʼlimiy:</b> a) oʻtilgan mavzu yuzasidan egallangan bilimlarini mustahkamlash; b) amallarni bajarish tartibi haqida bilim berish.</p> <p><b>Tarbiyaviy:</b> Har bir matematik muammolarni xushmuomalalik, hamjihatlik, hozirjavoblik bilan bajarish fazilatlarini tarbiyalash.</p> <p><b>Rivojlantiruvchi:</b> Matematik topshiriqlarni bajarish orqali oʻquvchilarning mustaqil va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirish.</p>                                                                |                                                                                                                                                                                                                                           |                                              |          |
| <b>Kutilayotgan natija</b>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                      |                                                                                                                                                                                                                                           |                                              |          |
| Oʻquvchilar dars yakunida amallarni bajarish tartibi haqidagi bilimga ega boʻladilar.                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                           |                                                                                                                                                                                                                                           |                                              |          |
| <b>Dars jarayoni va texnologiyasi</b>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                           |                                                                                                                                                                                                                                           |                                              |          |
| Ishning nomi                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                    | Bajariladigan ish mazmuni                                                                                                                                                                                                                 | Metod                                        | Vaqt     |
| 1-bosqich.<br>Tashkiliy qism                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                    | Darsni tashkil etish. Navbatchi oʻquvchining axborotini tinglash. Sinfning darsga tayyorligi tekshiriladi.                                                                                                                                | Suhbat                                       | 2 minut  |
| 2-bosqich.<br>Ehtiyojlarni (refleksiya) aniqlash.                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                               | Oʻquvchilarning ehtiyojlari aniqlanib, mavzuga oid misol va masalalar yechiladi.                                                                                                                                                          | Savol-javob, mustaqil ish                    | 3 minut  |
| 3-bosqich.<br>Yangi mavzu bayoni                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                | <ul style="list-style-type: none"> <li>• Uy vazifasini tekshirish.</li> <li>• Oʻtilgan mavzuni mustahkamlash.</li> <li>• 1-misolni tushuntirib yechish. Amallarni bajarish tartibi.</li> <li>• 2-masalani tushuntirib yechish.</li> </ul> | <p>Muammoli izlanish</p> <p>Tushuntirish</p> | 28 minut |

|                             |                                                                                                       |                   |                    |
|-----------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------|--------------------|
|                             | •3-masala.Jadval asosida masala tuzib uni yechish.<br>• 4-misol                                       |                   |                    |
| 4-bosqich.<br>Mustahkamlash | Krossvord yechish.                                                                                    | Muammoli izlanish | 6 minut            |
| 5-bosqich.<br>Baholash      | 1. O'quvchining darsda ishtiroki hisobga olinib, reyting bali e'lon qilinadi.<br>2. Dars yakunlanadi. |                   | 2 minut<br>2 minut |
| 6-bosqich.<br>Uyga vazifa   | 5-masala, 6-misol                                                                                     | Tushuntirish      | 2 minut            |

### **Darsning borishi:**

**1-2-bosqichlar texnologik xarita asosida tashkil etiladi.**

**3-bosqich.** Uy vazifasini tekshirish. 5-6-misol, masala.

O'tilgan mavzuni mustahkamlash. "Bilarjon bilan bilmasvoyning tortishuvi" nomli didaktik o'yindan foydalanish.

Bilarjon mustaqil ishni quyidagicha bajardi.

$$\begin{array}{lll} (54-54) \cdot 1 = 0 & 1 \cdot 15 = 15 & 14:14=1 \\ (28-27) \cdot 0 = 0 & 29 \cdot 0 = 0 & 6 \cdot 10 = 60 \end{array}$$

Bilmasvoy esa bu vazifani quyidagicha bajardi.

$$\begin{array}{lll} (54-54) \cdot 1 = 1 & 1 \cdot 15 = 15 & 14:14=0 \\ (28-27) \cdot 0 = 1 & 29 \cdot 0 = 29 & 6 \cdot 10 = 60 \end{array}$$

Bilarjon bilan Bilmasvoy tortishib qolishibdi. Ularga sinf o'quvchilari yordam berishibdi va Bilmasboy qayerda xatolikka yo'l qo'yganini fahmlabdi.

**Yangi mavzu bayoni.** Quyidagi ifodalar qanday amallarni o'z ichiga olganini tushuntirib bajarish. 1-misol.

$$\begin{array}{ll} 27+3-5=30-5=25 & 50-20-9=30-9=21 \\ 12:2 \cdot 4=6 \cdot 4=24 & 3 \cdot 6:2=18:2=9 \end{array}$$

**Qo'shish va ayirishni, yoki faqat ko'paytirish va bo'lishni o'z ichiga olgan qavssiz ifodalarda amallar qaysi tartibda yozilgan bo'lsa, shu tartibda chapdan o'ngga qarab bajariladi.**

2-masalani yechish (yozma).

Olchanning balandligi – 5 metr

O'rikning balandligi – 8 metr

Qaysi daraxt baland?

Qancha baland ekanligini hisoblab topishga o'rgatish.

Yechish:  $8-5=3$ m o'rik daraxti olchadan 3 metr baland.

3-masala. Jadval bo'yicha masala tuzib, uni yechish.

|                |                   |              |
|----------------|-------------------|--------------|
| <b>Bor edi</b> | <b>Ishlatildi</b> | <b>Qoldi</b> |
|----------------|-------------------|--------------|

|                                            |           |   |
|--------------------------------------------|-----------|---|
| 1-o'ramda-24 m chit<br>2-o'ramda-16 m chit | 10 m chit | ? |
|--------------------------------------------|-----------|---|

Yechish: 1)  $24+16=40$ m ikki to'pdagi chit.

2)  $40-10=30$ m qolgan chit Javob: To'pda 30 metr chit qolgan.

4-misol. Tengliklardan tengsizlikka doir misollar tuzib yechish.

$$20+7 < 29$$

$$8 \cdot 2 > 14$$

$$50-2 < 52$$

$$30-3 > 23$$

$$9:3 < 6$$

$$47+3 > 48$$

**4-bosqich. Yangi mavzuni mustahkamlash: Krossvord.**

|    |   |    |   |    |   |    |   |    |   |
|----|---|----|---|----|---|----|---|----|---|
|    |   |    |   |    |   |    |   |    |   |
|    |   |    |   | 2. |   |    |   |    |   |
|    |   |    |   | 14 |   |    |   |    |   |
|    |   |    |   | 13 |   |    |   |    |   |
|    |   |    |   |    |   | 4. |   |    |   |
|    |   |    |   |    |   | 25 |   |    |   |
|    |   |    |   |    |   | 16 |   |    |   |
| 12 | 1 | 19 | 4 | 12 | 1 | 19 | 8 | 10 | 1 |
|    |   |    |   | 3. |   |    |   |    |   |
|    |   |    |   | 20 |   |    |   |    |   |
|    |   |    |   |    |   | 27 |   |    |   |
|    |   |    |   | 19 |   |    |   |    |   |
|    |   |    |   | 8  |   |    |   |    |   |
|    |   |    |   | 18 |   |    |   |    |   |
|    |   |    |   | 11 |   |    |   |    |   |
|    |   |    |   | 8  |   |    |   |    |   |
|    |   |    |   | 16 |   |    |   |    |   |
|    |   |    |   | 1  |   |    |   |    |   |

Sehrli alfavit yordamida katakchalardagi sonlarni harflarga almashtirib, yashiringan so'zlarni topish.

|            |            |            |            |            |            |
|------------|------------|------------|------------|------------|------------|
| <b>A a</b> | <b>B b</b> | <b>D d</b> | <b>E e</b> | <b>F f</b> | <b>G g</b> |
| <b>1</b>   | <b>2</b>   | <b>3</b>   | <b>4</b>   | <b>5</b>   | <b>6</b>   |
| <b>H h</b> | <b>I i</b> | <b>J j</b> | <b>K k</b> | <b>L l</b> | <b>M m</b> |
| <b>7</b>   | <b>8</b>   | <b>9</b>   | <b>10</b>  | <b>11</b>  | <b>12</b>  |

|              |              |              |              |              |            |
|--------------|--------------|--------------|--------------|--------------|------------|
| <b>N n</b>   | <b>O o</b>   | <b>P p</b>   | <b>Q q</b>   | <b>R r</b>   | <b>S s</b> |
| <b>13</b>    | <b>14</b>    | <b>15</b>    | <b>16</b>    | <b>17</b>    | <b>18</b>  |
| <b>T t</b>   | <b>U u</b>   | <b>V v</b>   | <b>X x</b>   | <b>Y y</b>   | <b>Z z</b> |
| <b>19</b>    | <b>20</b>    | <b>21</b>    | <b>22</b>    | <b>23</b>    | <b>24</b>  |
| <b>O' o'</b> | <b>G' g'</b> | <b>Sh sh</b> | <b>Ch ch</b> | <b>Ng ng</b> |            |
| <b>25</b>    | <b>26</b>    | <b>27</b>    | <b>28</b>    | <b>29</b>    |            |

**Namuna:**  $6 \cdot 2 = 12$

$$4 : 4 = 1$$

$$15 + 4 = 19$$

$$16 : 4 = 4$$

$$3 \cdot 4 = 12$$

$$49 - 48 = 1$$

$$59 - 40 = 19$$

$$64 : 8 = 8$$

$$80 : 8 = 10$$

$$7 : 7 = 1$$

Misollarning javobini sehrli alfavitdan izlab topish.

1. Hisob-kitobni o'rgatadigan darslik. (matematika)
  2. Chiroyli va xatosiz yozishni o'rgatadigan darslik. (Ona tili)
  3. Kuylashni o'rgatadigan darslik. (Musiq)
  4. Qiziqarli ertak, hikoya va she'rlar yozilgan darslik. (O'qish)
- 5-bosqich. Baholash. Dars davomida faol qatnashgan o'quvchilar baholab rag'batlantiriladi.
- 6-bosqich. Uygatish vazifa: 5-masala, 6-misol.

### **BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARNI BILIM EGALLASHNING ASOSIY BOSQICHLARI.**

O'qitish kishilik jamiyatida uning ilk rivojlanish bosqichlarida paydo bo'ladi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari, katta yoshlarga taqlid qilib, ularning ish - harakatlarini, mehnat qurollarini yasash va ishlatish jarayonini takrorlashar, ularning xulq - atvoridan andoza olishardi, so'zlashuv terminlarini va ularning ma'nolarini eslab qolishardi.

O'qitish o'sib kelayotgan avlodga insoniyat tajribasining ayrim jihatlarini mehnat, madaniyat, fan, san'at, ahloq va boshqalarni o'zlashtirish imkoniyatini ta'min etadigan va maqsadga yo'naltirilgan jarayondir.

O'qitish dars o'tish va o'qishdan iborat ikki tomonlama jarayon sifatida.

O'qitish o'qituvchi bilan o'quvchining birgalikdagi faoliyati sifatida o'zaro bog'liq ikkita jarayonga-o'qituvchi faoliyati sifatida dars berishga va o'quvchining faoliyati sifatida o'qishga ajraladi.

Dars berish bir qancha jihatlardan: o'qituvchining o'z fanini bilishdan, o'quv - tarbiya jarayonini uyushtira olishdan, o'qitishning zamonaviy metodlarini egallab olishidan, boshlang'ich sinf o'quvchilarining aqliy rivojlanishini uning bilish imkoniyatlarini bilishdan, uning shaxsiy fazilatlarini shakllantirish yo'llarini bilishdan tarkib topadi. Dars berish va o'qish-maktabda yagona o'quv tarbiya jarayonining ikki jihatidir. O'quvchilar to'g'risida o'ylamasdan, ularning

aktivligiga, rivojlanishiga, imkoniyatlariga bilimi va malakasiga tayanmasdan o'qituvchilik faoliyatini amalga oshirib bo'lmaydi.

O'qitish kishi bilish faoliyatining bir turi sifatida.

O'qitish jarayonining mohiyati nima? Dars berish, bu o'qituvchi uchun tafakkur faoliyati hamdir. U boshlang'ich sinf o'quvchilarining ma'naviy dunyosini, uning qiziqishlarini, ehtiyojlarini, ishtiyoqini, imkoniyatlarini yildan - yilga tabora chuqurroq bila boradi.

Ammo har qanday bilish faoliyati ham o'qish va dars berishga taalluqli bo'lavermaydi. Masalan, bilishning fan, san'at, o'yin, mehnat kabi boshqa shakllari ham borki, odam ular orqali ham o'zini qurshab turgan olamni biladi.

O'qitish boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun ham, o'qituvchi uchun ham o'zini qurshab turgan olamni bilishning bir turi hisoblanadi. O'qitish bilish faoliyatining bir turi sifatida dastlabki bosqich bo'lib, butun o'quv faoliyatini ta'riflaydigan eng muhim belgisi hisoblanadi. O'qitish bilishning filosofiyada ochib beriladigan umumiy qonuniyatlariga asoslanadi.

Taqqoslanishtirish - har qanday tushunish va har qanday fikrlashning asosidir. Olamdagi hamma narsani biz taqqoslash orqali bilamiz va biror yangi narsa ro'para kelsa, uni biz biror narsaga tenglashtira olmasak, bunda biz shu narsa to'g'risida biror fikr hosil qila olmas edik va uning to'g'risida biror fikr ayta olimas edik, - degan edi mashhur rus pedagogi K.D.Ushinskiy. "Sezgilar beshta bo'lib,..." quloq bilan eshitish, ko'z bilan ko'rish, burun bilan hidlash, til bilan ta'tish va teri bilan tegizib bilishdan iboratdir... ilm va ma'rifat faqatgina o'shalar orqali hosil bo'ladi degan A.R.Beruniy.

Bilish jarayoni dialektikasini, fikrning bir bosqichdan ikkinchisi tomon harakatini ochib beradigan dialektik materializm bilish nazariyasi o'qitish jarayonining metodologik, falsafiy negizi hisoblanadi.

Dialektik materializm cheksiz dunyo moddiydir va adabiy harakatda, rivojlanishda, barcha hodisalarning, predmetlarining o'zaro bog'liqligidadir, deb ta'lim beradi.

Odamning bilishi qator bosqichlarda yuz beradi. Birinchidan; Oldiniga hissiy bilish ro'y beradi, u bolaning tevarak - atrofida yuz beradigan: hodisalar, voqealar, predmetlar to'g'risidagi tasavvurlarining rang - barangligiga olib keladi. Bu hissiy obrazlar qanchalik ko'proq darajada tizimlashtirsa va umumlashsa, bola maktabga shu qadar ko'proq darajada tayyorlangan bo'ladi.

Ikkinchi bosqich - mavhum bilish, tushunchalar tizimini egallab olish bosqichidir. Bunda maktabda o'qitish zarur bo'ladi. U o'zini qurshab turgan olamning ma'lum bir jihatlarini o'quv predmetlari (matematika, ximiya, fizika, tarix) mazmuni orqali o'rganadi. Son, ta'rif, ifoda tushunchalari paydo bo'ladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari bilishning konkrentlilikdan mavhumlikka o'tish bosqichini boshdan kechirayotgan bo'ladi. U fikrlashning tushuncha tarzidagi shaklini egallay boshlaydi. O'qituvchi bilishi ham tushuncha shaklida bo'ladi.

Bilishning oliy bosqichi va mavjud fikrlash negizida qurshab turgan olam haqida nuqtai nazarlar, e'tiqodlar, dunyoqarashlar shakllanishiga olib keluvchi umumlashgan tasavvurlar hosil qiladi.

Maktabdagi ta'lim bolani ilmiy bilimlar, tushunchalar, qonuniyatlar olamiga

olib kiradi. O'quvchi qisqa vaqtda insoniyat tarixida asrlar davomida o'rganilishi mumkin bo'lgan narsalarni bilib oladi. Masalan tilning gramatik shakllari, minglab yillar davomida tarkib topadi, o'quvchi esa ularni bir necha yillik o'qish jarayonidayoq o'rgana oladi.

Bilimlarni egallash bosqichlari. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv yordamida bilish faoliyatiga rahbarlik qilishga o'rgatish uchun o'quvchining bilimlarini egallashning asosiy bosqichlarini yaxshi bilishi kerak.

Birinchi bosqich - bu idrok etishdir. Shuning uchun ham o'quvchilarga avval mavzu haqida xabar berish, ya'ni ular oliygohda ham nimani o'rganajagini aytish zarur. Vazifa qo'yish va uni tushuntirish shart. So'ngra o'quvchilar o'qituvchi rahbarligida tayyorgarlik ishlarini bajaradi. U real yoki tasviri tushurilgan narsalar, hodisalar, vaziyatlarni kuzatishdan, sodda tajribalar o'tkazishdan iborat bo'ladi.

Ikkinchi bosqich - bu o'quv materiallarini idrok etish bosqichi hisoblanadi. U bilimlarning nazariy tomonini alohida ajratib ko'rsatishdan va tahlil qilishdan iboratdir. Asosiy fikrni topish, tushunchalarni ajratib ko'rsatish, ularning belgilarini asoslab berish, misollar va tushuntiruvchi faktlar yig'indisini o'rganish kerak.

Agar o'quvchilar o'quv vazifasini hal etish usullarini tushunib yetib va bilimlardagi tizimni anglab olgan bo'lsalar, u holda mazkur bosqichni o'tilgan deb hisoblash mumkin.

Uchinchi bosqich - bu yod olish (tushunish A.U) yoki mustahkamlashdir. Vazifa olingan bilimlarni uzoq vaqt davomida esda saqlab qolishdan iboratdir. Bu borada bilish faoliyati asosan mashqlar, mustaqil ravishda reproduktiv (so'zlab borish, tushuntirish) va ijodiy ish qilish tarzida yuz beradi. Nazariy material tushunchalari, qoidalar, isbotlar har xil mashqlarda takrorlanadi.

Uchunchi bosqich yakunida o'quvchilar nazariy materialni biladigan va uni mashqlarni bajarishda, masalalarni echishda, isbotlashda va hokazolarda qo'llay oladigan bo'lishlari kerak. Ularda o'quv ko'nikmalari va malakasi shakillangan bo'ladi.

To'rtinchi bosqich bilimlar, ko'nikma va malakalarni amaliy faoliyatda, ayniqsa maktab qoshidagi uchastkada, o'quv ustaxonalarida, laboratoriyalarda ishlatish chog'ida, mashinalarda ishlashga o'rganish jarayonida qo'llanishdan iboratdir.

Burxoniddin Zarnudji "O'quvchiga ta'lim yo'lida qo'llanma" asarida shunday g'oyani ilgari surgan:

"Har biringiz muruvvatni egallashga hayrixohlik bilan intiling, biroq bulardan



eng dolzarbi, bu kishilarda bilimlarni takrorlamoqdir”. Bilimga bo‘lgan qiziqish shuni talab etadiki, u (o‘quvchi) o‘qituvchisiga va o‘rganayotgan fani, kitobiga nisbatan to‘la qanoatli bo‘lsin, toki muvaffaqiyatsizlikni o‘zidan yiroqlashtirsin, bilimning maxsus bo‘limiga nisbatan ham shunday ish tutmoq kerak. Bularning aksi esa, o‘qituvchiga nisbatan nomunosiblikka, vaqtni yo‘qotishga mashg‘ulotlarning tartibsizligiga sabab bo‘ladi.

Bolaning o‘qish istagi bo‘lmasa, bizlarning butun rejalarimiz, izlanishlarimiz va mo‘ljallarimiz yer bilan yakson bo‘ladi.

Bunday xohish esa o‘qishdagi yutuq bilan birga hosil bo‘ladi... Bilim olishdagi muvaffaqiyatdan yuzaga keladigan ruhlanish bo‘lgan taqdirdagina o‘qishga qiziqish paydo bo‘ladi; ruhlanish bo‘lmasa, ta’lim bolalar uchun og‘ir yukka aylanib qoladi: - degan mashhur pedagog Suxomlinskiy.

O‘qishga havas, qiziqish uyg‘otish.

Agar hamma bolalar o‘z oldilariga qo‘yilgan vazifani udda qilishsa, bir - birlariga yordam bergan holda berilib, zavq - shavq bilan ishlasa, o‘tgan o‘quv kunidan ko‘ngillari to‘lib uyga qaytishsa va ertangi kunni sabrsizlik bilan kutsa, o‘qishga bo‘lgan havasi ortadi. Bu esa muallimlik mehnatining ham muvaffaqiyatlaridan biridir. Biz o‘qituvchilar, V.A.Suxomlinskiyning quyidagi so‘zlarini unitmasligimiz kerak: “Mehnatdagi muvaffaqiyat-bu muvaffaqiyat qozongan kishining faxri. O‘z mehnatidan faxrlanmaydigan haqiqiy insonning o‘zi yo‘q”, - “O‘qishdagi yutuq-bolalarga qiyinchiliklarni yengib o‘tadigan energiya, ta’lim olish istagini hosil qiladigan ichki kuchni beradigan yagona manba”.

O‘qishdagi muvaffaqiyatlar uchun kurashish - bolalarni o‘qishga o‘rgatish, har birini o‘z imkoniyatlariga ishonishga yordam berish, uyushqoqlik, mustaqillik mas‘uliyatlilik mehnat intizomini tarbiyalash demakdir.

Darsda barchaning o‘quv faolligini saqlab turish uchun esa o‘qituvchi o‘z o‘quvchilarini yaxshi bilishi, ularga e‘tiborli (mehribon) bo‘lishi, charchaganini



o‘z vaqtida payqashi, ish qobiliyatini saqlab qolish uchun diqqatini boshqa narsaga ko‘chirishi zarur. Yana bilim olish jarayonida ularga albatta ko‘maklashishi lozim: bolalar o‘z faoliyatini, o‘z o‘quv mehnatini o‘zlari tartibga solish yo‘llarini asta - sekin egallaydigan qilib

o‘qishga yetakchilik qilishi kerak.

Darsda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining bilish faolligini orttirish uchun ularning o‘rganadigan bilish sohasiga qiziqtirish va mustaqilligini rivojlantirish ta’limdagi asosiy muammodir. Bu muammoni amaliy hal etish uchun o‘quvchilarga xushmuomila, shirinso‘z, mehribon bo‘lish va bilishdagi harakatlarini qo‘llab-quvvatlash, kerakli ko‘nikmalarni shakllantirishga erishish hamda rag‘batlantirish usullaridan o‘rnida foydalanishi ta’limning samarali o‘zlashtirilishini ta’minlaydi. O‘qituvchi darsda qator didaktik muammolarni o‘z o‘rnida, vaqtida bajarishga erishishi ta’limning samarali o‘zlashtirishiga amaliy

yordam beradi. Masalan, avval o'quvchilarga ilmiy tushuncha, bilimlar berishni amalga oshirish keyinchalik esa shu bilimlarni harakatda, vazifani, topshiriqni, ishni bajarishga o'rgatib borishi va nihoyat hosil bo'lgan bilimlar asosida bajariladigan ishdagi harakatlar sifatini oshirishga intilishi darkor. Shundan keyingina o'quvchilarning bilishga bo'lgan faolligi va mustaqilligi tarkib topadi. Natijada boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilim olishga bo'lgan intilishi yanada rivojlantiriladi. Shuning uchun o'qituvchi birinchi muammoni to'g'ri hal etish bilan ikkinchi, uchinchi va boshqa muammolarni bosqichma-bosqich amalga oshirib borishi darkor. Bunday vaziyatda o'qituvchi o'quvchining bilim imkoniyatini muammoli ta'lim asosida tashkil etsa, ya'ni: yo'naltirsa, xatolarini ko'rsatsa, to'g'ri izlanish ma'qullasa uning bilishga bo'lgan faolligi va mustaqilligi yanada ortadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari mustaqil fikr yuritadi va aniq, to'g'ri xulosaga keladi.

## MAVZU: QUSHLAR BIZNING DO'STIMIZ

### Sinf: 2

### Fan: O'qish

|                                                                                                                                                             |                                                                         |                            |             |
|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------|----------------------------|-------------|
| <b>Mavzuga o'zgacha ta'rif:</b> Qushlar haqida o'ylar.                                                                                                      |                                                                         |                            |             |
| <b>O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi:</b>                                                                                                      |                                                                         |                            |             |
| <b>Metod:</b> Musobaqa, savol-javob                                                                                                                         |                                                                         |                            |             |
| <b>Shakl:</b> Guruhlarda ishlash                                                                                                                            |                                                                         |                            |             |
| <b>Dars jihozi:</b> Kompyuter, Qushlar tasvirlangan videoroliklar, qafaslarda qushlar, rasmlari, rag'bat kartochkalari (oqqush rasmi).                      |                                                                         |                            |             |
| <b>Nazorat:</b> Bolalarning dars davomidagi faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi                                                                       |                                                                         |                            |             |
| <b>Baholash:</b> Guruhlarni baholash, o'z-o'zini baholash                                                                                                   |                                                                         |                            |             |
| <b>Darsning maqsad va vazifalari</b>                                                                                                                        |                                                                         |                            |             |
| <b>Ta'limiy:</b> O'quvchilarga qushlar haqida, ularning hayot tarzi haqida tushuntirish.                                                                    |                                                                         |                            |             |
| <b>Tarbiyaviy:</b> O'quvchilarni tabiatga muhabbat ruhida tarbiyalash. Qushlarga g'amxo'rlik qilishga o'rgatish.                                            |                                                                         |                            |             |
| <b>Rivojlantiruvchi:</b> Qushlar haqidagi tasavvurlarni kengaytirish, ularning xalq xo'jaligidagi foydasi haqidagi bilimlarini rivojlantirish.              |                                                                         |                            |             |
| <b>Kutilayotgan natija</b>                                                                                                                                  |                                                                         |                            |             |
| Dars yakunida o'quvchilar qushlarning turlari, ularning qanchalik foydali ekanligini bilib oladilar. Qushlarga g'amxo'rlik qilish qoidalarini o'rganadilar. |                                                                         |                            |             |
| <b>Dars jarayoni va texnologiyasi:</b>                                                                                                                      |                                                                         |                            |             |
| <b>Ishning nomi</b>                                                                                                                                         | <b>Bajariladigan ish mazmuni</b>                                        | <b>Metod</b>               | <b>Vaqt</b> |
| 1-bosqich<br>Tashkiliy qism                                                                                                                                 | O'quvchilar davomati olinadi, sinfnings darsga tayyorligi tekshiriladi. | nazorat                    | 2 daqiqa    |
| 2-bosqich<br>Ehtiyojlarni aniqlash                                                                                                                          | O'quvchilarni guruhlariga bo'lish, guruhlarini nomlash                  | Qushlar rasmlari yordamida | 2 daqiqa    |
|                                                                                                                                                             | 1.O'tilgan mavzuni                                                      | Guruhlarda                 | 5 daqiqa    |

|                               |                                                                                                                                                                                               |                                                                                     |                                                              |
|-------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------|--------------------------------------------------------------|
| 3-bosqich<br>Darsning borishi | mustahlamlash.<br><br>2.Guruhlar o‘z nomini she’rda ifoda qiladilar.<br>3.Qiziqarli test savollari.<br>4.Topishmoqlarga javob topish.<br>5.Qushlar haqida nimalarni bilasiz?<br>6.Tez aytish. | ishlash<br>Guruhlar namoyishi<br>Amaliy ish<br>Amaliy ish<br>Amaliy ish<br>Musobaqa | 10 daqiqa<br><br>3 daqiqa<br>5daqiqa<br>7 daqiqa<br>5 daqiqa |
| 4-bosqich<br>Mustahkamlash    | Syujetli rasmlar ko‘rsatilib, mavzu mustahkamlanadi.                                                                                                                                          | Amaliy ish                                                                          | 2 daqiqa                                                     |
| 5-bosqich<br>Baholash         | Kartochkalar hisoblanib, g‘olib guruh aniqlanadi va rag‘batlantiriladi.                                                                                                                       | Amaliy ish                                                                          | 2 daqiqa                                                     |
| 6-bosqich<br>Uyga vazifa      | Qushlar bizning do‘stimiz mavzusida kichkina matn tuzish                                                                                                                                      | Tushuntirish                                                                        | 2 daqiqa                                                     |

### **Darsning borishi:**

Tashkiliy qism:

Qushlar to‘g‘risida o‘quvchilar bilan suhbat uyushtiriladi;

Aziz bolajonlar. Mana qish ham oxirlab qoldi. Kuzda janubga, issiq o‘lkalarga uchib ketgan qushlar yana o‘zlarining jonajon makonlariga qaytib kelishadi.

Barchamiz uchun sevimli bo‘lgan qanotli do‘stlarimiz o‘z polaponlarini parvarishlab, erta-yu kech tinim bilmay ovqat tashiydilar. Bu jonivorlar tabiatga qanchlar foyda keltirishlarini siz tasavvur ham qila olmaysiz. Bu qushlarning ayrimlari bilan siz tabiatshunoslik darslarida tanishgansiz. O‘qish darsimizda sizlar bilan „Qushlar bizning do‘stimiz” bo‘limini tugatdik. Bolajonlar, olgan bilimlarimizni sinab ko‘rish maqsadida, o‘zaro musobaqalashamiz.

Musobaqa 6 shartdan iborat bo‘ladi.

Bugungi darsimiz mavzusi qushlar haqida bo‘lganligi uchun har bir guruhga ular nomini qo‘yamiz.

1-guruh: **“Qaldirg‘och”**

2-guruh: **“Laylak”**

3-guruh: **“Xumo”**

4-guruh: **“Hakka”**

5-guruh: **“Turna”** nomi bilan ataladi.

Oldin **“Oltin qoidalarni”** yana bir bor takrorlab yodga tushurib olamiz.

1.Faol bo‘lish.

2.Fikrni to‘liq bayon etish.

3.Intizomli bo‘lish.

4.O‘zgalar fikrini tinglash.

5.Yangilik sari intilish.

6.Vaqtdan unumli foydalanish.

Oldin **“Yomg‘ir”** she‘rini o‘qish uchun o‘qish kitobini ochamiz.

**O'quvchilar:** O'qish kitob ochildi

Ko'zlarga nur sochildi

Xatcho'pni qo'lga olib

So'zlar ravon o'qildi.

Yomg'ir she'ri har guruhdan bir o'quvchiga o'qitiladi. Yaxshi o'qigan o'quvchilar oqqush bilan taqdirlanadi va o'z guruhidagi donxo'rakka yopishtiradi. Bundan keyingi yaxshi qatnashgan o'quvchilar ham oqqush bilan taqdirlanib boriladi.

### **I Shart:**

Har bir guruh o'z nomini she'rda ifoda qiladi va shu qush haqida qo'shiq kuylaydi.

### **1. Qaldirg'och guruhi:**

Qaldirg'och: Men qaldirg'och tez keldim

Shamol tolmay uchdim

Qanotim tolmay uchdim

Sizni sog'inib quchdim.

Men qaldirg'och g'och-g'och

Keldim eshik och- och.

Sayrayman sizga atab

Don-dun soching hovuchlab.

Bolalar qaldirg'ochga atab qo'shiq aytishadi:

Qushlar ichra a'losi


Bilimdonu donosi

Qaldirg'ochim, qaldirg'och.

Ko'ngillarim yayraydi

Qaldirg'ochim, qaldirg'och

Qaldirg'ochim, qaldirg'och.



### **2. Laylak guruhi**

Laylak: Sizlar sevgan laylakman

Yaxshilarga kerakman

Men yozning darakchisi

Fasllar yoriqchisi.

Men haqimda ertaklar

Yaxshilikka yetaklar

Aytishar ajoyib qo'shiq

Men haqimda ajib xo'p.

Bolalar qo'shiq kuylaydilar:

Laylak keldi yoz bo'ldi,

Qanoti qog'oz bo'ldi

Laylakvoyning kelishi

Bolalarga soz bo'ldi.



### **3.Xumo guruhi.**


Xumo: Ey mustaqil yurt bolasi. Ko'p yurtlar osmonidan uchin o'tdim.

Sening yurtning ertakdagi sehrli yurtlarga o'xshaydi. Shuning uchun diyoring gerbidan joy oldim. Gerbda men bilan birga paxta, bug'doy, oy va yulduzlar bor. Paxta milliy boylikni, bug'doy qut-barakani bildiradi. Men sen bilan birga qolaman.

Qo'shiq: Uchib kelgan xumo qush  
Ko'chib kelgan xumo qush  
Qushim xush kelibsan xush  
Xumo qush  
Xumo qush.  
Qushim xush kelibsan xush.

#### 4.Hakka guruhi.

Hakka: Men hakkaman, hakkaman  
Nafsimchi hakkalagan  
Kasbi korim o'g'rilik  
Men uchun bu to'g'rilik  
Iqbolimga, baxtinga,  
Yaxshiyamki, qishloq bor.  
Sora xolam pishirgan  
Savatchada pishloq bor.  
O'quvchilar qo'shiq kuylaydilar:  
Ola qanot hakkalar  
Shoxdan-shoxga qo'nasiz  
Chug'urchuqlab nimanidir  
Izlab topgan bo'lasiz.



#### 5.Turna guruhi.

Turna: Men turna birovga hech.  
Yomonligim yo'q aslo  
Hasharotlarni cho'qib,  
Yo'qotaman mutlaqo.  
Turnalar uchsa qaraylik  
Marg'ilonning yo'liga  
Hidi kelsa mast bo'laylik  
Handalakning bo'yiga.



#### 2-Shart:

#### Qiziqarli test savollari.

Har bir guruhga test savollari yozilgan qog'oz tarqataman. O'quvchilar kalitlarni belgilaydilar.

- 1.Qish faslida qaysi qushlar uchib keladi?  
a) Qarg'a                      b) Chumchuq                      d) Sa'va
- 2.Chiroyli xonish qiladigan qush qaysi javobda to'g'ri berilgan?  
a) Chumchuq                      b) Mayna                      d) Bulbul
- 3.Vatanimiz gerbida aks etgan qushning nomini toping?  
a) Semurg'                      b) Xumo                      d) Lochin

#### 3-shart:

**Qushlar haqida she'rlar aytib bering.**

1. Bahorda bog‘imizga  
Qaldirg‘och uchib keldi  
Yangi uy qurish uchun  
Butunlay ko‘chib keldi.
2. Tinchlik ramzi oq kaplar  
Sening Vataning-osmon  
Ozodsan, erk qushsan  
Uchib kel bizlar tomon
3. Boshga qo‘nding parvoz aylab,  
Yurt-u xalqim e‘zoz aylab  
Istiqloldan nishonasan  
Yarqiragan peshonasan  
Samo qushim, ziyo qushim  
A‘lo qushim, Xumo qushim
4. Jon bulbulim, bulbulim,  
Bog‘da ochilgan gulim.  
Senga quchoq ochaman  
Gullarimdan beraman
5. Turnalar, hoy turnalar,  
Pastlab uchingiz  
Bizning ko‘l va daryolar  
Bag‘rin quchingiz.

#### 4-shart:

##### Topqirlik bahsi.

Guruhlarga topishmoqlar aytiladi. O‘quvchilar jo‘r bo‘lib javobini topadilar.

1. Ko‘rinmaydi kunduzi  
Tunda uchar qush o‘zi. (**ko‘rshapalak**)
2. Bir qushchani qilsam tanqid.  
Qarang menga qilar taqlid. (**To‘ti**)
3. Bir qushim bor jon zotini  
O‘zi aytar o‘z otini. (**kakku**)
4. Kasbi doim taqir- tuqur  
Qayda ilon ko‘rsa cho‘qir. (**Laylak**)
5. Gul ustida usta ashulachi. (**Bulbul**)

#### V. Shart

##### Qushlar haqida nimalarni bilasiz?

I. Hozirgi kunda O‘zbekistonimizda **qushlarning** 410 dan ziyod turi mavjud.

II. **Qaldirg‘ochlar** uylarning peshtoqlariga, ayvonlarga in quradilar. Uy egalari bu qushni xosiyatli bilishib, qaldirg‘ochlarga sirayam ozor berishmaydi.

III. Siz dunyoda eng ko‘p tarqalgan qushning nomini bilasizmi? Bu hammamiz uyimizda boqadigan- **tovuqlar** ekan.

Olimlar qanchalik harakat qilishmasin, ularning sonini aniqlay olishmabdi.

Ikkinchi o'rinni **chumchuqlar**, uchinchi o'rinni **kaptarlar** egallasharkan.

IV. **Hakkalarga** o'xshagan ayyor qushlarimiz ham bor. Lekin biz ularni juda yomon deya olmaymiz. Boisi, ularning ham qishloq xo'jaligida foydali tomonlari yo'q emas.

V. Qadimda odamlar maktubni yetkazib berishda **kabutarlardan** foydalanishgan ekanlar. Bu qushlar odamlarga katta yordam berishgan.

#### VI. Shart:

##### Tez aytish

Bulturgi burgutni bugun Urgutda ko'rdim.

Har guruhdan bir o'quvchi chiqib, shartni baj'radi. Shartni yaxshi bajargan o'quvchilar rag'batlantiriladi. Guruhlarning rag'batlari hisoblanib, g'olib guruh aniqlanadi.

#### VII Shart:

Rasmda ko'rsatilgan qushlarni nomini topib kataklarni to'ldiring

1

2

3



4

5

6

7



8


9

10

11



12




13



14



15



**Uyga vazifa:** Qushlar-bizning do'stimiz. Mavzusida kichik matn tuzib kelish. Dars yakunida o'quvchilar qushlar haqida qo'shiq kuylaydilar:

Salom, do'stlarim, salom qushlarim  
Ko'rib quvondim uchganingizni

**O‘quvchi bola:** Ko‘knng erkasi uchar qushlarim  
Go‘zal shamolni quchganingizni  
Go‘yo marjonday  
Tizilasiz xo‘p  
Biling qushlarim  
Do‘stlaringiz ko‘p.

**O‘quvchi qiz:** Parvoz qilgan qushchalarim  
Sizga kelar havasim  
Yayrab uching, sayrab uching  
Sizga yo‘qdir qafasim!  
Qafas ichra yashamoq ne?  
Juda yaxshi bilamiz.  
Donlar sepay kelaqoling  
Qanot qoqib terasiz.

**O‘quvchi bola:** Sabo bilan o‘ynaysiz  
Shiringina so‘ylaysiz  
Tinchlik tilab olamga  
Dilingizdan kuylaysiz.

**Hamma:** Bog‘u- rog‘lar yaratamiz  
Sizlar makon quringiz.  
Go‘zal yurtim quchog‘ida  
Doim omon bo‘lingiz!

### **MAVZU: OTA-ONA HAQINI BILMAK ZIKRIDA.** (Kaykovus)

**Sinf:** 4

**Fan:** O‘qish

**Vaqt:** 45 daqiqa

|                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                      |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>Mavzuga qisqacha ta’rif:</b> Mavzu ota- onani hurmat qilish, ularning ko‘ngliga qarash haqida o‘quvchiga pand- nasihat tarzida yozilgan.                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                          |
| <b>O‘quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi:</b><br><b>Dars metod:</b> Suhbat, savol-javob<br><b>Dars turi:</b> Yangi bilim berish<br><b>Dars jihozi:</b> Kompyuter, Ota- onalar tasvirlangan videoroliklar, ota- onalar rasmlari, o‘tilgan darsga taalluqli rasmlar. She’rlar, rivoyatlar, hadislar, sahna ko‘rinishlari, rag‘bat kartochkalari<br><b>Boshqa fanlar bilan aloqadorligi:</b> Odobnoma, ona tili, musiqa, mehnat, tabiat.<br><b>Nazorat:</b> Bolalarning dars davomidagi faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi<br><b>Baholash:</b> O‘quvchilar dars davomidagi faolligiga ko‘ra baholanadi. |
| <b>Darsning maqsad va vazifalari</b>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                 |
| <b>Ta’limiy:</b> 1.O‘quvchilarga ota - onaning aziz va qadrli ekanligini tushuntirish.<br><b>Tarbiyaviy:</b> O‘quvchilarni ota- onaga muhabbat ruhida tarbiyalash. Ularni ota- onani hurmatlashga, e’zozlashga o‘rgatish..<br><b>Rivojlantiruvchi:</b> To‘g‘ri va ravon o‘qish ko‘nikmalarini shakllantirish                                                                                                                                                                                                                                                                                                         |
| <b>Kutilayotgan natija</b>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                           |

|                                                                                                                                                                                                                                               |                                                                         |                  |             |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------|------------------|-------------|
| Dars yakunida o‘quvchilar ota-onamiz biz uchun har narsaga tayyorligini, ularning qanchalik aziz ekanligini bilib oladilar. Ota- onamizga g‘amxo‘rlik qilish burchimiz ekanligini anglaydilar va g‘amxo‘rlik qilish qoidalarini o‘rganadilar. |                                                                         |                  |             |
| <b>Dars jarayoni va texnologiyasi:</b>                                                                                                                                                                                                        |                                                                         |                  |             |
| <b>Ishning nomi</b>                                                                                                                                                                                                                           | <b>Bajariladigan ish mazmuni</b>                                        | <b>Metod</b>     | <b>Vaqt</b> |
| 1-bosqich<br>Tashkiliy qism                                                                                                                                                                                                                   | O‘quvchilar davomati olinadi, sinfnig darsga tayyorligi tekshiriladi.   | nazorat          | 2 daqiqa    |
| 2-bosqich<br>Ehtiyojlarni aniqlash                                                                                                                                                                                                            | O‘quvchilarning DTS ga ko‘ra BKM tekshiriladi.                          | Savol- javob     | 2 daqiqa    |
| 3-bosqich<br>Darsning borishi                                                                                                                                                                                                                 | 1.O‘tilgan mavzuni mustahamlash.                                        | Sahna ko‘rinishi | 5 daqiqa    |
|                                                                                                                                                                                                                                               | 2.Maqollar                                                              | Amaliy ish       | 5 daqiqa    |
|                                                                                                                                                                                                                                               | 3.Yangi mavzu bayoni                                                    | Tushuntirish     | 3 daqiqa    |
|                                                                                                                                                                                                                                               | 4.Ota- onalar haqida she‘rlar                                           | Amaliy ish       | 5daqiqa     |
|                                                                                                                                                                                                                                               | 5.Mavzuni o‘qish                                                        | Amaliy ish       | 7 daqiqa    |
|                                                                                                                                                                                                                                               | 6.Sahna ko‘rinishi                                                      | Amaliy ish       | 5 daqiqa    |
|                                                                                                                                                                                                                                               | 7.Sinkveyn                                                              | Amaliy ish       | 5daqiqa     |
| 4-bosqich<br>Mustahkamlash                                                                                                                                                                                                                    | Syujetli rasmlar ko‘rsatilib, mavzu mustahkamlanadi.                    | Amaliy ish       | 2 daqiqa    |
| 5-bosqich<br>Baholash                                                                                                                                                                                                                         | Darsdagi faolligiga ko‘ra o‘quvchilar baholanadi va rag‘batlantiriladi. | Amaliy ish       | 2 daqiqa    |
| 6-bosqich<br>Uyga vazifa                                                                                                                                                                                                                      | „Ota-onam suyanchig‘im” mavzusida insho yozish.                         | Tushuntirish     | 2 daqiqa    |

### **Darsning borishi:**

**O‘quvchi:** Har tong ertalab turib,  
Boramiz maktab tomon  
Bizlar ilmga chanqoq  
Ustozimiz mehribon  
Qo‘limiz ko‘ksimizda

**Hamma:** Assalomu alaykum.

**O‘qituvchi:** Qalam tutgan nozikkina  
Qo‘lingizdan o‘rgilay  
Mehr bilan boqib turgan  
Ko‘zingizdan o‘rgilay  
Sizni juda sog‘inaman  
Tongni intiq kutaman  
Meni moyday erituvchi  
So‘zingizdan o‘rgilay  
Vaalaykum assalom, bolajonlarim.  
Meni jajji qaqajonlarim.

Kimdir bugun navbatchi?  
Yo‘qlamani beringchi. (Yo‘qlama beriladi).  
Bolajonlar hozir biz  
Qaysi darsni o‘tamiz?

**O‘quvchilar:** Hozir darsimiz o‘qish  
O‘qiganlarni uqish  
Kerakdir ko‘proq bilim  
Bilim olishchun –chidam.

**O‘qituvchi:** Barakalla bolajonlarim! So‘zi a’lo qaqajonlarim. Aytingchi, D.T.S talabiga ko‘ra, nimalarni bilish kerak o‘qish fanidan?

**O‘quvchilar:**

- Biz bir daqiqada 80-90 ta so‘zni o‘qiy olishimiz kerak.
- Ravon, chiroyli, xatosiz o‘qishimiz kerak.
- O‘z o‘qiganlarimizdan xulosa chiqarib, fikrimizni aniq bayon qila olishimiz kerak.

Mana, bolajonlarim. Darsimizni ham boshlab oldik. Endi menga aytingchi, o‘tgan darsimizda qaysi mavzuni o‘tgan edik?

**O‘quvchi:** Biz o‘tgan darsimizda Aziz Abdurazzoqning „Chumchuq bilan chumoli“ ertagini o‘tgan edik.

**O‘qituvchi:** Kim menga ertak mazmunini gapirib beradi?

**O‘quvchi:** Ustoz, agar ruhsat bersangiz, ertakni sahna ko‘rinishi qilib, rollarga bo‘lib ko‘rsatsak.

**O‘qituvchi:** Shunaqami, mayli bolajonlar. Qani kimlar bajaradi (o‘quvchilar o‘tilgan mavzuni sahna ko‘rinishi qilib, rollarga bo‘lib bajaradilar)

**Sahna ko‘rinishi.** Bug‘doyni ko‘tarib borayotgan chumolining oldiga chumchuq uchub keladi.



**Chumchuq:** Bug‘doyni menga ber.

**Chumoli:** Nega? Kap-katta bo‘lib, mendan bug‘doy so‘ragani uyalmaysanmi? O‘zing topib yesang bo‘lmaydimi?

**Chumchuq:** Kun isib ketdi. Hech qayerga borgim kemayapti.

**Chumoli:** Shuni ertalab salqinda o‘ylamadingmi? Don kerak bo‘lsa, izlab top. Axir qanoting bor. Agar mening qanotim bo‘lganida, ming chaqrim joyga ham erinmay borib kelar edim.

**Chumchuq:** Qanot menga don izlash uchun emas, mushukdan saqlanish uchun

berilgan. Bo‘lmasa xirmonga borib, topib kelardim. Lekin u yerda mushuk bor. Qo‘rqaman meni yeb qo‘yadi.

**Chumoli:** Nega mushuk seni yeydi-yu, meni yemaydi?

**Chumchuq:** Gapingni qarayu, mushuk seni boshiga uradimi? Sening go‘shing oz. Buning ustiga achchiqsan.

**Chumoli:** Menga o‘xshab mehnat qilganingda, sen ham terlab achchiq bo‘lib qolar eding. Aslida seni o‘zing shirin emassan, joning shirin (shu payt bitta mushuk paydo bo‘ladi-yu, chumchuqni ushlab oladi).

**Chumchuq:** Voy, chumolijon, meni qutqar. Mushukni chaqib ol (mushuk chumchuqni olib chiqib ketadi).

**Chumoli:** Ey nodon chumchuq. Mushuk seni yeydigan bo‘lsa, bu yerdan ham topar ekanku. Sen xirmonga borishdan qo‘rqib o‘tiribsana.

**O‘qituvchi:** Barakalla, bolajonlar! Siz ushbu sahna ko‘rinishini ko‘rib, qanday xulosa chiqardingiz? (O‘quvchilar javob beradilar). Kim mehnat haqida maqollar aytib beradi?

**O‘quvchilar:**

- Mehnat qilsang rohat ko‘rasan.
- Mehnat-mehnatning tagi rohat.
- Mehnatdan kelsa boylik, turmush bo‘lar chiroylik.
- Mehnatdan qochma, sog‘likdan kechma.

Barakalla bolajonlar. Siz o‘tilgan darsimizni yaxshi o‘zlashtirib olibsiz. Meni juda quvontirdingiz. Men bugungi darsimiz uchun faqat rag‘bat kartochkasi tayyorlab qo‘yganman. Ishonamanki, jarima kartochkalari kerak bo‘lmaydi.

-Bolajonlarim, endi menga aytingchi, biz uchun eng mo‘tabar zot kim?

**O‘quvchilar:** Otamiz-onamiz.

**O‘qituvchi:** Kim biz uchun jonin berishga ham tayyor?

**O‘quvchilar:** Otamiz-onamiz.

**O‘qituvchi:** O‘zi yemay yedirgan, o‘zi kiymay kiydirgan kishilar kim?

**O‘quvchilar:** Otamiz-onamiz

Juda to‘g‘ri aytdingiz, bolajonlar. Biz uchun eng qadrli bo‘lgan kishilar otalarimizdir. Ular bizni tarbiyalab, voyaga yetkazdilar. O‘zlari yemay yediradilar kiymay kiydiradilar. Bizga bo‘lgan mehr-muhabbatlari cheksizdir.



Bu haqda juda ko‘p asarlar yozilgan. Hozir biz shunday asarlardan biri bo‘lgan Kaykovushning “Ota va ona haqini bilmak zikrida” asarini o‘qib o‘rganamiz. Oldin Kaykovus haqida gaplashib olsak.( O‘qituvchi muallif haqida gapirib beradi.) Endi kim menga ota-onalar haqida she’r aytib beradi.

**O‘quvchi:**

Ota-ona ikki so‘z  
Biri qoshu, biri ko‘z  
Bir-biridan himmatli  
Mehri daryo himmatli  
Ular aslo o‘zinmas  
Farzandi sog‘ bo‘lsa bas  
Farzandi deb tomdan tashlar  
Ular qo‘sha chinorlar  
Hammasiga chidarlar

**O‘quvchi:**

Mehr nuri bergan  
Onajonim bor bo‘ling  
Qalbimga ziyo sochgan  
Otajonim bor bo‘ling  
Siz borsizki mag‘urman  
Sizsiz kunlarim zulmat  
Yurakda mangu so‘zim  
Boringizga ming rahmat!  
Balli bolajonlar!  
Endi o‘qish kitobin ochsak  
Ma’no nurlarin tersak.

**O‘quvchilar:**

O‘qish kitobi ochildi  
Ko‘zlarga nur sochildi  
Xatcho‘pni qo‘lga olib  
Mavzu ravon O‘g‘ildi.  
(Asar bo‘lib o‘quvchilarga o‘qitiladi. Mazmuni so‘raladi. Bolalar javob beradilar.)  
Lug‘at bilan ishlash.

Hadisi sharflarda avvalo onagga, yana onagga va yana onagga, so‘ng otangga yaxshilik qil-deb yozilgan. Biz ham avvalo onalarimiz haqida gaplashib olsak. Hozir arman xalq rivoyatini eshitib ko‘raylik.

**O‘quvchi:**

**“ONA YURAGI”**

Qadim bir rivoyatni  
So‘zlab beray men sizga:  
Onaning yolg‘iz o‘g‘li  
Oshiq ekan bir qizga  
Qiz yigitga aytibdi

-Chindan sevmaysan meni!  
Sevsang-bor, sug'irib kel  
Onangning yuragin!  
So'ng yigit toqqa borib  
Buguni o'ldiribdi  
Yuragini sug'irib  
Qizga tez keltiribdi  
Qiz battar tutaqibdi  
Ko'zinga ko'rinmagin  
Olib kelmaguningcha  
O'z onang yuragin!  
So'ng onasin o'ldiribdi  
Yuragin qo'lga olib  
Yigit chopib borarkan  
Yiqilibdi qoqilib  
Giryon ona yuragi  
Tilga kiribdi shu dam  
-Voy qattiq tushunmadingmi

Bechora bolaginam !

Ko'rdingizlarmi bolalar, onalar hatto o'g'li uning jonini sug'ursa ham, farzandini o'ylaydi. Ular haqida qayg'uradi.

**O'quvchi:**

Imkon topa olsang dunyoda agar  
Eng avval onangga yaxshilik qilgil  
Bu xikmat sharxini o'yladim uzoq  
Rostdan ona erur qiblayi olam  
Garchi barchamiz ham padarmiz, biroq  
Onadan tug'ulgan Payg'ambarlar ham

**O'quvchi:**

Onalar bor-jaxon nurxonadir  
Onalar bor-kuylasang dil qonadir  
Farzand uchun kim quvonib yonadir  
Onadir ul, onadir ul, onadir

Ha, onalarni qancha e'zozlasak ham kamdir. Hozir hammamiz birgalikda onalar haqidagi qo'shig'imizni kuylasak.

**Hamma:**

Sir oromijon ekansiz  
Bir tanu, bir jon ekansiz  
G'amxo'rimiz siz onalar  
Qalb qo'rimiz siz onalar.

Onalar bilan yelkama-yelka turib, mehnat qilayotgan, biz uchun o'zini o'tga-cho'qqa urayotgan yana bir kishi bor. Bu kim?

**O'quvchilar:** Otamiz

Ha, otalar bizning suyanan tog'imizdir. Hammamiz birgalikda bitta sagna ko'rinishini tomosha qilsak.

## SAHNA KO'RINISHI

**O'g'il:** Ota, men sizni tashlab kelish uchun olib kelayotgan bo'lsam, siz bo'lsangiz yig'lash o'rniga kulasiz.

**Ota:** O'g'lim bir vaqlar men ham otamni tashlab kelish uchun olib ketayotganimda, shu xarsangtosh ustiga otamni qo'yib, dam olgan edim.

**O'g'il:** Ota, bo'lmasa mani ham o'g'lim o'sha yerga olib borib tashlaydimi?

**Ota:** O'g'lim, bu dunyo qaytar dunyo ekan. Sen otangga nima qilsang, o'g'lingdan qaytar ekan.

**O'g'il:** Otajon! Meni kechiring. Sizni uyga qaytarib olib ketaman. Bir umr xizimatingizni qilaman. Faqat meni kechirsangiz bo'ldi (O'g'il otasini ko'tarib, iziga qaytib ketadi).

**Hamma:**

Sen otangga har na qilding yaxshilik  
Kut bolangdan yaxshilikkka yaxshilik

**O'quvchi:**

Hayotda o'rnini topolmas zinhor  
Kimki o'z otasin qilar ekan xor  
Kun o'tib farzandi aylar uni xor  
Ota hurmatini qilmasa o'g'il.

**O'quvchi:**

Usiz kechgan umr firoqqa o'xshar  
Yoinki bir zumlik chaqmoqqa o'xshar  
Xatto yaqin yo'li yiroqqa o'xshar  
Ota panohida bo'lmasa o'g'il

**O'quvchi:**

Dengiz marvaridin yiqqanda butun  
Yuztadan yuztasi chiqqanmi butun  
Biridan boshqasi bo'lolmas ustun  
Ota nazariga tushmasa o'gil

**O'quvchi:**

Hayotda mustaqil qo'yolmas qadam  
Agarda kishida bo'lmasa chidam  
Ko'zlagan maqsadga yetolmas hech ham  
Ota duosini olmasa o'g'il

**O'quvchi:**

Tarixda hech bir zot va na bir has  
Ustozsiz olamni zabt etolganmas  
Qobil farzand degan nomni ololmas  
Ota yurgan yo'ldan yurmasa o'g'il

### **O'quvchi:**

Zamin o'z o'qida aylanar har on  
Agar chiqib ketsa, bo'ladi vayron  
Avvalo shuni bil, bo'larkan sarson  
Hamma: Ota nasihatini olmasa o'g'il

Ota oila suyanchig'i. Ota oilaning ishongan tog'i. Otalar farzandi uchun har qanday jasoratga tayyordirlar. Shox va shoir bobokolanimiz Bobur Mirzoning o'z farzandiga bo'lgan mehri o'g'li Humoyunga kelgan kasallikni o'ziga chaqirishida namoyon bo'ladi.

**Bobur: (o'quvchi)** men Humoyunga jaxondagi barcha olmoslardan ham azizroq bir narsamni qurbon qilmoqchiman.

Humoyun, jigarbandim! Sening shu og'ir dardingni xudo sendan olib menga bersin!

Ey parvardigorim! Menki Boburmen! Agar jon berish mumkin bo'lsa, umru jonimni Humoyunga qurbon qildim! Azroil meni jonimni olsin-u, xudo Humoyunga shifo bersin!

Ana, otalar mehri nimalarga qodir! Bir farzandlar ham otalarimiz mehriga mehr bilan javob berishimiz kerak. Kecha sizlarga uyga vazifa qilib, ota-onalar haqidagi hadislardan, maqollardan yodlab kelishni topshirgan edim. Yod oldingizlarmi?

### **O'quvchi: Ha**

Bo'lmasa eshitamiz. Odomzodning birinchi tarbiyachilari onalardir. Ona yartuvchi, ona himoya qiluvchi zot. Ona xatto yuragi urishdan to'xtaganda ham farzandiga yaxshilik qilaveradi.


### **SINKVEYN**


1. Bitta so'z ot
2. Ikkita so'z sifat
3. Uchta so'z fe'l
4. I qatorga nisbatan xis-hayojon
5. I qatorning sinonimi

O'quvchilar ota va ona so'ziga qofiyalanmagan she'r yozadilar. Bolajonlar, aytinglarchi, ona –ota aziz dedingiz. Biz uchun yana ota-onadek aziz nima bor?

### **O'quvchilar: vatan, suv, non va.....**

Hozir sizlar bilan musobaqa o'ynaymiz. Har qator bir guruh bo'ladi. Sizlar "Klaster" usulida Vatan, Ona, Ota so'zlariga ta'rif berishlaringiz kerak (har bir guruh o'ziga berilgan so'zga ta'rif beradilar)





O'quvchilar rag'batlantiriladi.

Bir o'quvchi: "Kim onasini juda yaxshi ko'radi" she'rini aytib beradi.

**Aziz bolajonlar!** Mana ota-onalar haqida sizlar bnilan gaplashib oldik.

Xo'sh bolalar, siz ota-onangizga qanday yordam berasizlar? ( O'quvchilar javob beradilar)

Ha bolalar, ota-onangizga qarashing. Ular sizni chaqirsa „Labbay” deb javob bering. Ish buyursa „Xo'p bo'ladi” deng.

Zinhor ularni ranjitmang. Siz ularni kelgusida boqish uchun yaxshi o'qishingiz, biror bir kasbni egallashingiz kerak. Ota-ona rozi-xudo rozi, deb bejiz aytilmagan.

**O'quvchi:**

Ota-onang sog' bo'lsa  
Dunyo turguncha tur  
Farzandlarin kamolin  
Baxtin, rohatin ko'rsa

Mehr berib erkalab  
Katta qildi bizlarni  
Duo qilib avaylab  
Boqdi o'g'il-qizlarni

Saog'lik bersin, baxt bersin  
Umr bersin Ollohim!  
Baxtimizga hamisha  
Omon bo'lsin ilohim!

Ha! Ota-onamiz hamisha omon bo'lsin! Biz keksalar hurmatini qilishdan charchamaylik.

**Hamma:**

Keksalar-avlodimiz, shonimiz, shvkatimiz  
Ishimizda boshu-qosh ulug' dir savlatimiz.  
(Darsda yaxshi qatnashgan o'quvchilar baholanadi)

**Uyga vazifa:**

„Ota-onam suyanchig'im" mavzusida insho yozish.

**Mavzu: V harfini mustahkamlash**

**Aka-singil suhbat**

|                                                                                                                                                                                                                  |                                                                        |                        |             |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------|------------------------|-------------|
| <b>Mavzuga o'zgacha ta'rif:</b> Singil akasiga savol beradi: Vatan nima? Akasi singlisiga o'z bilganich tushuntiradi....                                                                                         |                                                                        |                        |             |
| <b>O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi:</b>                                                                                                                                                           |                                                                        |                        |             |
| <b>Metod:</b> Musobaqa, savol-javob                                                                                                                                                                              |                                                                        |                        |             |
| <b>Shakl:</b> Guruhlarda ishlash                                                                                                                                                                                 |                                                                        |                        |             |
| <b>Dars jihozi:</b> Kompyuter,Vatanimiz tasvirlangan videoroliklar, Vatanimizdagi muhtasham binolar rasmlari, klaster topshiriqlar, so'zlar yozilgan kartochkalar, rag'batlantiruvchi kartochkalar.              |                                                                        |                        |             |
| <b>Nazorat:</b> Bolalarning dars davomidagi faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi                                                                                                                            |                                                                        |                        |             |
| <b>Baholash:</b> Guruhlarni baholash, o'z-o'zini baholash                                                                                                                                                        |                                                                        |                        |             |
| <b>Darsning maqsad va vazifalari</b>                                                                                                                                                                             |                                                                        |                        |             |
| <b>Ta'limiy:</b> Vatan haqida tushuncha hosil qilish.                                                                                                                                                            |                                                                        |                        |             |
| <b>Tarbiyaviy:</b> Vatanga e'tiqod, sadoqat, muhabbat hissini tarbiyalash.                                                                                                                                       |                                                                        |                        |             |
| <b>Rivojlantiruvchi:</b> Vatan haqidagi tasavvurlarini kengaytirish.Erkin fikrlashga o'rgatish.To'g'ri va ravon o'qish ko'nikmalarini rivojlantirish.                                                            |                                                                        |                        |             |
| <b>Kutilayotgan natija</b>                                                                                                                                                                                       |                                                                        |                        |             |
| Dars yakunida o'quvchilar Vatan oiladan boshlanishi,maktab- ikkinchi uyimiz ekanligini, mahalla- vatanning kichik bo'g'ini, ekanligini bilib oladilar. Vatanga munosib farzand bo'lish qoidalarini o'rganadilar. |                                                                        |                        |             |
| <b>Dars jarayoni va texnologiyasi:</b>                                                                                                                                                                           |                                                                        |                        |             |
| <b>Ishning nomi</b>                                                                                                                                                                                              | <b>Bajariladigan ish mazmuni</b>                                       | <b>Metod</b>           | <b>Vaqt</b> |
| 1-bosqich<br>Tashkiliy qism                                                                                                                                                                                      | O'quvchilar davomati olinadi, sinfning darsga tayyorligi tekshiriladi. | nazorat                | 2 daqiqa    |
| 2-bosqich<br>Ehtiyojlarni aniqlash                                                                                                                                                                               | O'quvchilarni guruhlariga bo'lish, guruhlarini nomlash                 | Topishmoqlar yordamida | 2 daqiqa    |
|                                                                                                                                                                                                                  | 1.Guruhlar o'z nomini she'rda ifoda qiladilar.                         | Guruhlar namoyishi     | 5 daqiqa    |
|                                                                                                                                                                                                                  | 2.O'tilgan mavzuni mustahkamlash.                                      | Amaliy ish             | 5 daqiqa    |
|                                                                                                                                                                                                                  | 3.Vatanim she'rini yod aytirish                                        | Amaliy ish             | 5 daqiqa    |
|                                                                                                                                                                                                                  | 4.Yangi mavzu bayoni                                                   | Tushuntirish           | 3 daqiqa    |

|                                  |                                                                            |                                        |                                  |
|----------------------------------|----------------------------------------------------------------------------|----------------------------------------|----------------------------------|
| 3-bosqich<br>Darsning<br>borishi | 5.O'quvchilarga o'qitish<br>6.Klasterni topshiriqlar<br>7."Darvoza" o'yini | Amaliy ish<br>Amaliy ish<br>Amaliy ish | 7 daqiqa<br>5 daqiqa<br>5 daqiqa |
| 4-bosqich<br>Mustahkamlash       | Syujetli rasmlar ko'rsatilib, mavzu mustahkamlanadi.                       | Amaliy ish                             | 2 daqiqa                         |
| 5-bosqich<br>Baholash            | Kartochkalar hisoblanib, g'olib guruh aniqlanadi va rag'batlantiriladi.    | Amaliy ish                             | 2 daqiqa                         |
| 6-bosqich<br>Uyga vazifa         | Mavzuni o'qib Vatan haqida she'r yodlash.                                  | Tushuntirish                           | 2 daqiqa                         |

### **Darsning borishi:**

O'quvchilar bilan salomlashib, yo'qlama qilish, o'quvchilarni guruhlariga bo'lish.

Bolajonlar, har bir guruhga nom tanlashimiz kerak. Hozir men sizlarga topishmoq aytaman, siz javobini topasiz. Topishmoqning javobidan guruhingiz nomi kelib chiqadi.

**O'qituvchi:** Toppingchi uning nomin,  
Sichqonning berar dodin.

**O'quvchilar:** Mushukcha.

**O'qituvchi:** Demak I guruhimizning nomi **Mushukcha**.  
O'zi mushukka o'xshar  
Chopishda undan chaqqon.  
Sabzi uning taomi  
Nimadir uning nomi?

**O'quvchilar:** Quyoncha.

**O'qituvchi:** Demak, II guruhimizning nomi **Quyoncha** bo'ladi.



U aslida parranda  
Suvni juda xush ko'rar  
To'g'ri javobni ayting  
Nima ekan? Tez toping.

**O'quvchilar:** O'rdakcha

**O'qituvchi:** Demak, III guruhimizning nomi **O'rdakcha**. Har bir guruh shartlar bo'yicha bellashadilar. G'oliblar rag'bat kartochkalari bilan rag'batlantirilib boriladi.



**1-shart:** Har bir guruh o'z nomidan kelib chiqib biron harakat qilib berishi kerak.

**Mushukcha guruhi:**

Mushugim meni baroq  
Oyoqlari oq, yumshoq  
Ko'rpachada yotadi  
Rosa xurрак otadi.

**O'quvchilar:** Xurrr, xurrr, xurrr.

**Quyoncha guruhi:**

Oq quyonim alomat  
Otini qo'ydim Salomat  
Dikir-dikir sakraydi  
Uychasida o'ynaydi.

O'quvchilar quyonchadek sakraydilar.

**O'rdakcha guruhi:**

O'rdakchalar nima deydi?  
G'oq, g'oq, g'oq  
O'rdakchalar nima yeydi?  
Chuvalchang-u chig'anoq  
Ular suvda suzadimi?  
Ha, ha, ha  
Suvni yaxshi ko'radimi?  
Ha, ha, ha.  
O'quvchilar rag'batlantiriladi.

**2-shart:** O'tilgan mavzuni mustahkamlash

V harfli so'zlarni o'qish.

O'quvchilarga **Vatan, vodiy, tovus, tovuq, Navoiy, Gavhar, Vohid, Mavjuda** so'zlari o'qitiladi. Yaxshi o'qigan o'quvchilar rag'batlantiriladi.


**3-shart.**

**"Vatanim"** she'rini yod aytish. She'rni ifodali aytgan o'quvchilar rag'batlantiriladi.

**Yangi mavzu:**

O'qituvchi Vatan haqida gapirib, mavzuni qisqacha tushuntiradi **"Aka-singil suhbat"** matni o'quvchilarga o'qitiladi. Yaxshi o'qigan o'quvchilar rag'batlantiriladi.

**4-shart.** Klaster topshiriqlar.



**O'quvchilar rag'batlantiriladi.**

**Dam olish daqiqasi: Vatan haqida maqollar aytiriladi.**

1. Vatan-ostonadan boshlanadi.
2. Vatanning tinch-sen tinch.
3. Bulbul chamanni sevar, odam-Vatanni.
4. Vatanga muhabbat ona allasidan boshlanadi.

### 5-shart: Darvoza o'yini.

O'quvchilarga so'zlar yozilgan kartochkalar tarqatiladi. Ikki o'quvchi darvoza bo'lib turadi. O'quvchilar qo'llaridagi so'zlar bilan "darvoza" oldiga keladilar.

O'qib bilgan o'quvchi darvozadan o'tadi, bilmagani o'tolmaydi. O'quvchilar rag'batlantiriladi.



Vatan haqida she'rlar aytiriladi.

**O'quvchi:** Vatan deganim bu

Yurak deganim

Yurakka Vatanim

Kerak deganim

**O'quvchi:** Yurt chorlasa birlashing

Aylaning bir jon, tanga

Xudoga sig'ingandek

Sig'ining shu Vatanga.

O'quvchilar rag'batlantiriladi. Rag'batlar ko'rib chiqilib, g'olib guruh aniqlanadi.

**Uy ishi:** Mavzuni o'qib Vatan haqida she'r yodlash.

Dars o'qituvchi tomonidan quyidagi misralar bilan yakunlanadi.

**Vatan nima? Ma'nosini angla qo'zim,**

**Sen shu vatan ertasisan, angla so'zim,**

**Yurt farzandi, el farzandi bo'lsang bolam,**

**Men roziman, aslo qaro bo'lmas yuzim!**

### Mavzu: Bosh T harfini yozish.

|                                                                                               |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------|
| <b>Mavzuning qisqacha ta'rifi: Bosh t harfi unsurlari va yaxlit shakli.</b>                   |
| <b>O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi:</b>                                        |
| <b>Metod:</b> Didaktik o'yin.                                                                 |
| <b>Shakl:</b> Jamoa bilan ishlash.                                                            |
| <b>Jihoz:</b> Darslik, tegishli kesma harflar.                                                |
| <b>Nazorat:</b> Bolalarning dars davomidagi faolligi kuzatilib, hisobga olib boriladi.        |
| <b>Baholash:</b> O'quvchilarning reytingi dars oxirida e'lon qilinadi.                        |
| <b>Darsning maqsad va vazifalari.</b>                                                         |
| <b>Ta'limiy:</b> Bosh T harfini yozishga o'rgatish. Yozuv malakalarini tarkib toptirish       |
| <b>Tarbiyaviy:</b> Yozuv jarayonida tartiblilikka o'rgatish                                   |
| <b>Rivojlantiruvchi:</b> Chiroyli yozuv malakalarini rivojlantirish, yozma nutqini o'stirish. |
| <b>Kutilayotgan natija.</b>                                                                   |
| Dars yakunida o'quvchilarda bosh T harfini yozishga oid BKM shakllantiriladi.                 |
| <b>Dars jarayoni va texnologiyasi:</b>                                                        |

| <b>Ishning nomi</b>                | <b>Bajarilgan ish mazmuni</b>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                  | <b>Metod</b>                                                                                                                                                                                  | <b>Vaqt</b>                                                                                                                   |
|------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| 1-bosqich<br>Tashkiliy qism        | O'quvchilar davomati aniqlanadi. Sinfning darsga tayyorligi tekshiriladi.                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                      | nazorat                                                                                                                                                                                       | 2 daqiqa                                                                                                                      |
| 2-bosqich<br>ehtiyajlarni aniqlash | O'quvchilarni yozuv ko'nikmalariga qo'yiladigan gigienik talablar bilan tanishtirish                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                           | suhbat                                                                                                                                                                                        | 2 daqiqa                                                                                                                      |
| 3-bosqich<br>darsning borishi      | <p>1. Takrorlash</p> <p>2. „Tomga musicha in qurdi” rasmi asosida hikoyacha tuzdirish.</p> <p>3. <b>Tom ana</b> gapining andozasini chizdirish</p> <p>4. Darslikdan bosma <b>T</b> harfini izohlash</p> <p>5. Xattaxtaga bosh <b>T</b> harfini yozib ko'rsatish</p> <p>6. Havoda bosh <b>T</b> harfini yozish mashqini qildirish</p> <p>7. Bosh <b>T</b> harfini yozishga oid yozuv grafik izohini berish</p> <p>8. Quvnoq daqiqa.</p> <p>9. Bosh <b>T</b> harfini yozishni yozuv daftarlaridagi namunalar asosida davom ettirish.</p> <p>10. <b>M</b> va <b>T</b> harflarini taqqoslash, ular o'rtasidagi farq va o'xshashlikni izohlash.</p> | <p>“ Qabul qilib oldim” o'yini<br/>Suhbat</p> <p>Amaliy ish<br/>Suhbat<br/>Namuna<br/>Namuna</p> <p>Amaliy ish</p> <p>‘Uchib ketdi ushlab ol’ o'yini<br/>Amaliy ish</p> <p>Qiyosiy tahlil</p> | <p>4daqiqa</p> <p>4daqiqa</p> <p>4daqiqa<br/>3daqiqa<br/>3daqiqa<br/>2daqiqa</p> <p>3daqiqa</p> <p>3daqiqa</p> <p>3daqiqa</p> |
| 4-bosqich<br>Mustahkamlash         | T harfini grafik tahlil qilish                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                 | Didaktik o'yin                                                                                                                                                                                | 4daqiqa                                                                                                                       |
| 5-bosqich<br>Baholash              | So'z tarkibidan bosh T harfini topish                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                          | “Harflar kassa”siga sayohat didaktik o'yin                                                                                                                                                    | 3 daqiqa                                                                                                                      |
| 6-bosqich                          | Bosh T harfi unsurlarini yozish.                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                               | tushuntirish                                                                                                                                                                                  | 2 daqiqa                                                                                                                      |

### **Darsning borishi:**

1. Takrorlash. “Qabul qilib oldim” o'yini. O'qituvchi stolga barcha o'rganilgan, bir necha o'rganilmagan kesma harflarni aralashtirib qo'yadi. Ikki o'quvchi o'z do'konlarida harflarni qabul qilib oladilar (do'konlar-bolalarga qarshi qaratilgan partalar bo'lib, mazkur partalar to'rtida, boshqa partalardan 0,5-1 m chamasi oraliqda ajralib turadi. Birinchi do'konda faqat unli, ikkinchi do'konda undosh harflar qabul qilinadi. O'quvchilar do'konga kelib, olgan harflarining

nomini, harf-tovusg xususiyatlarini sinf xattaxtasiga harfni yozadilar, kesma harfni do‘kondorga topshiradilar. Javoblar qoniqtirmasa, do‘kondor (o‘quvchi) ta’rifni to‘ldiradi. O‘tirgan o‘quvchilar o‘yin ishtirokchilarining bergan javoblariga qo‘shimchi kiritishi mumkin. O‘yin so‘ngida o‘qituvchi o‘quvchilar faoliyatiga baho beradi, o‘rganilgan harflar miqdorini aniqlaydi.

2.“Tomga musicha in qurdi” rasmi sinf xattaxtasiga osib qo‘yiladi. Hikoyacha tuzdiriladi:

Tomda bo‘g‘ot bor. Bo‘g‘otga musicha in qurdi. Yaqinda kichik tuxumchalardan musicha bolalari chiqadilar.

Tom, ana gapining andozasi chiziladi. Tom so‘zi ajratiladi, xattaxtaga yoziladi va Tom so‘zining ushbu o‘rinda bosh harf bilan kelganligining sababi izohlanadi. Nuqtadan so‘ng, xatboshidan yozilgan yangi gap bosh harf bilan boshlanadi.

3.Darslikdan bosma **T** izohlanadi. Xattaxtaga bosh **T** harfi yozib ko‘rsatiladi. Havoda bosh **T** harfini yozish mashq qildiriladi. Mashq vaqtida bosh **T** harfini yozishga oid yozuv-grafik izohi beriladi.

Katta **T** harfi ikki unsurdan iborat bo‘lib, yozishda qo‘l harakati uziladi.

**T T T T T T T T T T T T T**

#### 4.Quvnoq daqiqa.

Yozdik, yozdik charchadik

Dam olishni boshladik

Barmoqlar harakatda

Jonlarimiz rohatda

5. Bosh **T** harfini yozish yozuv daftarlaridagi namunalar asosida davom ettiriladi

**T T T T T T T T T T T T**  
**Ta Ta Ta Ta Ta Ta Ta Ta Ta Ta**  
**Ti Ti Ti Ti Ti Ti Ti Ti Ti Ti**  
**Tantana Tantana Tantana Tantana Tantana**  
**Tom ana Tom ana Tom ana Tom ana Tom ana**

6. **M** va **T** harflari taqqoslanadi, ular o‘rtasidagi farq va o‘xshashlik izohlanadi.

7. Dars yakunlanadi. O‘quvchilar bilimi rag‘batlantiriladi.

#### Mavzu: “Dastyor qizlar”

##### Darsning maqsadi:

**Talimiy maqsad:** O‘quvchi qizlarni epchil, zukko, hozirdan ota- onasining yordamchisi bo‘lib ularni hayotga tayyorlash. Milliy an`ana va qadriyatlarimizni amalda qo‘llay olishga undash.

**Tarbiyaviy maqsad:** : O‘quvchilarni o‘rtasida do‘stlik, o‘zaro hurmat, hamjihatlik, ona tabiatga, bir-biriga bo‘lgan hurmat, ota- onaga mehr muhabbat uyg‘otish va hozirdan ro‘zg‘or yumushlarini o‘rgatish.

**Rivojlantiruvchi maqsad:** Olgan bilimlarini amalda qo‘llay bilish malakasini rivojlantirish, Ma`naviy ongini o‘stirish.

##### 1) boshlovchi:

Uyg‘onsin bahoriy kayfiyat har dam

Jilg‘alar sharqirab to‘lib to‘lqinlar

Bahoriy gullarga burkansin bir dam  
Qushlar chug'urlasin to'lib toshsinlar

**Shokir:**

Bugun bahor keldi Elimga yana  
Muattar arazin qilib nomoyon  
Bugun bahor keldi Elimga yana  
Tipirchilab qoldi tanamda jon

**Tohirjon:**

Assolom yuzlari yorug' navro'zim  
Fssalom tong kabi otgan navro'zim  
Assalom xalqimning mehnatkashlari  
Assalom maktabimning o'g'il qizlari  
Assalom kechamizning mehmonlari

**Shokir:**

Avval yuraginga mo'ralaydi u  
So'ngra kurtaklarga o'rgatadi so'z  
Zaminning ko'zidan qochadi uyqu  
Demak bahor keldi kelmoqda navro'z  
Ko'klamoyim g'o'zalim gulim  
Kel bo'yningga sargashta dilim  
Bu kun noming takrorlab aytib  
Charlamoqdan charchamas tilim  
Aftadahol holimni bilding  
Kuylab kelding o'z qo'shig'ingni  
Kel bahorim o'z qo'shig'ingni ayt  
Bog'larimga yarashsin bo'ying  
Miskin dildan to'qiladi bayt  
Kel bahorim intiq dilga qayt  
Kel oq gulum kelgin bahorim  
Izlaringda qolmasin zorim

**Tohirjon:**

Assalomu- alaykum aziz ustozlar va mehmonlar.

Sokir: Assalomu- alaykum opa singillar, bir-biridan lo'bar, go'zal qizlar.  
Sizlarni hammangizni kirib kelayotgan "Navro'z" ayyomi bilan chin  
yurakdan tabriklayman. Endi esa bahoroyini taklif etamiz.

**Toxirjon:**

Bugun sinfimizning qizlari ishtirokidagi "Dastiyor qizlar" bellashuvini  
etiboringizga havola etamiz. Qizlarga bu bellashuvda omad yor bo'lsin.

**Shokir:**

Marhamat, tamosha qiling, sinfimizning eng zukko, eng bilag'on qizlari  
bugun o'zaro bellashadilar. Qizlarimizni davramizga taklif qilamiz.

**Toxirjon:**

1-raqamli qizimiz: Bobojonova Sarvinoz

2-raqamli qizimiz: Yo'ldosheva Risolat

3-raqamli qizimiz: Matqurbonova Yulduzxon

4-raqamli qizimiz: Matyaqubova Mehriniso

5-raqamli qizimiz: Otaboeva Dildora

6-raqamli qizimiz: Ollaberganova Hayohon

**Shokir:**

Bellashuv shartlari quyidagicha:

1. Tanishuv
2. Fanlar bo'yicha savollar
3. Mohir qo'llar
4. Epli qizim kerekmi? Sepli?
5. Istagan bahoriy salatlardan birini tayyorlash
6. Erkin mavzu (hohlagan qo'shiq yoki she'r, g'azallar raqs)

**1-raqamli qizimiz: Bobojonova Sarvinozga**

Xush kelibsiz ilm-u fanning sohibu davronlari

Xush kelibsiz davramizning eng aziz mehmonlari

Xush kelibsiz muallimlar hamda munis onalar

Xush kelibsiz kechamizgagi barcha mehmonlar

Tanishtiray o'zimni

Sarvinoz mening ismim

Ismimga monand jismim

2001-yil atalmish makonda

Ming otliqlar diyori Hazarasp elining

Yangibozor qishlog'ida dunyoga keldim

Qiziqishlarim bir jahon

Yillar o'tib vaqt o'tib

Bo'lmoqchiman katta shifokor

Buning ucnun albatta a'lo o'qish darkor

**2-raqamli qizimiz: Yo'ldosheva Risolat**

Salom bilan boshlanar

Bilsang odob va ahloq

Salom bilan begona ham

Bo'lar, tezda do'st –inoq

Salom assalom so'zi

So'zlar ichra durdona

Mehring ifodasi

Hamda hurmat yagona

Salomim so'lim-so'lim

Ko'ksimdadir o'ng qo'lim

Eng avvalo ustozlar

Assalom-u alaykum

Tanishtiray o'zimni qora-qoshu ko'zimni

Chiroyli ko'z so'zimni kulub turgan yuzumni

2002-yil 7-mart Xorazm atalmish

2008-yil qadam qo'ydim maktabga

Raximaxon ustozim juda chaqqon talabchan

Agar u boqlmaganida yonimda turmaganda

Yurardim bilmay sanab, o'yinni qilmay kanda  
Raximajon ustozimga ming raxmat

**3-raqamli qizimiz: Matqurbonova Yulduzxon**

So'zlarning eng shirini  
Ochiq aytay sirini  
Odob bog'in sharbatin  
Qalb gavharin qimmatin  
Aslida shu so'z bilan  
Dillar qulfin ochamiz  
Salom berib hammaga  
Mehrimizni sochamiz  
Barchangizga azizlar  
Assalom-u alaykum  
Tanishtiray o'zimni  
Yulduzxon mening ismim  
Ismimga ham manon jismim  
Tilla qiz ham bitta o'zim  
Ustozlar bergan bilimlarni  
Oqlayman har doim  
Katta bo'lmoqchiman muhandist  
Go'zal binolar loyixasin chizib  
Barpo etgum xashamatli binolar  
O'zbekiston elimga qo'shib shu tariqa xissam  
O'zbekim so'zin albatta  
Assalomdan boshlanur  
Do'stlarga qilib tazim  
Ehtiromdan boshlangay  
Tanishtiray o'zimni  
Ismimdir mohinur  
Go'zal qizlar ichra  
Go'zali ham bitta o'zim  
Tug'ildim men urganch shaxrida  
2001-yil 1-iyunda  
Qo'ydim ilk qadamlarim  
19-son maktab sari  
Ustozlarim bergan bilimlarin  
Qund bilan o'qib o'rganib  
Dona va zukko qiz bo'laman  
Vatanimga kerakli farzand bo'laman.  
Barcha so'zlar ichida salom sevgan so'zim  
Tilimizni shu so'zga o'rgatgan ham o'zingiz  
Ushbu damda barchaga Dildan cheksiz ehtirom  
Deymiz salom-assalom.  
Tanishtiray o'zimni  
Mehriniso ismimdir

Go‘zal va chiroyli  
Donasi ham o‘zimdir  
Tug‘ulganman urganch shahrida  
2001-yil 1-iyunda  
Qo‘ydim ilk qadamlarim  
19-son maktab sari  
Ustozim bergan bilimlarin  
Qund bilan o‘qib o‘rganib  
Don ova zukko qiz bo‘laman  
Vataning kerakli farzand bo‘laman

**4-raqamli qizimiz: Matyaqubova Mehriniso**

Barcha so‘zlar ichida salom sendan so‘zimiz  
Tilimizni shu so‘zga o‘rgatgan ham o‘zingiz  
Ushbu damda barchaga dildan cheksiz ehtirom  
Deymiz salom assalom  
Tanishtiray o‘zimni  
Mehriniso ismimdir  
Go‘zal va chiroyli  
Donasi ham o‘zimdir  
Tug‘ulganman urganch shahrida  
2001-yil 1-iyunda  
Katta bo‘lsam men  
Elimga xizmat qilaman  
O‘qituvchi kasbini egallab  
Barchani hursand qilaman

**5-raqamli qizimiz: Otaboeva Dildora**

Assalom iymoni omon odamlar  
Assalom bu kunni intiq kutganlar  
Mehribon onjonlar va buvijonlar  
Bayramga tashrif buyurgan aziz do‘stlarim  
Tanishtiray o‘zimni  
Mehmonlar-u ustozlarga  
Dildora qiz o‘zim bo‘laman  
Tug‘ulganman urganch shahrida  
2001-yil 12-aprelda  
Orzu qilaman men shuni  
Oppoq xalat kiysam  
Elim sog‘ omon bo‘lsin deb  
Ezgu niyat bilan xizmat qilsam  
Shifokorlik qasamin ichib

**6-raqamli qizimiz: Ollaberganova Hayothon**

Assalom mexmonlar mehri ziyolar  
Yuragi quyoshli qalbi daryolar  
Sizga ham tengdoshlar dildan  
Qo‘lim ko‘ksimda deyman assalom

Tanishtiray o‘zimni  
Hayotxondir ismim  
Tug‘ulganman urganch shahrida  
2001-yil 12-aprelda  
Katta qiz bo‘lsam  
Chevar qiz bo‘laman  
Insonlarni chin dildan sevib  
Xizmat qilay qalbimdan jo‘shib

### **Tohirjon:**

Mana biz 6-ta qizimizning tanishtiruv qismini eshitdik. Endi 2-shatimizga o‘tsak. Bu shartda Har bir qizga ettitadan savol beriladi. Qizlar savollarga tez javob berishlari kerak.

### **1-raqamli qizimiz: Bobojonova Sarvinoz**

1. O‘zbekiston Respublikasining madhiyasining so‘zini kim yozgan? (A Oripov)
2. O‘qish kitobimizdagi “To‘g‘ri so‘z bola” sherining muallifi kim? (H.H. Niyoziy)
3. 30-sonidan boshlab yuqoriga 9-talab sanang. (23.26.29.32.35.38.41. 44)
4. 9-may qanday kun? (xotira va qadrlash)
5. Shirin, achchiq,nordon qaysi so‘z turkimiga kiradi? (sifat)
6. Olti harfli raqamlarni ayting? (8-9)
7. Er sharida necha materik bor. (6ta)

### **2-raqamli qizimiz: Yo‘ldosheva Risolat**

1. So‘z mulkining sultoni deb qaysi shoirni ta’riflashgan? (A.Navoiy)
2. Rang-tus bildiruvchi so‘zlar qaysi so‘z turkumiga kiradi? (sifat)
3. Qaysi raqamlarda “qiz” so‘zi bor? (to‘qqiz)
4.  $7 \times 9 =$  necha bo‘ladi? (63)
5. O‘zbek tilida nechta undosh tovush bor? (23)
6. Sandiq to‘la, lekin unda joy yo‘q (bo‘sh joy)
7. 6 oyda nechta kun bor? (183)

### **3-raqamli qizimiz: Matqurbonova Yulduzxonga:**

1. Svetafordagi ko‘k chiroq nimani anglatadi? (harakatlanish)
2. Uchovlon, ikkovlon so‘zlari qaysi so‘z turkumiga kiradi? (son)
3. Alifbodagi 21 – bo‘lib turgan harfni ayting? (V harfi)
4. Suvda qanday tosh bo‘lmaydi? (Quruq tosh)
5. 3 haftada nechta kun bor? (21 kun)
6. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi nechta bo‘lim, nechta modda va nechta bo‘limdan iborat? (6 bo‘lim, 26 bob, 128 modda)
7. Daraxtning yer ostidagi qismi? (ildiz)

### **4-raqamli qizimiz: Matyaqubova Mehriniso**

1. Fe‘l so‘z turkumi qanday so‘roqlarga javob beradi? (nima qildi? Nima qilyapti?)
2.  $8 \times 6 =$  necha bo‘ladi? (48)
3. Bayrog‘imizda nechta rang bor? (4)
4. 28 kun necha hafta? (4 hafta)

5. Tartib bildirgan songa misol ayting? (birinchi, ikkinchi)
6. 21 – mart qanday kun? (Navro‘z olam)
7. 29-fevraldan keyin qaysi sana? (1-mart)

**5-raqamli qizimiz: Otaboeva Dildora**

1. Vatanimizning buyuk sarkardasi kim? (A.Temur)
2.  $7 \times 8 =$  necha bo‘ladi? (56)
3. Gerbimizdagi “Xumo qushi” nimani ramzi? (Tinchlik)
4. 50 raqamidan boshlab pastga 5 talab sanang? (45, 40, 35, 30)
5. Bahorning birinchi kuni? (1-mart)
6. Bahorda ochiladigan va “Qizil kitob”ga kiritilgan gul? (lola)
7. Yulduzlar ilmini o‘rgangan buyuk astranom? (M.Ulug‘bek)

**6-raqamli qizimiz: Ollaberganova Hayotxon**

1. “Ola buloq” she’ring muallifi kim? (G‘.G‘ulom)
2. O‘zga yurtda shoxlik qilgan vatandoshimiz kim? (Z.M.Bobur)
3. 6 dm da necha sm bor? (60 sm)
4. Qaratqich kelishikning qo‘shimchasi? (-ning)
5. Sr (sentner) qanday o‘lchov birligi? (og‘irlik)
6. O‘zbekiston Respublikasi Davlat bayrog‘i nechanchi yil qabul qilingan? (1991-y 18-noyabr)
7. 120-60 necha bo‘ladi. Endi esa Hakamlar baholab boradi.

III Shartimizga o‘tsak qizlarimiz o‘zlari yashab ijod etgan narsalarini hakamlar oldiga olib boradilar va ularga baholar qo‘yishadi.

**Toyirjon:** Qizlarimizni qanchalik chaqqonligini 4-shart bo‘yicha bilib olamiz. Har bir ishtirokchining oldida mosh loviya donalarining aralashtirilgan holatda turibda qizlar shularni tez, chaqqonlik bilan bajarishlari kim birinchi bo‘larkan shu tariqa g‘olib qiz aniqlanadi.

**Shohrux:** Endigi navbat bahor faslida vitaminlarga boy, (foydali) bo‘lgan salatlarini tayyorlashlari kerak bo‘ladi. Bunda qizlar ozodalikka ham rioya qilishlari, o‘z tayyorlagan salatlarining qanday foydali tariflarini aytib o‘tishlari zarur. Tayyorlab bo‘lgan salatlarini hakamlar baholaydilar.

**Toyirjon:** yakuniy shartimiz bu “Erkin mavzu” bo‘lib bunda qizlar o‘zlari xoxlagan she’r yoki ashula, raqslarni ijro etishadi. Marxamat qizlarni taklif etamiz.

**Shoxrux:** Endi bellashuvning g‘olib qizini aniqlab olish uchun hakamlarga so‘z bersak.

“Parvozingiz baland bo‘lsin”!

**Jarchilar:**

1. Odamlari – odamlar!
2. Bog‘da o‘sgan bodomlar!
3. Eshitmadim demanglar!
4. Eshitganlar jilmanglar!
5. Bugun bizning dovrug‘I doston bo‘lgan maktabimizda tantana!
6. Nima? tantana deysizmi?
7. Ha! 4<sup>d</sup> va 4<sup>e</sup> sinf o‘quvchilarining bitiruv kechasi:
8. Bu tadbirimizning nomi!

9. “Parvozingiz baland bo‘lsin”!

10.”He-he-hey hammangizni taklif qilamiz!

**Karnay, surnay, doirachalar** kirib keladi.

1. **Kundan –kun o‘yini** – qizlar

1-<sup>b</sup> Assalomu – alaykum hurmatli mehmonlar, qadrli ustozlar, mehribon, bobo va buvijonlar aziz ota- onalar !

2-<sup>b</sup> Bugun boshlang‘ich sinflarning bitiruv kechasi bilim dargohimizga xush kelibsiz.

3-<sup>b</sup> Mana bugunhammamizning qalblarimizda g‘urur yuzlarimizda tabbasum, chunki, bu bayram sababchilari bizlar ya’ni aqilli,zukko, mustahkam oila farzandlarimiz!

4-<sup>b</sup> Avvalambor qo‘llarimizni ko‘ksimizga qo‘yib barcha, barchangizga, xush kelibsiz deymiz.

**2. “Bahor”-qizlar**

1-<sup>b</sup> Yillar o‘tdi, olam-olam quvonch, shirin orzular ila ota-onalarimiz, bobo buvilarimiz, qo‘llarimizdan yetaklab, ziyo maskanimiz bo‘lmish maktabimizga olib keldilar.

2-<sup>b</sup> Mana shunga ham 4 yil bo‘libdi, bugun umumiy o‘rta ta’limning, o‘rta pog‘onasi ostonasida turibmiz! Bizni bu ostonaga sevimli ustozimizning mahorati, sabr bardoshi, puxta saboqlariyu, dono o‘g‘itlari yetaklab keladi.

3-<sup>b</sup> Alifbo va hisob yodda

Bari qoldi, endi yodda

Raqam tanish,harf tanish,

Qo‘ldan kelar o‘qish,yozish

3. Bizlar bitiruvchimiz bu kun

Bizlar uchun quvonchli bu kun

Faqat qallda g‘shlik bir oz

O‘qitmaysiz endi ustoz.

4.Ko‘zlarim hali harf tanimas edi

Qalam ushlamasdi hali qo‘llarim

Kapalak izidan quvib yetmasdim

O‘yinchoq hayol bilan o‘tdi kunlarim

Shunda sizni uchratdim 1-o‘qituvchim

Hamma: Biz ularga bosh egib, ta`zim qilamiz!

**3. (“Ustozlar” kuyi Xorazmcha o‘yin-qizlar o‘quvchilar ustozlarga gul tarqatadilar.)**

**Shior:**

“Biz mustaqil yurtning, sog‘lom farzandlarimiz “ - 2 o‘quvchi olib chiqadi.

**1-bola:** Vatan bu men tug‘ulgan qishloq

Cheksiz qirlar ham tog‘u- toshloq

Vatan bu men yulduzlar sanab

Kelajagin o‘ylagan tuproq.

**2-bola:** Vatan ne deb so‘rasha agar  
Javob bergum dadil va mutloq  
Vatan yurtim, ota-onam  
Kindik qonim qonim to‘kilgan tuproq

#### **4. Yigitlar raqsi- o‘gil bolalar**

Sahna ko‘rinish

1.Qadim-qadim zamonda bir bog‘bon bo‘lgan ekan. U har doim daraxt ekar ekan.Kunlarning birida uning oldiga bir kishi kelib so‘rabdi.

Yoshingiz anchaga borib qolibdi-yu, bu nihollar qachon hosil beradi-yu, bu nihollar qachon hosil beradi-yu, ularni qachon ta‘tib ko‘rasiz?

#### **Shunda mo‘ysafid:**

Muhimi men o‘stirgan mevalarning, mendan keyingi avlodlarga naf keltirishi, foyda berishidir.

Ustozimiz yaratgan bog‘idir bizlar

Vatan suyanchig‘i, tog‘dir bizlar

**1-o‘quvchi:** Bilim olib dunyoda o‘rgangil hunar  
Hunarning oldida rostdir oltin-zor.  
Hech kimga yalinmas hunarli inson  
Rizqin oz bog‘idan topadi inson.

**2-o‘quvchi:** Yallalar yangrasin,kuy jaranglasin  
Davrani to‘ldirib o‘ynasin qizlar  
Ming xil maqom bilan, kabutar kabi  
Charh urib aylanib ursin qizlar

## **5.Vals**

**1-o'quvchi:** Kelajagi buyik yurtning  
Biz baxtli avlodimiz  
Najmiddinu, Zamaxshariy  
Polvon Pir zurriyotimiz

**2-o'quvchi:** Ular Ruhim, nomin yodlab  
Pok saqlaymiz, nomimiz  
Al- Xorazmiy, Al Beruniy  
Har qadamda qo'llasin  
Kelajagi buyik yurtni  
Nurli yo'lga boshlasin.

**1-o'quvchi:** Ko'xna ona yurtim Xorazmsan  
Dovrug'i dunyoga doston Xorazmsan.  
Ellari ahili 1tani, 1jon  
Yeti iqlimga mashhur Xorazmsan!

## **6.Xorazmcha – o'yin “cho'girma” o'g'il bolalar**

**1-o'quvchi:** Ko'xna ona yurtim Xorazmsan.  
Bog'u bo'ston azm eli  
Tanga jon bergan lazgi  
Qo'shiq nazm eli

**2-o'quvchi:** Xorazmdir bu diyor  
Tug'ulgan yurtim manim  
Baxtiyorman, fikr etarman  
Xorazmdir, Vatanim

## **UCH PATIR “QIZLAR”**

- 1.Agar hayot bo'ston bo'lsa  
Bog'bon muallim
- 2.Agar hayot oltin bo'lsa  
Sarbon muallim
- 3.Agar hayot oltin bo'lsa  
Zargar muallim
- 4.Agar hayot shat bo'lsa  
So'z muallim
- 5.Agar hayot dengiz bo'lsa  
Duri muallim
- 6.Agar hayot uzuk bo'lsa  
Gavhar muallim
- 7.Ilmu ma`rifatdan saboq  
Berguvchi o'zi muallim.

## **Ustozlar – qo'shiq**

- 1) Ustoz nomin tilga olsam  
Yer-u samo quloq solar  
Ustoz nomin kuyga solsam  
Qalbim undan ilhom olar  
Chunki ular onamdayin

Har soʻzi kuch bagʻshlar  
Bizga aziz va moʻtabar.

- 2) Hozir men sizni hurmatli ustozimiz onamizday mehribon va biz uchun qadrlı inson maktabimiz raxbari Aqiljon opa Inoyatovaga soʻz beramiz.

### **Marhamat**

- 3) Daryo yongliq toshasiz

Yuz yoshdan ham oshasiz  
Qachon koʻrsak shod quvnoq  
Bizni kutib olasiz

- 4) Endi soʻzni boshlangʻich sinflar boʻyicha director oʻrinbosari Zumrad opa Qutliyevaga beramiz marxamat  
5) Dunyoda ota – onalardek gʻamxoʻr mexribon vafodor sodiq doʻst boʻlmasa kerak. Hozir soʻzni hurmat bilan ota-onalarga beramiz

### **MAVZU: HAMJIHATMIZ –ZUKKOMIZ**

#### **Darsning maqsadi:**

**Taʼlimiy maqsad:** Oʻquvchilarni barcha fanlardan olgan bilimlarini oʻzaro bellashuv asosida aniqlash va mustahkamlash.

**Tarbiyaviy maqsad:** Bolalar oʻrtasida doʻsnlik, oʻzaro hurmat, hamjixatlik, ona nabiya boʻlgan mehr –muxabbat tuygʻusini shakllantirish.

**Rivajlantiruvchi:** Olgan bilimlarini amalda qoʻllay olish malakasini rivojlantirish. Maʼnaviy ongini oʻstirish.

Bellashuv shakli: Musobaqa.

**Jihozi:** Mavzuga oid testlar, rasmlar, boshqotirmalar, marker, qogʻozlar , sinf bayromona bezatiladi.

#### **Darsning borishi:**

1. Darsni tashkil qilish
2. Sinf ikki guruhga boʻlinadi.

**Guruhlar shiori; Doim olgʻa intil! Intilganga tole yor!**

**1-guruh –“ Donolar”**

**2-guruh –“Zukkolar ”**



**Donolar**

**Doim  
olgʻa intil!**

**Zukkolar**

**Intilganga  
tole yor!**

**Oqituvchi:** aziz o‘qituvchi va o‘quvchilar bugun sinfimiz o‘quvchilari o‘zaro bellashadilar. Barcha fanlardan olgan bilimlarini qisman bo‘lsada sinab ko‘radilar, marhamat. Navbat guruhlar o‘zlarini tanishtiradilar.

**1. “Donolar”:**

So‘zlarning eng shirini  
Ochiq aytay sirini  
Odob bo‘g‘in sharbatin  
Qalb gavharin qimmatin  
Aslida shu so‘z bilan  
Dillar qulfin ochamiz  
Barchangizga azizlar  
Assalomu- alaykum

**Biz guruhimizni “Donolar “deb atadik.** Chunki bobolarimizdek don ova aqilli bo‘lishga ahd qildik. **Bizning shior: Doim olg‘a intil!**

**2 –“Zukkolar ”**

Barcha so‘zlar ichida  
Salom sevgan so‘zimiz  
Tilimizni o‘rgatgan ham  
Tilimizni shu so‘zga  
O‘rgatgan ham o‘zingiz  
Ushbu dam barchangizga  
Dildan cheksiz ehtirom  
Deymiz salom, assalom.

**Biz guruhimizni “Donolar “ deb atadik.**

Chunki zukkolar har doim bilag‘on va intiluvcha, izlanuvchan bo‘ladi.

**Bizning shior: Intilganga tole yor!**

1-B. Bugun bizning sinfimizda bo‘lib o‘tadigan bellashuvimizni maqsadi, olgan bilimlarimizning amalda qollay bilish.

2-. Bellashuvda barcha fanlardan savol- javoblar, testlar va boshqotirmalar berib boriladi. O‘quvchilarimiz shu savollarga to‘g‘ri, to‘liq javob berib, guruhiga omad olib kelishlari kerak.

**1-B. Birinchi shart “Donolar “ guruhiga.**

Aqliy hujum orqali tezkor savollar beriladi shu savollarga o‘quvchilar tez javob berishi kerak.

**1. O‘qituvchi:**

1. “Yurt” so‘ziga ma`nodosh ayting –**Vatan**
2. Matematika fanida nechta arifmetik amal bor-4
3. Yer yuzida nechta materik bor-6ta
4. Globus nima? -Yerni kichraytirilgan shakli
5. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qachon qabul qilingan?-1992yil. 08.12

6.  $8 \cdot 9 =$  necha hosil bo'ladi? - 72
7. Shaxs va narsaning rangi, tusi, mazasini bildiradigan so'z turkimini ayting? - sifat

## **2-guruh. Zukkolar**

### **1-shart: O'qituvchi:**

1. Bir yil necha kundan iborat? 365,366
2. Undalma qatnashgan gap tuzing?
3. Zamin so'ziga ma'nodosh so'z toping-yer
4. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi necha bob, necha bo'lim, necha moddadan iborat? - 6-bo'lim, 26bob, 128 moddadan iborat
5. Yer yuzida nechita ocean bor? -4 ta
6.  $130 - 40 =$  necha bo'ladi? -90
7. Sakraydi, o'ynaydi, yugiradi, qaysi so'z turkimiga kiradi? -fel

Bergan javoblari rag'batlantirilib boriladi.

### **II-shart. Maqollarni davom qildirasiz "Donolar" guruhiga.**

Har bir sardor o'z guruhiga maqol aytadi.

1. Yosh kelsa ishga qari kelsa..... oshga
2. Tinchlik bilan el ko'karar yomg'ir bilan... yer
3. Mashaqqatsiz ish keltirar.... Tashvish
4. Yaxshi ko'rgan do'stingdan joningni ham .... Ayama
5. Yigit kishiga ....70 hunar ham oz
6. Mard so'zidan, yo'lbars ..... izidan qaytmas
7. Yaxshilik yerda .... Qolmas

### **II-shart. Maqollarni "Zukkolar" guruhiga (Risalat)**

1. Ona yurtning tuprog'i, ona sutidek..... aziz
2. Yurti boyning o'zi.... Boy
3. Bilagi zo'r birni yiqar, bilimi zo'r ....mingni
4. Inson ahloqi bilan go'zal, Daraxt.... Bargi bilan go'zal
5. Mehnatdan kelsa boylik, turmush bo'lar .... Chiroylik
6. Ota -onang ..... davlating
7. Ayрилganni ayiq yer, bo'linganni .... Bo'ri

Oquvchilarni ragʻbatlantirilib boriladi

**Oʻqituvchi:**

Endi oʻquvchilar biroz dam olib turaylikda.

Mana bahor fasli ham kirib keldi, koʻpchilik qariyalarimiz gapi bilan “Ilik uzildi” davri boshlandi deyishadi, chunki tabiat, barcha dov- daraxt, gullarni maysalarga quvvatni odamlardan olib keyinchalik oʻzlariga, ming barobar ortigʻi bilan qaytarar ekan. Shuning uchun hozir sizlar ota- onangizlardan, buvi-yu, momolaringizdan eshitgan foydali maslahatlardan keltiramiz. Marhamat navbat foydali maslahatlarga.

**“Donolar” guruhi boshlab beradi**

1. Vaqti - vaqti bilan oʻrik sharbatini ichib turush koʻz kasalliklarini davolaydi, koʻz quvvatini oshiradi. U shamollashdan asraydi va shu bilan birga yurakni mustahkamlaydi.
2. Sabzini oʻzini va sharbatini istemol qilgan insonning koʻzini nurini eavshan qiladi.
3. Oʻrik qaynatmasini muntazam istemol qilish bosh miya faoliyatiga ijobiy taʼsir koʻrsatadi. Tafakkur qobiliyatini oʻstiradi.
4. Qon bosimi borlar,shvitni maydalab, zardobli qatiqqa qoʻshib ichsa, juda yahshi foyda beradi.

**Navbat “Zukkolar” guruhiga.**

1. Har kuni uyqiga yotishdan oldin bir piola ham sut ichib yotish foydali va inson yahshi uhlaydi.
2. Yuragi hasta bemorlar diqqatiga.Shirin va nordon olma eb turish kerak va har hilsabzovotlardan ham istemol qilibturish ham foydali.
3. Tumov yangi boshlanganda dastiroʻmolingizni lavlagi suviga namlab, burningizga tekizsangiz tezda dimogʻingiz ochiladi.
4. Piyozi hidlab turish ham shamollashga yoʻl qoʻymaydi

**III- shart “Donolar” guruhiga.**

Matemetika faniga oid boʻlib, bunda ham bilimlaringiz sinab koʻriladi.

1. Uzunlik oʻlchov birliklarini sanab bering. Mm, tm, m, dm, km.
2. Ikki sutka necha soat? 48
3. Eng kichik toʻrt xonali sonni ayting? 1000
4. Yuza qanday topiladi? Enini boʻyiga koʻpaytiramiz
5. Bir yil koʻpmi yoki bir asr? Bir asr
6. 999 sonini  $\frac{1}{3}$  necha boʻladi? 333

7. 0. Ni 100ga ko'paytirsan qancha boqladi? 0 ni har qanday songa ko'paytirsan 0 chiqadi.

Rahmat:

**III- shart “Zukkolarga”** Matematika faniga oid bo'lib, bunda ham bilimlaringiz sinab ko'riladi.

1. Vaqt o'lchov birliklarini ayting? Sek, min, soat, oy, kun, hafta, yil, asr.
2. Geometric shakillarni ayting? Aylana, doira, keama.
3. Perimetr qanday topiladi? Tamonlarning yig'indisi perimetr deyiladi.
4. Eng kata 4 xonali sonni ayting? 9999
5. 1000 sonini  $\frac{1}{5}$  top. 200
6. Hamma tamonlari teng bo'lgan to'rt burchak nima deyiladi? Kvadrat
7. Qaysi geometric shakllar tamonlarning tamonlari bo'lmaydi? Aylana va doira.

#### **RAHMAT:**

**IV- shart:** Bu shartimiz ona tili faniga oid.

“Donolar ” guruhi boshlab beradi.

1. Alifboda necha harf bor? 29
2. Gap bo'laklari necha turga bo'linadi? 2ta. Bosh va II-darajali
3. Bosh bo'laklarga nimalar kiradi? Ega va kesim
4. Ega va kesim tegiga qanday chiziqlar chiziladi? Ega-, kesim =.
5. Ot qanday so'roqqa javob bo'ladi? Kim? Nima?
6. O'zbek tilida necha kelishik bor? 6ta
7. Qaratqich keleshigi qanday qo'shimcha bilan belgilanadi? -ning, kimning, nimaning?, qaysining?

#### **Rahmat:**

**IV- shart:** Bu shartimiz ona tili faniga oid. “Zukkolarga”ga

1. O'zbek tilida necha unli harf bor? 6ta
2. So'z turkimlarini sanab bering? Ot, sifat, son, fe'l
3. Til necha zamonga bo'linadi? 3ta. O'tg. Z, hoz.Z, kelasi Z
4. O'zbek tiliga davlat maqomi qachon berilgan? 21.11.1989y
5. Bosh kelishik qanday so'roqqa javob bo'ladi? Kim?, nima? Qaysi?
6. Navoiy bobomiz ruboiylaridan aytib bering (Yulduz)
7. Harf birikmalarini aytib bering. ch, sh, ng

**VI –shart:** O‘qish faniga doir bo‘lib o‘quvchilar yod olgan sherlaridan “Baxru-bayt” aytiladi.

**VII-shart:** O‘qish darsidan o‘tilgan mavzulardan, yoki hikoyani sahnalashtirib ko‘rsatadilar.

1. Donolar- “Chumchiq va chumoli”

2. Zukkolar- “Laqma it”


**VIII- shart:**

Mana bahor fasli kirib keldi. Bahor o‘zi bilan bizga juda ko‘p bayramlarni ham olib keladi, mana tez kunda biz onajonlar bayramini nishonlaymiz, biz mehnat darsida onajonlarimiz uchun nabriknomalar yasaymiz. Hozir biz tabriknoma yozamiz. Shartimiz maqsadi “chiroyli yozish”. Qani boshladik.

XIX- asr:

**“Sardorlar” bellashuvi**

Chizmada nechta uchburchak, kvadrat, to‘rtburchaklar yashiringan shuni qniqlang.



Tadbir so‘ngida g‘olib guruh aniqlanib rag‘batlantirildi.

**O‘qish: 4 – sinf**

**Darsning texnologik xaritasi.**

|                                                                                                                                                                                                                                                                                            |               |         |                 |
|--------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|---------------|---------|-----------------|
| <b>Mavzu:</b> Ko‘kyol.                                                                                                                                                                                                                                                                     |               |         |                 |
| <b>Mavzuga tayanch tushuncha:</b> Ko‘klam nafasi,qatqaloq, jamoa xo‘jaligi, Pochchaxon amaki, Ko‘kyol, gijjinglab, o‘limtik,toy, makkor, o‘tov.                                                                                                                                            |               |         |                 |
| <b>Soatlar soni:</b> 45 daqiqa                                                                                                                                                                                                                                                             |               |         |                 |
| <b>Mavzuga qisqacha ta’rif:</b> Bu hikoyada qish faslining oxirlari tasvirlangan. Choponlar qo‘ylarni yaylovga olib chiqishadi. O‘zlariga o‘tov tikib olishadi. Bunda turli tasodiflarga duch kelishadi.Qo‘ylarni nimadir yeb ketadi. Ovchilar buni oldini olish uchun xiyla ishlatishadi. |               |         |                 |
| <b>Dars jarayonini amalga oshirish texnologiyasi:</b>                                                                                                                                                                                                                                      |               |         |                 |
| <b>Metod:</b>                                                                                                                                                                                                                                                                              | tushuntirish, | suhbat, | ifodali o‘qish. |
| <b>Shakli:</b> jamoa bilan ishlash, yakka ishlash.                                                                                                                                                                                                                                         |               |         |                 |

|                                                                                                                                                |                                                                                                                                          |              |             |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------------|-------------|
| <b>Jihozi:</b> uy hayvonlari, yavvoyi hayvonlar rasmlari, aqliy hujum o'yini.                                                                  |                                                                                                                                          |              |             |
| <b>Nazorat:</b> O'quvchilar faolligini aniqlash.                                                                                               |                                                                                                                                          |              |             |
| <b>Baholash:</b> Rag'batlantirish, qo'llab – quvvatlash.                                                                                       |                                                                                                                                          |              |             |
| <b>Dars maqsadi va vazifalari:</b>                                                                                                             |                                                                                                                                          |              |             |
| <b>Maqsadlar:</b>                                                                                                                              |                                                                                                                                          |              |             |
| <b>Ta'limiy:</b> o'quvchilarni ravon, qiroat bilan o'qishga o'rgatish. Bilim doirasini oshirish.                                               |                                                                                                                                          |              |             |
| <b>Tarbiyaviy:</b> Tabiatga, hayvonlarga bo'lgan mehrini uyg'otiish.                                                                           |                                                                                                                                          |              |             |
| <b>Rivojlantiruvchi:</b> Og'zaki nutqini o'stirish. Mustaqil o'qish ko'nikmalarini shakllantirish.                                             |                                                                                                                                          |              |             |
| <b>Kutilayotgan natija:</b>                                                                                                                    |                                                                                                                                          |              |             |
| Darsda o'quvchilar uy hayvonlari va yavvoyi hayvonlar haqida tushunchaga ega bo'ladilar. Aqliy hujum o'yinlari orqali bilimlarini boyitadilar. |                                                                                                                                          |              |             |
| <b>Dars jarayoni va bosqichlari:</b>                                                                                                           |                                                                                                                                          |              |             |
| <b>Ishning nomi</b>                                                                                                                            | <b>Bajarilgan ishning mazmuni</b>                                                                                                        | <b>Metod</b> | <b>Vaqt</b> |
| <b>1-bosqich</b><br>Tashkiliy qism                                                                                                             | Davomatni aniqlash.<br>Sinfni darsga tayyorgarligini tekshirish.                                                                         |              |             |
| <b>2-bosqich</b><br>(refleksiya)<br>Ehtiyojlarni aniqlash                                                                                      | Oitin qoidalar bilan tanishtirish.<br>Dars shiorini aytish.                                                                              |              |             |
| <b>3-bosqich</b><br>Darsning borishi                                                                                                           | 1.O'tilgan mavzuni mustahkamlash.<br>2.Aqliy hujum o'yini.<br>3.Yangi mavzuni tushuntirish.<br>4.Lug'at ishi.<br>5.Tezkor savol – javob. |              |             |
| <b>4-bosqich</b><br>Mustahkamlash                                                                                                              | Aqliy hujum o'yini                                                                                                                       |              |             |
| <b>5-bosqich</b><br>Baholash. Darsni yakunlash                                                                                                 | Faol o'quvchilarni aniqlash.                                                                                                             |              |             |
| <b>6-bosqich</b><br>Uyga vazifa                                                                                                                | Uyga vazifa berish                                                                                                                       |              |             |

### **Darsning borishi.**

**Aziz** o'quvchilar o'tilgan darsda qaysi mavzuni o'tgan edingiz?

Ayiqni yenggan cho'pon mavzisini.

**1. Otilgan mavzuni slayd orqali mustahkamlayman.**

(savol – javob, aqliy hujum o'yini slaydda berilgan)

**3. Yangi mavzu bayoni.**

O'quvchilarga matnni o'qib beraman. Mazmunini hayotga bog'lagan

holda soʻzlab beraman .

(lugʻat ishi slaydda berilgan)

Matn oʻquvchilar tomonidan bir marta oʻqitiladi.

(Tushunchalarini aniqlash uchun tezkor savol – javob slaydda berilgan)

**4. Darsni mustahkamlash.** (slaydda berilgan)

**5 Baholash.** . Faol qatnashganligiga qarab ragʻbatlantirib, baholayman.

**6. Uyga vazifa .**

Boʻri va ot rasmini chizish. Matnni oʻqib, gapirib berishga tayyorlanib kelish.



**7. Darsni yakunlash.** (slaydda berilgan)

## **DARS MAVZISI: BUYUKLAR VATANI.**

### **Darsning maqsadi:**

**Taʼlimiy:** Oʻquvchilar toʻgʻri , ongli, ifodali oʻqish koʻnikmalarini takomillashtirish. Buyuk ajdodlarimiz haqida tushuncha berish. Bilim boyligini kengaytirish.

**Tarbiyaviy:** Tugʻilib oʻsgan joyini, vatanini sevrishga, qadrlashga , mehr-muhabbatli boʻlishga oʻrgatish. Oʻquvchilarni buyuk insonlarga boʻlgan his-tuygʻularini uygʻotish va ularning izdoshlari boʻlishga undash.

**Rivojlantiruvchi:** Oʻquvchilarni vatanparvarlik tuygʻularini rivojlantirish. Ogʻzaki nutqini oʻstirish.

**Dars turi:** Yangi bilim beruvchi.

**Dars uslubi:** noanʼanaviy, suhbat.

**Dars jihozi:**Buyuk bobolarimiz rasmlari, Oʻzbekiston tasvirlangan rasmlar, test sinovi, boshqotirma.

### **Darsning borishi.**

#### **1.Tashkiliy qism.**

Oʻquvchilar davomatini aniqlash.

- Bugun darsda kim navbatchi?
- Navbatchi oʻrnidan turadi.
- Bugun darsga barcha kelganmi? Kimlar yoʻq?
- Navbatchi axboroti tinglanadi.

#### **2.Ehtiyojlarni aniqlash. “ Oltin qoidalar “**

O‘zaro hurmat. Birovlar fikrini tinglash. Shovqin qilmaslik. Darsda faol qatnashish. Do‘stona munosabatni saqlash.

**Dars shiori: Doim olg‘a intil.!**

Aziz o‘quvchilar sizlar bu shiorga amal qilib doim olg‘a yurasizlar degan umiddaman.

O‘quvchilardan oy, kun va hafta kunini so‘rab sinf taxtasiga yozaman.

**3.O‘tilgan mavzuni so‘rash va rag‘batlantirish, baholash.**

- O‘quvchilar biz sizlar bilan O‘qish darsida qaysi mavzuni o‘tgan edik.?
- Biz o‘tgan O‘qish darsida Po‘lat Mo‘minning “Vatan – bu “ she’rini o‘tgan edik.
- Uyga vazifa nima edi?
- Uyga vazifa she’rni yod olish.

She’rni 5–6 o‘quvchiga ifodali qilib ayt tiraman. Keyin barcha o‘quvchini turg‘azib jo‘r qilib ayt tiraman.

Otilgan mavzuni test sinovi orqali mustahkamlayman.

1. Vatan degani nima ekan?

a ) tug‘ilgan joyi      b ) odamlar yashaydigan joy

2. “Vatan – bu “ she’rini muallifi kim?

a ) Erkin Vohidov      b ) Po‘lat Mo‘min

3. She’rda “ Vatan “ so‘zi necha marta takrorlangan?

a ) 5 marta      b ) 4 marta

4. **Yangi mavzu bayoni.**

**MAVZU: BUYUKLAR VATANI.**

**QULIBEKA RAHIMBOYEVA.**

Qutlibeka Rahimboyeva O‘zbekiston shoirasi. Yoshligidan o‘qishga qiziqadi. A’lo o‘qishi bilan bizga she’rlar , kichik hikoyalar ham yozadi. Bugun shunday hikoyalaridan biri “Buyuklar vatani “ mavzusini o‘qib o‘rganamiz.

Mana “Vatan “ nimaligini bilib oldik.

- “Buyuk inson “ deganda kimni tushunasiz?
- O‘quvchilar fikrini tinglayman.

Matnni o‘quvchilarga o‘qib beraman. Mazminini ko‘rgazmalar orqali hayotga bog‘lab tushuntirib, so‘zlab beraman.

**Lug‘at ishi :**

**Davlat arbobi** –hukumat idoralarida ishlaydigan odamlar.

**Madrasa** - o‘tmishda bolalar o‘qishni davom ettiradigan joy.

\_\_\_ O‘quvchilar matn orqali qaysi bobolarimiz bilan tanishdingiz?

\_\_\_ Amir Temur, Ulug‘bek, Alisher Navoiy.

\_\_\_ Bulardan tashqari buyuk ajdodlarimizdan yana kimlarni bilasiz?


\_\_\_ O‘quvchilar javobini eshitaman.

Mavzuga qo‘shimcha qilib Ibn Sino, Ai – Xorazmiy, Jololaddin Manguberdi bobolarimiz haqida tushuncha beraman.



**Ibn Sino** bobomiz mashhur tabib bo'lgan. U yashagan paytda shifoxona va shifikorlar bo'lmagan. U kasallarni o't - gilyohlar bilan davolagan. Unga ko'pchilik qarshi chiqqan va ishonmagan. Bir kuni podshohning qorni juda og'rib qolibdi. Ibn Sino uni ko'rib qornini yorib ko'rish kerak debdi. Shunda vazirlar podshohni kesmoqchimisani deb Ibn Sinoni dorga osmoqchi bo'libdi. Shunda og'riqqa chiday olmagan podshoh : Men roziman , mayli tig' bilan davolay qolsin debdi. Ibn Sino podshohni buralib qolgan ishagini olib tashlabdi. Podshoh tuzalib ketibdi.

Barcha Ibn Sinoning ishiga qoyil qolibdi.




**Al – Xorazmiy** bobomiz 1 dan 10 gacha bo'lgan sonni o'ylab topgan. Matematika faninig podshosi.



**Jaloladdin Manguberdi** bobomiz ham Xorazmda tug'ilgan. U tengi yo'q dono, aqqli jangchi sarkarda bo'lgan. Xorazmni dushmanlar-dan himoya qilgan. Bu bobolarimiz haqida to'liq keyingi darslarda tanishib olasizlar.

**Dam olish daqiqasi. Boshqotirma yechish.**

**SO'Z KALITI "V A T A N"**



Matnni o'quvchilarga navbat bilan o'qitaman.

O'qigan joyidan savol berib xotirasini tekshirib boraman.

**Maqol. Ona yurtiing – oltin beshiging.**

O'zbekistonimiz tasvirlangan rasmlar orqali ona yurtimiz oltin beshigimiz ekanini tushuntirib, yoritib beraman.



Qatorlararo maqol aytish musobaqasi o'tkazaman.

### 5. Darsni mustahkamlash.

Darsni "U kim ekan" o'yini orqali mustahkamlayman.

(Bunda savol kimga qaratilgan bo'lsa, shu kishini rasmini teskarisiga ilib qo'yamiz. O'quvchilar to'g'ri javon berib topishsa, rasmni aylantirib qo'yamiz.)



Masalan: Yurtimizni obod qilgan, madrasalar, saroylar, yo'llar qurdirgan, bog'lar barpo qildirgan bobomiz kim ekan?  
O'quvchilar **Amir Temur**.




Osmondagi yulduzlarni sanagan, har bir yulduzning joyini aniqlagan bobomiz kim ekan?  
O'quvchilar **Ulug'bek**.



Juda ko'p she'r va rivoyatlar yozgan, bizning tilimizni boyitgan bobomiz kim ekan?  
O'quvchilar **Alisher Navoiy**.



Kasallik sirlarini o'rgangan, bemorlarni o't va goyohlar bilan davolagan bobomiz kim ekan?  
O'quvchilar **Ibn Sino**



Asli Xorazmlik, Matematika fanining podshosi, 1 dan 10 gacha sonlarni o'rgatgan bobomiz kim ekan?  
O'quvchilar **Al - Xorazmiy**.



Xorazm farzandi, qo'rqmas, dovyurak sarkarda, vatanimizni dushmanlardan himoya qilgan bobomiz kim ekan?  
O'quvchilar **Jaloladdin Manguberdi**.

**6.Darsda faol qatnashgan o‘quvchilarni baholash. Ularni rag‘batlantirish.** (Ofarin, ota – onanga rahmat, barakalla)

**7.Uyga vazifa:** Qutlibeka Rahimboyevaning “Buyuklar vatani” hikoyasini o‘qib, so‘zlab berishga tayyorlanib kelish. Maqolni yod olish.

**8. Darsni yakunlash.** Xayr sog‘ bo‘ling.

## MATEMATIKA

**Dars mavzusi.**  $350 + 80$ ,  $710 - 60$  ko‘rinishdagi qo‘shish va ayirish usullari  
 $384 - 389$  – misol, masalalar.

**Darsning ta’limiy maqsadi.**

- Fanga qiziqish uyg‘otish.
- Uch xonali songa ikki xonali sonni qo‘shish va ayirish usullarini tushuntirish.

**Darsning tarbiyaviy maqsadi.**

- Tez, to‘g‘ri, og‘zaki hisoblashga o‘rgatish.
- O‘zgalar fikrini tinglashga, do‘stona munosabatda bo‘lishga undash.

**Darsning rivojlantiruvchi maqsadi.**

- Bilim doiralarini kengaytirish.
- Misol, masalalar yechtirish.


**Darsning jihozi.** Ko‘rgazma, darslik, chizilgan jadvallar.

**Darsning turi.** Noan’anaviy.

**Darsning uslubi.** Yangi bilim beruvchi.

**Darsning borishi.**

O‘quvchilar diqqatini darsga jalb qilish. Sinf o‘quvchilari uchta guruhga ajratilgan.



Har bir guruh o‘z guruh nomlari haqida izoh beradilar.

Guruhlardan savollarga to‘g‘ri javob bergan, misollarni to‘g‘ri yechgan o‘quvchilarni qalam bilan rag‘batlantirib boraman.


### **1 – SHART.**

#### **Uy ishini tekshirish.**

- Bunda guruhlar 2 tadan ifodani yechilishini o‘qiydilar.
- Boshqa o‘quvchilar uy ishi daftarlaridan o‘zlari ishlab kelgan misollarini tekshiradilar.
- 383 – masala shartini bitta guruh, qisqa shartini bitta guruh, yechilishini bitta guruh o‘qiydi.

### **2 – SHART.**

#### **“Kim chaqqon “ o‘yini.**



#### **Yangi mavzu bayoni.**

Hisoblashlarning turli usullarini tushuntirish.

1)  $350 + 80 = (350 + 50) + 30 = 430$

50 30

$350 + 80 = 35 \text{ o'nlik} + 8 \text{ o'nlik} = 43 \text{ o'nlik}$

2)  $710 - 60 = (710 - 10) - 50 = 650$

10 50

$710 - 60 = 71 \text{ o'nlik} - 6 \text{ o'nlik} = 65 \text{ o'nlik}$

### **3–SHART.**

#### **Tushuntirish bilan yechish.**

$290 + 70 = \text{purple circle}$     $830 - 90 = \text{purple circle}$     $740 - 60 = \text{purple circle}$

$420 - 50 = \text{purple circle}$     $380 + 80 = \text{purple circle}$     $910 - 40 = \text{purple circle}$

Har guruhdan ikkitadan o‘quvchi chiqib ifodalarni yechadilar.

### **4–SHART.**

#### **“Og‘zaki hisoblash.”**

$$\begin{array}{rcl}
 42 - & & 19+ \\
 & \dots & \\
 + 15 & & - 8
 \end{array}$$

O'quvchilar o'rtada berilgan sonlarni qo'shib, ayiradilar.

### 5–SHART.

#### Hisoblang va tekshiring.

385 – misol.

$$36 + 28 = 64 \quad \text{tek:} \quad 64 - 28 = 36$$

Qolgan ifodalarni har guruhdan ikkitadan o'quvchi chiqib yechdilar.

$$41 - 19 = \quad \quad \quad 24 \times 3 = \quad \quad \quad 91 : 7 =$$

Tek :

### 6–SHART. “Bu kim” o'yini.

1).1441 yilda Xirotda tug'ilgan. So'z mulkingning sultoni.

Oz – oz o'rganib dono bo'lur,

Qatra – qatra yig'ilib daryo bo'lur. Hikmatlari bilan mashhur bobomiz kim?

Necha yoshdalar?

$$2014 - 1441 = 570 \text{ yosh } \underline{\text{A NAVOIY.}}$$

2).980 – yilda tug'ilgan. Tabobat ilmining hokimi ,

Badantarbiya kuch etar hadya

Yeb bo'lib ovqat, yugurma faqat. O'g'itlari bilan taniqli bobomiz kim? Necha yoshda ?

$$2014 - 980 = 1031 \text{ yoshda } \underline{\text{IBN SINO.}}$$

3).1199 – yilda tug'ilgan. Chingizxon harbiy kuch bilan Urganchni bosib ololmagach hiyla ishlatishga o'tdi.Unga qarshi kurashgan, mard, jasur bobomiz kim ? Necha yoshda?

$$2014 - 1199 = 812 \text{ yoshda } \text{J Manguberdi.}$$

4). Buyuk sarkarda . 1336 – yilda tug'ilgan. Kuch adolatda. Elim deb, yurtim deb jonini fido qilgan inson kim? Necha yoshda?

$$2014 - 1336 = 675 \text{ yoshda } \underline{\text{A TEMUR.}}$$

5) . 973 – yilda tug'ilgan. 22 yoshga kirmay yer sharini o'rganib chizgan, Xorazmdan Hindistongacha ilm izlab dunyo kezgan bobomiz kim? Necha yoshda ?

$$2014 - 973 = 1038 \text{ yoshda. } \underline{\text{BERUNIY.}}$$

6) . ? – yilda tug'ilgan . Hind hisobiga yangilik kiritgan, 10 raqamini yozib ko'rsatgan, matematika ilmining asoschisi kim? Necha yoshda ?

$$2014 - ? = \text{ yoshda. } \underline{\text{AL XORAZMIY.}}$$

### 7–SHART.

#### Masala yechish.

386 – masala birgalikda bajariladi.

Sh. Chiqishdi - 270 ishchi

Maktabda - 30 kishi

Bog'chada - 40 kishi  
 O'z ish joyida - ? kishi  
 $Y: 30 + 40 = 70 \quad 270 - 70 = 200$  Javob : 200 kishi o'z ish joyida ishlagan.  
 387 – masala . Og'zaki tushuntiriladi.  
 Katta bidon – 15 l  
 Banka - ? l                      5 dan 1 qismi       $Y: 15 : 5 = 3$       Javob. Banka 3 l  
 3 ta bidonga ? banka kerak.       $Y: 3 \cdot 15 = 45 \quad 45 : 3 = 15$  Javob : 15 banka kerak.

## 8–SHART.

“Jadvalni to‘ldir “ o‘yini.

|     |    |    |    |     |    |    |    |              |
|-----|----|----|----|-----|----|----|----|--------------|
| M   | 24 | 18 | k  | 95  | 90 | a  | 17 | 21           |
| N   | 3  |    | d  | 7   |    | b  |    | 6            |
| m n | 96 | 78 | 90 | k:d | 19 | 14 | 6  | a b 51 96 84 |

## Darsni mustahkamlab, yakunlash.

Guruhlar to‘plagan bollarini aniqlash. G‘olib guruhni rag‘batlantirish. Faol qatnashgan o‘quvchilarni bilimini rag‘batlantirish.

Uy ishi: 388 – 389 – misol, masala.

## BOSHLANG‘ICH SINIF O‘QUVCHILARIDA O‘Z-O‘ZINI TARBIYALASH MEZONLARI

Tarbiya jarayoni faqat o‘qituvchi va tarbiyachi rahbarligida amalga oshirilmaydi. Tarbiya jarayonida tarbiyalanuvchilarning o‘zlari ham ishtirok etadilar, ya’ni ular o‘zlarini-o‘zlari tarbiyalaydilar. O‘z-o‘zini tarbiyalash insonning o‘zida ma’lum fazilatlarni o‘stirishga qaratilgan ongli intilish va iroda kuchidir. "O‘z-o‘zini tarbiyalashga undovchi tarbiya ishonchim komilki, bu haqiqiy tarbiyadir". V.A.Suxomlinskiy "Tarbiya to‘g‘risida (32 – bet)

Har bir shaxs ijtimoiy muhit ta’sirida, jamiyat ta’sirida bir qator sifatlarni orttiradi. Odamda o‘z-o‘zini tarbiyalash faoliyat elementlari kichik yoshdan boshlanadi, bu ishga o‘smirlik davrida ongli ravishda kirishadi va yigitlik davrida yanada rivojlanadi, chunki odamda o‘z-o‘zini tarbiyalashga intilish, o‘z xatti-harakatini idora etish va baho berish qobiliyati vujudga kelgan vaqtda paydo bo‘ladi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilaridagi o‘z-o‘zini tarbiyalash faoliyatiga albatta o‘qituvchilar, tarbiyachilar va ota-onalar rahbarlik qilishi, ularning o‘z-o‘zini tarbiyalashini ko‘zdan qochirmasligi va muayyan maqsad yo‘liga solib yuborishi lozim. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining o‘z-o‘zini tarbiyalash ishida o‘quvchilar jamoasi, jamoatchilik fikri ham katta ahamiyatga ega. Bolalar o‘z-o‘zini tarbiyalashda o‘zlariga na’mana deb bilgan sifatlarni tanlaydilar va tahlil qiladilar.

Bola bilim olishdan avval taqlid qilishni o‘rganadi (Komenskiy) bunday holatda kattalar albatta yordam berishlari kerak.

Agar o'qituvchilar, tarbiyachilar, ota-onalar bolalarning o'z-o'zini tarbiyalashda ko'z-quloq bo'lib turmasalar, bolalar salbiy sifatlarni singdirib olishlari mumkin.

Tarbiya ishining yana bir tomoni, ya'ni ba'zi bir bolalarni qayta tarbiyalash masalasiga alohida e'tibor berishdir.

Ayrim oilalarda bolalarga yoshlikdan noto'g'ri tarbiya berish natijasida ular g'oyatda intizomsiz, erka-tantiq, ish yoqmas, qaysar bo'lib qoladilar. Ular qayta tarbiyalashga muhtoj bo'ladilar.

Ba'zi tajribasiz, pedagogik mahoratga ega bo'lmagan o'qituvchilar bolalarga ta'lim va tarbiya berishda bir qator xatoliklarga yo'l qo'yadilar. Bunday xato va nuqsonlar oqibatida o'zlashtirmovchilik, intizomsizlik kabi hollar kelib chiqadi.



Atoqli mashhur pedagog A.S.Makarenko bolalarga mumkin qadar juda kichik yoshidan boshlab to'g'ri tarbiya berishga kirishish kerakligini, aks holda keyinchalik qayta tarbiyalash og'ir ekanini, bu ish ko'p kuch va bilim talab etishini ko'rsatib: "bolani qayta tarbiyalashga nisbatan uni to'g'ri va normal tarbiyalash ancha osondir" degan edi.

Misol: bolalarning salom berishlari yoki kattalarning salom bermasliklari.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini ijodkor, faol va fidoiy komil insonlar qilib voyaga etkazish, ularni har tomonlama ma'lumotli va yuksak ahloqiy fazilatli qilib tarbiyalash ishlari maktabda ta'lim-tarbiya jarayonida amalga oshiriladi. Bu jarayonda asosiy masala - o'quvchilar faoliyatidir.

Tarbiya jarayoni odatda qayta tarbiyalash, bolaning atrof-muhitdagi u yoki bu hodisalar bilan salbiy aloqasi natijasida vujudga keladigan munosabatlar va o'z xususiyatlarini bartaraf etish bilan qo'shib olib boriladi. Eng yuqori darajaga erishadigan tarbiya jarayoni o'z-o'zini tarbiyalashga muvofiq bo'lishdir.

Tarbiya uzoq davom etadigan va aslida uzluksiz jarayon bo'lib, bu jarayon bola maktabga kelishidan ilgariyoq boshlanadi va butun umr bo'yi davom etadi. Tarbiya ko'pgina sabablarga: o'quvchilarning individual-tipologik tasavvurlariga; ularning hayotiy va ma'naviy tajribasi; shaxsiy pozitsiyasiga bog'liqdir.

### **BOSHLANG'ICH SINFI O'QITUVCHILARINING KASBIY SIFATLARI**

E'tiqod odob, fuqarolik burchini anglash o'quvchining asosiy sifatlaridan biridir. Bolalarga mehr-muhabbat uning eng muhim fazilatidir. Uning muhim fazilati ko'pchilik bilan muomila qila olishdir.

O'qituvchining odobi, madaniyati yuksak bo'lsagina odamlarga nisbatan mehribon, sahovatli bo'la oladi, uni hamma hurmat qiladi. U pedagogik etikaning normalarini o'zlashtirib olishi, tajribada qo'llashi, o'zining dunyoqarashi va

ahloqiy tajribasi bilan taqqoslash lozim.

Bu ahloqiy e'tiqod o'qituvchining dars berish jarayonida, tarbiyaviy ishlarda, o'quvchilar va boshqalar bilan munosabatlarda, muomilasida, kundalik turmushda o'zining shaxsiy namunasi bilan ahloqiy (barcha tarkiblar bo'yicha) ta'sir o'tkazish ko'zga tashlanadi.

Ahloq nazariyasida yaxshilik eng muhim kategoriya hisoblanadi. Unda o'qituvchi va o'quvchilar jamoasi manfaatlarining birligi, muallim va o'quvchi maqsadining birligi aks etadi.

Yaxshilik fazilati ikkala tomonning ham yaxshi niyatli, xayrihoh, mehribon bo'lishini taqozo qiladi.

Shaxs ahloqini xarakterlaydigan belgilaridan biri mas'uliyatdir. Uning mas'uliyati - mas'uliyat tushunchasining butun mazmunini saqlagan holda muallimning faoliyati va ta'lim-tarbiya jarayonining aniq vazifalarini ham o'z ichiga oladi. Muallim sinfda jamiyatning vakili sifatida o'quvchilar jamoasi bilan yolg'iz o'zi ish olib boradi.

Pedagogik odobga ega bo'lgan o'qituvchi, o'quvchilar orasida obro' qozonadi. U qanchalik ko'p obro' qozonsa, ta'lim-tarbiya mohiyatan shunchalik, samarali ta'sir ko'rsatadi.

Xullas obro' o'qituvchilik faoliyati uchun zarur xususiyatdir. Obro' uning chuqur bilimi, yuksak ahloqiy



sifatlari, hayot tajribasi, ilmiy tadqiqot va jamoat ishlarida faol ishtirok etishi tufayli orttirilgan, ko'pchilik tomonidan e'tirof etilgan ta'siri, nufuzidir.

Pedagogik faoliyat o'z mohiyatiga ko'ra ijobiy xarakterga ega. Ma'lumki, inson oldida bular muammo turgandagina ijodkorlikka ehtiyoj tug'iladi.

Pedagogik ijodkorlik manbai - bu pedagogik tajriba va izlanuvchanlikdir. U muammoli vaziyatlarga boydir. Ilg'or pedagogik tajriba deganda biz o'qituvchining o'z pedagogik vazifasiga ijobiy yondashishni, o'quvchilarning ta'lim-tarbiyasida yangi, samarali yo'l va vositalarni qidirib topishni tushunamiz. Ilg'or pedagogik tajribani o'rganish, unga asoslanib yangi pedagogik hodisa va qonuniyatlarni ochish o'quv-tarbiya jarayoniga yaxshi sifatli o'zgarishlar kiritadi.

Hozirgi zamon fan va texnika taraqqiyoti o'qituvchining ijodkor bo'lishini, fanning muhim muammolari yuzasidan erkin fikr yurita olish, fan yutuqlarini o'quvchilarga yetkaza olishi va nihoyat o'quvchilarni ham ijobiy fikrlashga, tadqiqot ishlariga o'rgata olishini talab qiladi.

Kasb madaniyatining eng zarur sifatlari: xushmuomilalik, e'tiborli bo'lish, mehribonlik, o'z-o'ziga talabchanlik, donolik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, o'z kasbi va burchiga sadoqat, ziyolilik, munozaraga kirisha olish, mulohazali bo'lish, baynalminallik, tejamkorlik, yaxshi va yomonni tez farqlash, go'zallik va xunuklikni ajrata olish, mustaqillik, o'zgalarga g'amxo'rlik qila olish, birovlarini

tinglash, fikrini bo'lmashlik, iboli, iymonli bo'lish, to'g'ri, pok, tashqi va ichki go'zallik, bilimdonlik va hokazo.

### **BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA TO'G'RI NUTQ TALAFFUZINI SHAKLLANTIRISH**

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida to'g'ri nutq talaffuzini shakllantirishda korreksion ish tizimi 2 bosqichda amalga oshiriladi:

1-bosqich-tayyorlov bosqichi. Uning asosiy vazifasi: - eshitish diqqatini shakllantirish, eshitish xotirasi va fonematik qabul qilish;

- nutq motorikasi rivojlanishidagi kamchiliklarni aniqlash, nutqning periferik organlari harakatini rivojlantirish uchun artikulyatsiya mashqlarini o'tkazish.

2-bosqich vazifalariga quyidagilar kiradi: - noto'g'ri talaffuzni aniqlash,

-bolalarda tovushni farqlash malakasini shakllantirish, - bolalar mustaqil nutqidagi talaffuz, ko'nikma va malakalarini shakllantirish. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida to'g'ri nutq talaffuzini shakllantirishda logoped o'qituvchi o'qish, odobnoma, musiqa darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqini tuzatish, tarbiyalash va o'qitish ishlarini uning ota-onasi bilan hamkorlikda amalga oshiradi. Bunda ta'limning quyidagi shakllaridan foydalanish samarali natijalarga erishish imkonini beradi. Nutqiy nuqsoni bor bolalar bilan ishlash shakllari:

- Kundalik maishiy faoliyat
- O'yin
- Bolalar mehnati
- Dars mashg'ulot
- Ko'ngilochar tadbirlar

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutqidagi nuqsonlarni bartaraf etish, ularda ravon nutqni rivojlantirish bolaning maktabda muvaffaqiyatli ta'lim olishini kafolatlaydi.

### **TA'LIM VA TARBIYA TAMOYILLARI**

Albatta, zamonaviy ta'limni har tomonlama qulay bino va inshootlar, o'quv va amaliy mashg'ulot qurollari, laboratoriya uskunalari, kompyuter texnikasisiz tasavvur etib bo'lmaydi. Biroq bular soha rivojining bir jihatigina, xolos. Qolaversa, dunyoning rivojlangan davlatlarida, ayniqsa, G'arb mamlakatlarida ta'limning moddiy-texnik bazasi o'zining nihoyatda mustahkamligi, boyligi, rang-barangligi bilan ko'pchilikning havasini keltirishi ham bor gap. Lekin bugun insoniyatni jiddiy o'yga toldirayotgan muhim muammolardan biri shundaki, o'sha mamlakatlar izmida shuncha moddiy-moliyaviy imkoniyat, sharoit bo'lishiga qaramay, yoshlar o'rtasida jinoyatchilik, bag'ritoshlik, e'tiqodsizlik, ahloqsizlik singari ijtimoiy va ma'naviy emirilishlar tobora kuchayib bormoqda. Ayni holatning odamzod kelajagi bilan bog'liq jiddiy muammolarni keltirib chiqarishini teran idrok etgan yurtboshimiz ta'lim va tarbiyaning o'zaro mustahkam bog'liqligini, ularni bir-biridan ajratish aslo mumkin emasligini alohida

ta'kidlaydi: «Ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi - bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi». Darhaqiqat, biz mansub bo'lgan Sharq xalqlari maktabga, umuman ta'lim muassasasiga bolaga faqat ta'lim beruvchi, ilmu - hunar o'rgatuvchi maskan deb emas, balki inson shaxsini tarbiyalovchi, uni har tomonlama barkamol etib shakllantiruvchi qutlug' dargoh deb ham qaragan.

Chunki aqlli, bilimli bo'lish insonning bir ziynati – odob - ahloqni, mehr - oqibatni, insoniylikni hayotiy e'tiqod deb bilish kishining ma'naviy ko'rki sanaladi. Bizning yurtimizda joriy etilgan ta'lim-tarbiya tizimi oldiga yosh avlodni



nafaqat chuqur bilim, zamonaviy dunyoqarash egasi qilib o'stirish, balki qalbida ezgu tuyg'ularni parvarishlash, ularni Vatanga muhabbat, xalqqa sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashdek mas'uliyatli vazifa qo'yilgan. Ma'rifatparvar bobomiz Abdurauf Fitrat o'z vaqtida bu masalani quyidagicha asoslagan edi: «Avlodni tarbiyalash insoniyatning xizmatidir. Qachonki biz yaxshi

ahloq egasi bo'lgan farzandlarni tarbiyalasak, shundagina bo'ynimizdagi bu xizmat majburiyati soqit bo'ladi. Kimki, badahloq bolalarni tarbiya etsa, insoniyatga xizmat emas, balki dushmanlik qilgan bo'ladi». Xalqimiz tomonidan «Ustoz otangday ulug'» degan hikmat bejiz aytilmagan. Chunki bolaning chinakam inson bo'lib tarbiyalanishida, ma'naviy qusurlarsiz shaxs bo'lib oyoqqa turishida o'qituvchi va murabbiylar xizmati otaning xizmatidan kam bo'lmaydi. Yurtimiz o'qituvchilari yoshlarga faqat bilim berish, ularning aqlini to'liq, zihnini o'tkir bo'lishi xususidagina emas, balki o'sib voyaga etayotgan bolaning xulq-atvori insoniy qiyofa kasb etishi, uning qalbida mehr-oqibat, boshqalarga hurmat-e'tibor, o'zgalar quvonch va dardlariga daxldorlik tuyg'ulari ham kamolga yetishi to'g'risida ham jon kuydiradi. Bu borada avvalo o'qituvchi-murabbiylarimizning o'zi boshqalarga ibrat bo'ladi, har bir so'zi, harakati bilan atrofida sog'lom ma'naviy muhit qaror topishiga urinadi. O'zbekiston Prezidenti xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga chambarchas bog'liq ekanini ta'kidlab, mazkur masalani oqilona hal etishning, jumladan, quyidagi jihatiga e'tibor qaratadi: «Buning uchun har qaysi ota-ona, ustoz va murabbiy har bir bola timsolida avvalo shaxsni ko'rishi zarur». Mazkur qarash asosida amalga oshirilgan sa'y-harakatlarning samarasi o'laroq, O'zbekistonda ta'lim-tarbiyaning pirovard maqsadi, mazmun-mohiyati tubdan o'zgardi, yangilandi. Bugungi o'quvchi-talabanning ongi, aqlu, shuuri endi qotib qolgan sho'roviy aqidalar, sinfiy qarashlar bilan to'ldirilmaydi. Farzandlarimiz xalqimizning asrlar davomida asrab-avaylab, e'zozlab kelgan o'lmas ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlarini qalbi va ongiga chuqur jo qilish barobarida, dunyoning eng ilg'or fikri bilan tanishish, uni tahlil etish va o'z qarashini emin-erkin shakllantirish

imkoniyatiga erishdi. Bu degani- yoshlarimiz tafakkuri ozod bo'ldi, uning ufqlari kengaydi, deganidir.

### **BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARINI MILLIY QADRIYATLAR ASOSIDA TARBIYALASH**

Ma'lumki, o'zbek xalqining milliy urf-odatlari madaniy taraqqiyoti darajasini belgilaydi. Kishi shaxsining rivojlanishida urf-odatlar ham ta'sir ko'rsatadi. Xalq turmushiga, ahloqiga singib ketgan, uning milliy xususiyatini ifodalovchi milliy urf-odatlar hamma davrlarda ham shaxs kamoloti va jamiyat madaniyatida muhim o'rin tutgan. Uning tarbiyaviy jihatlari xalq o'rtasida keng targ'ib qilingan.

O'zbekiston Respublikasining " Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" da ham milliy urf-odatlarni o'rgatishga alohida e'tibor qaratilib ta'kidlanadi: " Yosh avlodni ma'naviy-ahloqiy tarbiyalashda xalqning boy madaniy-tarixiy an'alariga, urf-odatlari hamda umumbashariy qadriyatlariga asoslangan samarali tashkiliy, pedagogik shakl va vositalari ishlab chiqilib amaliyotga joriy etiladi. Shaxsni tarbiyalash va uni har tomonlama kamol toptirishning ustuvorligi ta'minlanadi. Umumiy hamda pedagogik madaniyatni oshirish maqsadida, mamlakat orasida milliy urf-odatlarga e'tibor kuchaytirilib boriladi ".

Milliy urf-odat o'zi nima? U o'quvchilarga qanday singdiriladi? Bu savollarga javob berish uchun avvalo milliy urf-odat tushunchasiga oydinlik kiritib olishimiz zarur. Adabiyotlarda urf-odatlar tushunchasiga turlicha izoh berishadi. Jumladan, "Pedagogik fanidan izohli lug'at" kitobining mualliflari " millatning, xalqning turli sohalarida namoyon bo'ladigan tushunchalar, belgilar, xususiyatlar, odatlar va xislatlarning ajdoddan avlodga o'tish hamda meros bo'lib qolish tarzi" deyishsa, Ma'naviyat: asosiy tushunchalar izohli lug'atida milliy urf-odatlarga quyidagicha ta'rif beradi: "Milliy urf-odatlar millatning turmush tarziga singib ketgan, uning shakllanishi va rivojlanishiga xizmat qiladigan ijtimoiy-madaniy hayotida o'z aksini topgan, doimiy takrorlanib turadigan xatti-harakat, ko'pchilik tomonidan qabul qilingan xulq-atvor qoidalari va ko'nikmalar ko'rinishidir".



Yuqorida keltirilgan ta'riflarni umumlashtirib milliy urf-odatlarni quyidagicha ifodalashni maqsadga muvofiq deb topdik. Demak, milliy urf-odatlar har bir millatga taalluqli bo'lgan an'alarimiz, odatlarimizning avloddan avlodga o'tib kelayotgan milliy qadriyatlarimiz, tushuncha, milliy meroslarimizning majmuasidir. Unda xalqimizning o'ziga xos odatlari: intizomi, madaniyati, ma'naviyati mujassamlashgan. Uning bosh maqsadi kishilarni har tomonlama yetuk, ma'naviy pok insonlar qilib tarbiyalashdan iborat bo'lib, ahloq madaniyatining bir qismidir.

Milliy urf-odatlar asosida har bir millat, xalq yoki elatning, qolaversa,

shaxsning rivojlanish jarayonida avlodlardan avlodlarga o'tib kelayotgan odatlari, madaniy xususiyatlari yotadi. Urf-odatlar asosida har bir xalqning tarixi, an'analari, xalq og'zaki ijodi, turmush tarzi takomillashib boradi. Bu urf-odatlarni kichik maktab yoshidan o'quvchilar ongiga singdirib borish zarur bo'ladi. Bu urf-odatlar turli xil usul va vositalar orqali o'quvchilar ongiga singdiriladi. Buning uchun o'qituvchi quyidagilarga rioya qilishi lozim.

- xalq orasida keng tarqalgan va shaxs kamolotida ma'lum ahamiyatga ega bo'lgan urf-odatlarni boshlang'ich sinf o'quvchilariga misollar bilan atroflicha tushuntirish, ularning o'quvchi faoliyatida puxta o'zlashtirishlari va ahloqiy fazilatlarga amal qilishini ta'minlash uchun har tomonlama asoslab berish;



- milliy urf-odatlarni darsda o'rganilayotgan mavzular bilan bog'lash, o'quvchilarning urf-odatlari, ahloq, odobini, bilimlarini takomillashtirishga erishish;

- "Odobnoma", "O'qish kitobi" va boshqa fan mashg'ulotlarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining milliy urf-odatlar haqidagi bilimlarini mustaqil va ijodiy fikrlash, og'zaki va yozma ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish.

Milliy urf-odatlar bolalikdan boshlab shakllanadi. Kichik yoshdagi bolada urf-odatlar katta kishilar bilan bo'lgan munosabatda ijobiy turlari shakllana boshlaydi. Aytaylik, kechqurun oila a'zolari dasturxon atrofiga o'tirishib ovqatlanmoqchi. Ovqat olib kelinganda, kattalar ovqatlanishni boshlab bermasdan kichiklarning ovqatga qo'l uzatishi odobdan emasligini bolalarga o'rgatib, odatlantirish kerak. Ana shunda bolalar katta kishilardan oldin ovqatlanish mumkin emasligini tushunib boradi. Bu sharqona odat bo'lib, avlodlardan meros sifatida o'tib kelayotganligini tushuntirish foydali bo'ladi. Yoki salomlashish odobini olaylik. Ma'lumki, o'zbek xalqida salomlashish odobi kichik yoshdagilardan boshlanadi. O'qituvchi o'quvchilarga o'zlaridan katta kishilarga birinchi bo'lib salam berishi urf-odatlarimizga kirishini tushuntiradi. Salomlashish odobining ma'nosi shuki, men sizga yaxshi niyat, sog'lik, salomatlik tilayman degan tushunchalarni anglatadi. O'zgalarga nisbatan yaxshi niyatda bo'lishi kishi kamoli uchun ahamiyati ulug'dir. Bunday oq qo'ngil kishilar boshqa kishilarga faqat yaxshilik tilaydi. Salom berganda kishi "Vaalaykum assalom", ya'ni sizga ham salomatlik, omonlik tilayman deb javob qaytariladi. Shu o'rinda o'qituvchi o'z o'quvchilari bilan salomlashish madaniyati haqida fikr yuritganlarida hayot tajribalaridan, buyuk allomalarning hayotlaridan ibrat-namuna keltirishlari maqsadga muvofiqdir. Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'zbek xalqining salomlashish urf-odatlariga sodiq qolib "Assalomu alaykum" deb salomlashib bir-birlariga, oila a'zolari va ustozlariga sog'lik va totuvlik tilashni, insoniylikning eng oliy va oddiy tuyg'usi salomlashish odatiga amal qilishini o'rgatish kerak. Milliy urf-odatlarni shakllantirishda zamonaviy tarbiya vositalaridan samarali

foydalanmoq zarur. Milliy urf-odatlarining kuchli vositasi bu kattalar bilan bo'lgan munosabat jarayonidir. U o'quvchi yoshlarning barcha yosh bosqichlarini qamrab oladi. Bolaning, ayniqsa, kichik maktab yoshiga munosib, tarbiyaviy ahamiyatga ega bo'lgan milliy urf-odatlar, boshlang'ich sinflarning darsliklarida berilgan mavzular o'quvchilarda milliy urf-odatlarining shakllanishiga katta ta'sir ko'rsatadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining milliy urf-odatlarida uning muomala odobi, etika qoidalariga rioya qilishi, kasbiy odobi hamda boshqalarga nisbatan munosabatlarining barcha ko'rinishlarida namoyon bo'ladi. Milliy urf-odatlarni shakllantirish jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarining ahloqiy ko'nikma va malakalari tarkib topadi va inson uchun zarur bo'lgan ahloqiy sifatlar shakllantiriladi. Bular: odamiylik, jonkuyarlik, mehribonlik, oliyjanoblik, oliy himmatlilik, baynalminallik, g'oyaviy sodiqlik, kechirimlilik, to'g'rilik, mehnatsevarlik, andishalilik, yaxshi muomala.

Milliy urf-odatlarimizdan meros bo'lib kelayotgan so'zlashish odobi katta ahamiyatga ega. Yaxshi so'z kishilarni bir-biriga birlashtiradi, yomon so'z esa do'stni dushmanga aylantiradi. Shunday ekan, har bir o'quvchi muomala jarayonida o'ylab gapirishi, yaxshi so'zlardan foydalanishini o'qituvchi o'z o'quvchilariga tushuntirib boradi.

Odamiylik ham milliy urf-odatlarimizdan biri bo'lib, odamlarga hurmat, ishonch, kamtarlik, to'g'rilik, samimiyluk kabi xislatlarni o'zida mujassamlashtiradi. Odamiylik inson sha'ni bo'lib, u buyuk ma'naviy kuchga ega. Odamiylik bilan odamlar o'rtasida adolat, insof, iymon bilan ish olib boradi.

Sadoqatli bo'lish milliy urf-odatlarimizning eng ulug' fazilatlaridan biridir. Chunki sadoqatli bo'lish ma'naviy-ahloqiy poklanish, nogironlarga, yetimlarga xayr-ehson, yaxshilik demakdir. Bu halol va pok, mehnatkash, mehribon bo'lish va sofdil ishlashdir.

Shuni aytish kerakki, yuqorida biz o'zbek xalqining milliy urf-odatlaridan hisoblangan salomlashish, muomala, odamiylik, sadoqatli bo'lish kabi boshlang'ich sinf o'quvchilarida shakllanishi kerak bo'lgan ahloqiy fazilatlar haqida ayrim fikrlarni bildirdik, xolos.

Milliy urf-odatlar boshlang'ich sinf o'quvchilarining fe'l-atvori, e'tiqodi va madaniyatini kamol toptirishda asosiy vositalardan biri bo'lib xizmat qiladi. Shuning uchun maktab tarbiya tizimida boshlang'ich sinf o'quvchilariga urf-odatlarni singdirishda o'qituvchi o'z ish faoliyatini maqsadga muvofiq tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Maktabda o'tkaziladigan tarbiyaviy tadbirlarda milliy urf-odatlar, o'zbek xalqining tarixiy an'analari, ahloq-odob talablaridan foydalanish har bir boshlang'ich sinf o'qituvchisining kundalik vazifasiga aylanishi bugungi davr talabidir.

## MUNDARIJA

|                                                                                                                              |        |
|------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|--------|
| 1. Kirish.....                                                                                                               | 4-5    |
| 2. Boshlang'ich sinf o'qituvchilarni boshlang'ich sinf o'quvchilar bilan muloqot olib borish mahorati.....                   | 5-11   |
| 3. O'qituvchining fidokorlik fazilatlarini - barkamol shaxsni tarbiyalashda muhim omildir.....                               | 11-12  |
| 4. Boshlang'ich sinflarda o'quv jarayonini pedagogik texnologiya asosida tashkil qilish uslublari.....                       | 13-15  |
| 5. Toshkent                                                                                                                  | 15-22  |
| 6. Biz buyuklar avlodi                                                                                                       | 22-27  |
| 7. Boshlang'ich sinflarda zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish metodologiyasi.....                              | 27-28  |
| 8. Musobaqa dars.....                                                                                                        | 28-35  |
| 9. Mehmon kutish odobi.....                                                                                                  | 35-39  |
| 10. Boshlang'ich sinf o'quvchining rivojlanishi va tarbiya.....                                                              | 40-41  |
| 11. 3 sinf odobnoma darsligidagi „nonni isrof qilmaslik odobdandir“ mavzusida esa darsga boshqacharoq yondashish mumkin..... | 41-45  |
| 12. Buyuk ajdodlarimiz.....                                                                                                  | 45-49  |
| 13. So'z turkumlari.....                                                                                                     | 49-53  |
| 14. Amallarni bajarish tartibi.....                                                                                          | 53-57  |
| 15. Boshlang'ich sinf o'quvchilarni bilim egallashning asosiy bosqichlari.....                                               | 57-61  |
| 16. Qushlar bizning do'stimiz.....                                                                                           | 61-68  |
| 17. Ota-ona haqini bilmak zikrida.....                                                                                       | 68-77  |
| 18. V harfini mustahkamlash.....                                                                                             | 77-80  |
| 19. Bosh t harfini yozish.....                                                                                               | 81-92  |
| 20. Hamjihatimiz –zukkomiz.....                                                                                              | 92-97  |
| 21. Ko'kyol.....                                                                                                             | 97-99  |
| 22. Buyuklar vatani.....                                                                                                     | 99-105 |

|    |                                                                                  |         |
|----|----------------------------------------------------------------------------------|---------|
| 23 | Matematika.....                                                                  | 105-108 |
| 24 | Boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'z-o'zini tarbiyalash<br>mezonlari.....        | 108-109 |
| 25 | Boshlang'ich sinf o'qituvchilarining kasbiy sifatleri.....                       | 109-111 |
| 26 | Boshlang'ich sinf o'quvchilarida to'g'ri nutq talaffuzini<br>shakllantirish..... | 111     |
| 27 | Ta'lim va tarbiya tamoyillari.....                                               | 111-113 |
| 28 | Boshlang'ich sinf o'quvchilarini milliy qadriyatlar asosida<br>tarbiyalash.....  | 113-115 |

**M.Allamova, M.Yarmanova, R.Matrasulova, R.Yakubova**

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA O'QISH, ONA TILI, ODOBNOMA VA  
MATEMATIKA**

**O'quv-uslubiy qo'llanma**

Bosishga ruxsat etildi      Bichimi      Rizograf bosma.  
Shart.b.l      Nashr.l      Adadi      nusxa. Buyurma №  
Bahosi kelishilgan narxda.



